

Abdilatip Sarimsokov

O`RTA OSIYO NUMIZMATIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Abdilatif SARIMSOKOV

O‘RTA OSIYO NUMIZMATIKASI

O‘quv qo‘llanma

**“Iste‘dod ziyo press” nashriyoti
Namangan
2023**

UO'K: 821-512-133-9
KBK: 84(O'zb)7
S-4

Abdilatip SARIMSOKOV. O'rta Osiyo numizmatikasi. O'quv qo'llanma. "Iste'dod ziyo press" nashriyoti. Namangan, 2023. – 160 b.

Mas'ul muharrir:

Isokov Baxtiyor Robiddinovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Isokboyev Alisher Axmadjonovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Qayumov Ma'ruf Usmonjonovich – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775- sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida»gi 816-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tayyorlangan. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari 5120300 – tarix (jahon mmlakatlari tarixi) ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan «O'rta Osiyo numizmatikasi» tanlov fani bo'yicha tayyorlangan. Unda numizmatikaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi, insoniyat hayotida metall tangalarning paydo bo'lishi, O'rta Osiyo hududida metall tangalarning paydo bo'lishi va zarb etilishi tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda O'zbekistonda numizmatikani o'rganilishi bilan bog'liq ma'lumotlar yoritilgan.

«O'rta Osiyo numizmatikasi» fani bo'yicha maxsus adabiyotlar mavjud bo'lmaganligi sababli ushbu o'quv qo'llanma O'rta Osiyo hududida metall tangalarning paydo bo'lishi, bozor munosabatlaridagi o'zgarishlar, tarixning turli bosqichlarida mahalliy davlatlardagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida tutgan o'zgarishlar bilan bog'liq masalalarni chuqurroq o'zlashtirishda oliy o'quv yurtlari tarixchi talabalariga amaliy ko'mak berishi mumkin.


O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-9556-3-9

© Abdilatip SARIMSOKOV.

© «Iste'dod ziyo press» nashriyoti, 2023.

© Namangan davlat universiteti, 2023



SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘tgan vaqt mobaynida Vatanimiz tarixini, xususan, uning davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixi, o‘zligini anglashga bo‘lgan qiziqishning ortishi tarix fani zimmasiga ham katta mas‘uliyatlar yuklamoqda. Ayniqsa, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 27- iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarorida tarix faniga alohida e‘tibor qaratilganligi yurtimiz tarixchilari zimmasiga Vatanimiz tarixini xolisona va to‘laqonli yoritish vazifasini qo‘ydi. Natijada, o‘zbek xalqi moddiy va madaniy tarixi borasida ko‘plab fundamental ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashni tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutish bilan birgalikda bugungi kunda oliy ta‘limning sifati va samaradorligini yuksaltirish borasida pedagoglar oldida katta mas‘uliyat turganligini belgilab berdi.

Jumladan, O‘rta Osiyo hududiga metall tangalarning kirib kelishi, zarb qilinishing yo‘lga qo‘yilishi, o‘ziga xos tangachilik uslubining vujudga kelishi va taraqqiy etishini tadqiq etish zamonamiz tarixchilari oldida turgan dolzarb vazifalardandir. O‘tgan qisqa vaqt mobaynida tarix fanining

yordamchi sohalari ichida o'z o'rniga ega bo'lgan numizmatikaning ham nufuzi yanada ortib, mustaqil tarix fani sifatidagi maqomga ega bo'ldi. Chunki, tariximizni o'rganishda numizmatika, ya'ni tangashunoslik fanining ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Ushbu fanning asosiy ob'yekti bo'lgan tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, siyosiy, iqtisodiy, ayrim xollarda esa millatlarning e'tiqodiy dunyoqarashlari haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Numizmatik izlanish asosida tangalardan tarix va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni maksimal darajada olish vazifasi yotadi. Insoniyat tarixi va madaniyatini o'rganishda tangalarning ahamiyati katta. Tangalar tarix, siyosiy iqtisod, san'atshunoslik, ideologiya, til, me'morchilik, savdo, xalqaro aloqalar vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni yechishda moddiy manbalar orasida muhim rol o'ynaydi. Tangalar bo'lib o'tgan tarixiy voqealarning sanasi, qanday shohlar hukmronlik qilganligini, ularning hukmronligi necha yil davom etganligini, davlat chegaralarini aniqlashda, tabiat, qishloq xo'jaligi, arxeologik topilmalarning «yoshini» aniqlashda arxeologlar ko'pincha tangalarga asoslanadilar. Mazkur holatda metall tangalarning fan oldidagi ahamiyati naqadar katta ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

«O'rta Osiyo numizmatikasi» nomli ushbu o'quv qo'llanma numizmatikaning fan sifatida shakllanishi, metall tangalarning vujudga kelishi va O'rta Osiyoga kirib kelishi, hududda o'ziga xos tangachilik uslubining paydo bo'lishi, taraqqiy etishi kabi masalalarni talabalarga yetkazishda va ularning bu boradagi tushunchalarini kengaytirishda yaqindan yordam beradi.

Mavzu № 1. «O'RTA OSIYO NUMIZMATIKASI» FANI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. O'rta Osiyo numizmatikasi fanining maqsadi, vazifalari va fan sifatida rivojlanishi.
2. Dastlabki tangalarning zarb etilishi va usullari.
3. Numizmatika faniga oid atamalar.

O'rta Osiyo numizmatikasi fanining maqsadi, vazifalari va fan sifatida rivojlanishi. Dastlab ushbu fanning vujudga kelishi va shakllanishi to'g'risida to'xtalinadigan bo'lsak, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. «Numizmatika» so'zi grekcha «nomisma» so'zidan olingan bo'lib, «tanga pul» yoki «chaqa pul» degan ma'noni anglatadi. Bu atama o'rta asrdan e'tiboran ishlatila boshlangan bo'lib, o'zlarini numizmatlar deb atay boshlagan va tanga pullar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning paydo bo'lishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Numizmatlar oltin, kumush va misdan ishlangan metall pullarning yuzaga kelishi va taraqqiyoti tarixini, tangalardagi rasmlarni, yozuvlarni, ularning og'irligi, o'lchami, metall sifatini, kim tomonidan zarb etilganligi, qachon va qayerda muomalada bo'lganligi va hokazolarni har tomonlama o'rganadilar. Aniqlangan ma'lumotlar esa fanning turli sohalari, jumladan, tarix va arxeologiya, siyosiy iqtisod, tilshunoslik va san'atshunoslikka oid masalalarni hal etishga yaqindan yordam beradi. Ushbu sohaga bundan tashqari yana qog'oz pullarni (*bonistika*) va orden, medal hamda shu xildagi esdalik tang'alarni (*florestika*) o'rganish ham kiradi.

Tangashunoslik bilan qiziquvchilar doirasi birdaniga kengaygan emas. Tanga chaqa pullarni to'plash ilmiy numizmatika tomon dastlabki qadam bo'lgan. Tanga

pullarning kolleksiya tarzida to'planishi ushbu fanning rivojlanishiga katta turtki bo'lgan.

Insonlarning tanga va chaqa pullarga biron narsa sotib olish nuqtai nazaridan emas, balki o'sha tangalarga qarab o'tmish davrni, mazkur pullarning qachon zarb qilinganligini bilishga harakat qilishlari turli davrlarga oid tangalarning to'planishiga sabab bo'lgan.

Kolleksionerlar turli zamon va davrlardagi tanga, chaqa pullarni yig'ib, ularning kataloglarini (ro'yxatlari) tuzishgan hamda har biri tangaga alohida ta'rif yozganlar. Qadimgi tillarni bilgan kolleksionerlar tangalardagi yozuvlarni o'qishga harakat qilganlar. Ayrim kolleksionerlar mavjud tangalarini bir joyga to'plab, umumiy kolleksiya tashkil etganlar.

G'arbiy Yevropa hukmdorlari hamda san'at ahlining tangalarni boyluk sifatida to'plashlari natijasida davlat xazinalarida turli xil mamlakatlarning tangalari yig'ilib borgan. XIV asrdan boshlab tangalarni yig'ish asta-sekin odat tusiga kira boshlagan. Qirol va imperatorlar qimmatbaho tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib tangalarni saqlovchi maxsus xonalar, ya'ni *myunskabinetlarni* tashkil etganlar. Tangalarni o'rganish va ularga tartib berish uchun tangashunos olimlarni jalb etganlar. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida jahondagi yirik yig'ma tanga kolleksiyalari mavjud.

Tangashunoslik borasidagi dastlabki izlanishlar natijasida 1517- yil Rimda Andreo Fulvionning «*Taniqli kishilar tasviri*» nomli kitobi nashr etilgan. Ushbu kitobda yunon va rim tangalarida tasvirlangan mashhur hukmdorlar va ularning hayoti haqidagi ma'lumotlar berilganligi ko'pchilikda qiziqish uyg'otgan.

Keyinchalik, ya'ni 1553- yilga kelib Lionda Giloma Rullning «*Dunyo yaratilgandan buyon yashagan taniqli*

kishilarning tangalardagi hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot» nomli kitobini o'quvchilarga taqdim etgan. Mazkur adabiyotlar XVI asrda juda katta nufuzga ega bo'lgan. Tangashunoslik ilmi kashshoflarini XIV–XVI asrlarda tangalardagi hukmdorlar qiyofasi va tarjimai xoli qiziqtirgan bo'lsa, XVIII asrga kelib bu fanga ilmiy nuqtai nazardan yondashila boshlangan.

Ilmiy numizmatikaning qaror topishida avstriyalik olimlar I. Ekkel, Mayder, polyak olimi I. Lelevin, nemis olimi V. Renikman va fransuz olimlari A. Anjel va R. Serryurlarning o'rni katta bo'lgan.

Avstriyalik ruhoniy Iosif-Ilariy Ekkel (1737–1798) o'zining sakkiz jilddan iborat «*Qadimgi tangalar ilmi*» nomli asarida 70 mingdan ziyod tangalarga tartib bergan. Aniqlay olmagan tangalar haqida hech qanday faraz qilmagan va ularni noma'lumlar qatoriga qo'shib qo'ygan. Ekkel tomonidan boshlangan numizmatika sohasidagi yangicha qarashlar yevropada keng quloq yoygan. Biroq, bir necha ming tanga pul to'plangan sharqiy numizmatikani tadqiq qiluvchilar bo'lmagan.

Aynan mazkur tangalarning Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi Xristian Martin Fren (1782–1851) tomonidan tadqiq etilishi natijasida sharqiy numizmatikaga asos solingan.

X. M. Fren 1807- yilda Qozon universitetiga ma'ruza o'qish uchun taklif etilgan. Germaniyaga qaytish chog'ida yo'l-yo'lakay Peterburgda to'xtagan va u yerda Fanlar Akademiyasida to'plangan tangalarni ko'rgach, ularni tashlab keta olmagan. Natijada, Rossiyada qolib, butun umrini Oltin O'rda xonlari tomonidan zarb qilingan va to'plangan 400 dan ortiq sharq tangalarni «gapirtirishga», o'rganishga bag'ishlagan.

Pyotr I tomonidan Peterburgda tashkil etilgan muzey –

Kunstkamerada boshqa eksponatlar bilan birga tanga pul va medallardan ham katta kolleksiya to'plangan. Kunstkamera kolleksiyasi doimiy ravishda to'lg'azib turilgan va to'plangan tanga pullar tartibga solinib borilgan. Undagi qimmatbaho pullar kolleksiyasi hozirgi vaqtda Davlat Ermitajida joylashtirilgan bo'lib, bu kolleksiya dunyodagi eng katta kolleksiyalardan biri hisoblanadi. Hozirda Parij, London, Vena, Berlin kabi shaharlardagi yirik muzeylarda tangalarning juda katta kolleksiyasi yig'ilgan bo'lib, ular orasida Sankt-Peterburgdagi muzey o'ziga xos o'rin egallagan. Mazkur muzey kolleksiyasidan o'rin olgan 300 mingdan ortiq tanga pul orasida O'rta Osiyoga oid bo'lganlari ham anchagina.

Mazkur tangalar keyinchalik M. Masson, B. Vaynberg, G. Fedorov-Davidov, O. Smirnova, Ye. Zeymal, Ye. Davidovich, V.M. Masson, B. Kochnev, G. Pugachenkova, E. Rtveladze, Sh. Pidayev, T. Xo'janiyozov, G. Alimov, S. Eshonxonov, T. Ernazarova, I. To'xtayev, I. Musakayev, G'. Boboyorov kabi tadqiqotchilar tomonidan turli darajada tadqiq etilgan va etilmoqda. Ular qadimgi O'rta Osiyo tanga pullarini aniqlab, turlarga ajratganlar va zarb qilish ishidagi rivojlanishning asosiy bosqichlarini belgilaganlar. Natijada o'ziga xos O'rta Osiyo yoki O'zbekiston numizmatikasi vujudga kelgan.

Dastlabki tangalarning zarb etilishi va usullari. Bugungi kunda o'zbek davlatchiligining qadimiy ildizlari va rivojlanish bosqichlariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa o'z navbatida numizmatika fani hamda numizmatlar zimmasiga ko'plab vazifa va muammolar yuklanganligidan dalolat beradi. Chunki, o'tgan tarixiy davrlar mobaynida qo'lyozma manbalar butunlay yo'q bo'lib ketdi va borlari ham o'tmishdagi davlat to'g'risida to'liq ma'lumot bera olmaydi. O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asr tarixini esa

tangashunoslik materiallarisiz aslo yozib bo'lmaydi. Shu bois tangashunoslik ilmi pul, mol munosabatlari hamda o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxeologik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra yer yuzidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlangan. Arxeologlarning ta'kidlashlaricha, inson o'z mehnatining mahsulotlarini ayirboshlash natijasida savdo-sotiqning ilk va sodda turini vujudga keltirgan. Tanqis ashyolarni pul o'rnida ayirbosh qila boshlaganlar. Bunday mahsulot pul muomalalari mintaqalarda turli ko'rinishda amalga oshirilgan. Masalan, Osiyo va Afrikaning ko'pgina qadimiy xalqlari pulning eng sodda formasi – *kauri* chig'anoqlaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanib kelganlar. Ular ayrim elatlarda qadimdan, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumidan to milodiy XX asrgacha savdo vositasi bo'lib kelgan. Mazkur chig'anoqlar qadimiy Xitoy, Yaponiya va Hindiston shaharlarida yaqin vaqtlargacha pul sifatida ishlatilgan. Shuningdek, "*kauri*" chig'anog'idan VI–VII asrlarda Germaniyada, IX asrda Shvetsiyada, XVI asrda Riga shahrida foydalanilganligi hamda Gvineyada ham *kauri* tasviri tushirilgan pullar mavjud bo'lganligi aniqlangan.

Bundan tashqari, insonlar orasida jonliq qoramol yoki xarsanglar keyinchalik, munchoq, it tishlari va cho'chqa dumlarining boylamidan iborat pullardan xo'jalik mollari sotib olishda, kelinlar uchun qalin to'lashda foydalanilgan. Hindistonda dur pul sifatida ishlatilgan bo'lsa, Afrikaning ba'zi qabilalarida hurmo mevasi pul vazifasini o'tagan. Qadimiy xalqlarning savdo muloqotida pul ana shunday xarakterdagi turli bosqichlarni bosib o'tgan.

Mahsulot pullar, xususan, hayvonlarning terisi, ishlab chiqarish qurollari va boshqa ashyolar hozirgi pullar

darajasida muomalada bo'lgan. Ko'pgina xalqlar mahsulotlarni qoramollar bilan baholashdan keyin metall pullarga o'tganlar. Ungacha mahsulotlarning qiymati ho'kiz, qoramol, qo'y kabi chorva mollari bilan belgilangan.

Odamzot o'zi uchun qulay pul shaklini ixtiro etguniga qadar mazkur «pul»lar tabiatdan olib savdo vositasi sifatida ishlatib turilgan. Vaqti kelib insoniyat vakillari ma'dandan ishlangan pul-parchaning yengilligini va o'z yonida olib yurishga qulayligini hisobga olib, sof ma'danli quymalarni ayirbosh qilishga o'tgan. Bunday pul birligi qadimgi Ikki daryo oralig'i va Misrda paydo bo'lib, shu davrdan e'tiboran inson hayotiga «tanga» holatida kirib kelgan.

Ammo, bu quymalarni insonlar qalbakilashtira boshlaganlar. Qattiq jazo choralariga qaramay, bunday xolat davom etavergani sababli, hukmdorlar o'z quymalarini muhrlashga, ya'ni ularda biror tasvirni yoki tug'rolar – gerblarni ifodalashga odatlandilarki, bu bilan quymalar haqiqiyliги davlat tomonidan kafolatlanadigan bo'lgan. Aynan o'zbek tilidagi «tanga» so'zi ham turkiycha «tamg'a» so'zidan olingan bo'lib, hozirda metall – oltin, kumush, mis, nikel va alyuminiydan yasalgan doira shaklidagi pul birligi, muomala va to'lov vositasini anglatadi.

Ilk tangalar deyarli bir vaqtda Egina oroli (Yunoniston), Lidiya (Kichik Osiyo), Magadxa viloyati (Hindiston) va Xitoyning shimoli-sharqiy mintaqalarida ixtiro qilingan. Jahonning qolgan barcha mamlakatlari va xalqlari bu kashfiyotni tayyor holda qabul qilganlar. Tangalar pul-mahsulot munosabatlarining rivojlanishi bilan yuzaga kelgan va mahsulot ayirboshlashda ekvivalent rolini o'ynagan boshqa buyumlar chorva mollari, don, chig'anoq, mato kabilardan farq qilib, universal to'lov vositasi vazifasini bajargan. Qadimgi tangalarda hukmdorlarning tasviri, unvoni, ismi, gerbi, tanga chiqqan davlat yoki shahar

nomi, tanga chiqarilgan yil kabi izohlar zarblangan.

Qadimgi Misrda mil. avv. 3 ming yillikdayoq mis, kumush va oltindan ingichka simli kesim ko‘rinishida, Xitoyda esa bronza pichoqlar ko‘rinishidagi metall pullardan foydalanilgan. Arxeologik va yozma adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko‘ra Hindistonda metall tangalarni zarblash mil. avv. V–VI asrlarda boshlangan bo‘lib, ular «*sataman*», «*nishkas*», «*sana*», «*vimastika*» va «*karshapana*» degan nomlar bilan yuritilgan.

Gerodot bergan ma'lumotlarga ko‘ra, dastlabki tangalar lidiyaliklar tomonidan mil. avv. 650- yilda oltin va kumushning tabiiy qotishmasi – *elektrumdan* zarblangan bo‘lib, ular belgilangan vaznda, turli tasvirlar tushirilgan qo‘pol tangalar bo‘lgan.

Qadimgi yunon tangalari o‘zining zarb etilish texnikasi, usuli va tashqi tuzilishi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra muayyan bir davrga xos o‘zining xususiyatlariga ega bo‘lgan.

Qadimgi Yunonistonda tangalar zarb etilishining taraqqiyotini uning tarixining asosiy voqealariga muvofiq tarzda to‘rt davrga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Arxaik – VII asrda tangalar zarb etilishining boshlanishidan – toki yunon-fors urushlarining yakunigacha (mil. avv. 500–499 yy.);

Klassik – Afina demokratiyasining g‘alabasidan boshlab, toki Aleksandr Makedonskiy hokimiyati barpo bo‘lguniga qadar (mil. avv. 334–323);

Ellinistik – Afina demokratiyasining mag‘lubiyatidan boshlab, Yunonistonning Rim tomonidan ishg‘ol etilguniga qadar (mil. avv. IV–II asrlar);

Rim hukmronligi – mustaqillik yo‘qotilganidan boshlab, Sharqiy Rim imperiyasi tashkil bo‘lguniga qadar.

Dastlabki tangalarning ko‘rinishi juda sodda bo‘lib,

ayrim chizgilar bilan bezatilgan, keyinchalik turli jonzotlar – toshbaqa, ukki, dengiz mushugi, baliq va hokazolarni tasvirlashga o'tilgan. Bunda aks ettirilgan jonzot, uning shahar tug'rosi yoki nomi bilan hamohangligidan kelib chiqib ish tutilgan. Keyinchalik ilohlar va hukmdorlar (*vasilevs*) tasviri ifodalangan tangalar «*moneta*» deb nomlanlagan.

Metall pullar o'zlaridan avval mavjud bo'lgan pullarning nomlarini meros qilib olganidek (Hindistonda pullar «*rupiya*» deb atalgan, «*rupa*» – so'zi chorva degan ma'noni anglatgan, Italiyada esa «*pekunia*», «*pekus*» – ham chorva degan ma'noni anglatgan), dastlabki tangalar ham dastlab o'zlari muvofiq kelgan o'lchov birliklari nomi bilan: ya'ni *draxma* va *obol* deb atalgan. Tangalardagi tasvirlar ularni zarb etish kim tomonidan kafolatlanganligini ifodalagan. Shu sababdan, tangalarda bu davrda ko'proq shaharlar haqida «so'zlovchi» tasvirlar tushirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, mil. avv. 45- yilda Qadimgi Rim davlatidagi Yunona Moneta ibodatxonasida Tita Kariziy tomonidan tanga zarb etilgan bo'lib, uning old tomonida nozik ayol tasvirlangan bo'lsa, orqa tomonida esa «*moneta*» (bashoratchi) degan lotincha so'z zarblangan. Shu davrdan boshlab tangalar moneta deb yuritilgan.

Qadimgi tangalar ikki xil: quyma va zarblangan uslubda tayyorlangan. Quyma tangalar maxsus shakl va tasvir o'yilgan qolip idishlarga ma'dan quyib tayyorlangan. Ikkinchisi esa temir yoki bronzadan ishlangan *muhr* – *shtempelda* (tanganing o'ngi va tersi naqsh etilgan maxsus asbobda) tangalar ifodasi tayyorlanib, kerakli metall quymasi ustiga zarblangan. Birinchi uslubda tanga sathidagi tasvir noaniq bo'lganligidan tezda o'chib ketishi sababli miloddan avvalgi VII asrga kelib zarblangan tangalar keng miqyosda qo'llaniladigan bo'lgan va shundan buyon

tangalar faqat zarblangan holda muomalaga chiqarib kelinmoqda.

Numizmatika faniga oid atamalar. Tangalarning asosiy belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Avers – tanganing old tomoni.

Gurt – qirra, tanganing yon tomoni, hoshiyasi.

Hisoblash tizimi – pul tizimidagi qiymatlarni u yoki bu tizimga to'g'ri kelishi. Pul qiymatlarini belgilashda turli hisoblash tizimlaridan foydalaniladi, misol uchun, choraklik (kvartal) – 1:2:4:8 nisbat va h.k., o'nlik (detsimal) – 1:10:100 nisbat va h.k., o'n ikkilik (duodetsimal) – 1:3:6:12 nisbat va h.k..

Ligatura – (lot. «ligare» – birlashtirmoq) oltin, kumush, platinani qattiqroq yoki arzonroq qilish uchun mis yoki qalayni aralashtirish.

Pul birligi – qimmatbaho metallning og'irlik qiymati (kumush yoki oltin), narxlarni qonuniy tartibda o'rnatilishi va belgilanishi.

Pul hisoblash tizimi – hisobda amalga oshiriladigan, moddiy asosga ega bo'lmagan, ya'ni tanga va na ko'rinishga ega bo'lmagan pul birligi tizimi. Masalan, qadimgi rus grivnasi, kuna, oltin.

Pul tizimi – pul xo'jaligi va muomalasi (aylanmasi)ni qonuniy asoslari, turli xildagi pul muomalasi elementlarini aniqlashtiradi. Tangalarni zarb eishdagi bir yoki bir necha xillaridan foydalanish nazarda tutiladi: monometallizm i bimetallizm. Bundan tashqari qog'oz pullari ham ishlatiladi, unda asosan ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan qog'oz belgilardan foydalaniladi.

Remedium (lot. «remidium» – qarshi vosita) – qonuniy belgilangan vazndagi tangalarni zarb qilishni to'xtatish.

Revers – tanganing teskari tomoni.

Tanga legendasi – tangadagi yozuvlar.

Tanga proba – (lot. «probo» – sinamoq, baholamoq) – zarblanayotgan tanga tarkibidagi metall miqdorini aniqlash. Hozirda oltin ikki xil uslubda baholanadi – metrik va qirot (0,2 gr.).

Tanga regaliyasi – (lot. «regalis» – podshoga oid narsa) tanga zarblash va muomalaga chiqarishga egalik huquqi.

Tanga tizimi – tanga-pullarning og‘irlik, qiymatini davlat tomonidan qonuniylashtirilishi.

Tanga yuzi – tanganing qiymati hamda og‘irligi aks etgan qismi.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Numizmatika, bonistika, geraldika, tanga, moneta, tanga zarblash, kauri chig‘anog‘i, elektrum, shtempel, Ekkel, Fulvion, Fren, «sharqiy numizmatika», myunskabinet.

Mavzuga oid savollar:

1. Metall tangalarni kolleksiya sifatida yig‘ish qachondan boshlangan?
2. Numizmatikaning fan sifatida shakllanishiga kimlar asos solgan?
3. Sharqiy numizmatikaga asos solgan tadqiqotchi kim?
4. Kishilik tarixidagi ilk tangalar qayerda ixtirò qilingan?
5. Dastlabki tangalarning shakli va sifati qanday bo‘lgan?
6. Numizmatikada remedium nima?

Mavzuga oid test savollari:

1. «Nomisma» so‘zning lug‘aviy ma‘nosi nima?
 - a) qum
 - b) tosh
 - s) pul
 - d) tanga-pul

2. «Qog'oz pullarni» o'rganuvchi yordamchi tarix fanini aniqlang.

- a) florestika
- b) bonistika
- s) sfragistika
- d) geraldika

3. «Qadimgi tangalar ilmi» asari muallifini aniqlang.

- a) Fren
- b) Ekkel
- s) Vaynberg
- d) Fulvion

4. Tangalarni yig'ish nechanchi asrdan boshlab odat tusiga kirgan?

- a) XV asrdan
- b) XIV asrdan
- s) XVI asrdan
- d) XIII asrdan

5. «Moneta» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- a) «metall buyum»
- b) «bashoratchi»
- s) «chig'anoq»
- d) «qirq tuya»

Mavzu № 2. O'RTA OSIYO HUDUDIDA ZARBLANGAN QADIMGI DAVR TANGALARI

Reja:


- 1. O'rta Osiyoda dastlabki tangalarning paydo bo'lishi.**
- 2. Yunon-Baqtriya podshohligining tangalari.**
- 3. Qadimgi So'g'd tangalari.**
- 4. Qadimgi Xorazm tangalari.**
- 5. Kushonlar va Sosoniy kushonshohlar tangalari.**

O'rta Osiyoda dastlabki tangalarning paydo bo'lishi. O'rta Osiyo dastlabki metall tangalar amal qilingan hududlar sirasiga kirmagan. Buning asosiy sababi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sustligidir. Ushbu hududda dastlabki tangalar paydo bo'lguniga qadar ayirboshlashga asoslangan savdo munosabatlari, savdoning turli-tuman, hatto qimmatbaho buyum shakllari hukmron bo'lgan. Ammo, O'rta Osiyo aholisi mil. avv. I yillikning oxirgi uch yuz yilida paydo bo'lgan ma'dan pullar haqida tasavvurga ega bo'lmagan deyish noto'g'ri. Chunki, O'rta Osiyo xalqlari o'z pullariga ega bo'lgan mamlakatlar bilan olib borilgan savdo hamda siyosiy aloqalar orqali tanga bilan tanishganlar. Dastlab tangalar bu yerga qimmatbaho boylik sifatida kirib kelgan, keyinchalik esa muomala vositasiga aylangan. Shuningdek, O'rta Osiyo mil. avv. VI–IV asrlarda qadimgi forslarning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan bo'lib, ushbu davlatda mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab to mil. avv. IV asrning 30 yillarigacha oltin (*darik*) va kumush (*sikl*) tangalar zarb qilingan. Ma'lumki, ahamoniylar qo'shinlarining asosiy qismini O'rta Osiyo xalqlari: so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va saklar tashkil qilishgan va fors podshohlarining Yunonistonga

qilgan harbiy yurishlarida faol ishtirok etganlar. O'rta osiyolik jangchilar ahamoniylar saltanatining turli shaharlarida harbiy xizmat ham o'tashgan. Hech shakshubha yo'qki, o'sha davridayoq O'rta Osiyo xalqlarining ko'pchilik qismi ma'dan tangalar haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lganlar, ammo bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma'lum shart-sharoitlari tufayli bu pullar savdo-sotiq vositasiga aylanmay qolgan.

Hozirga qadar O'rta Osiyoda XIX asrda Karki (Turkmaniston) shahri yaqinida topilgan mil. avv. VI–IV asrlarga tegishli darikdan boshqa birorta tanga namunasi topilmagan. Darik – tilla tanga bo'lib, ahamoniylar davlatida pul muomalasida ishlatiladigan asosiy tanga hisoblangan. U ilk bor Gistaspning (mil. avv. 522–486 yy.) o'g'li Doro I tomonidan chiqarilgan, binobarin, nomi ham shundan olingan. Darik toza oltindan (980 proba) zarb etilgan, vazni 8,4 gr., bu fors minasining (504 gr.) oltmishdan bir qismiga teng. Uning old tomoniga bir oyog'ida tiz cho'kib, qo'lida kamon va nayza tutgan shoh tasviri tushirilgan (shu sababli bu tanga ba'zan «yoyandoz» deb atalgan). Qabariq orqa tomonida qandaydir mavhum to'lqinsimon chiziqlar yoki turli tomonlarga yo'nalgan yassi shakllar mavjud. Ehtimol, bu quloqlar tasviri bo'lib, g'alaba ramzi, podshohning jangda qo'lga kiritgan harbiy o'ljalari timisolidir. Darikni Aleksandr Makedonskiy va uning vorislari zarb qilishni davom ettirishib, undan ahamoniylar Eroni tarkibiga kiruvchi mamlakatlardagi hisob-kitoblarda foydalanganlar. Aleksandr Makedonskiy Bobilda ikki hissa orttirilgan darik zarb ettirgan.

Qudratli ahamoniylar davlati mil. avv. IV asrning 3-choragida Aleksandr Makedonskiyning hujumlari natijasida tanazzulga yuz tutgan. mil. avv. 330–327 yillarda uch yil davomida qadimgi dunyoning yetuk lashkarboshisi O'rta



Osiyoni istilo etish bilan mashg'ul bo'lgan. Mintaqa xalqlari o'sha davrdagi duyoning eng kuchli armiyasiga mardonavor tarzda qarshi tura olganlar.

Albatta, Aleksandrning askarlari o'lkaga o'zlari bilan tanga pullarni keltirganlar, ammo ularning mahalliy aholi tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilingan yoki qilinmaganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shuningdek, O'rta Osiyo hududidan aynan Aleksandr tomonidan zarb qilingan tangalar ham topilmagan.

Aleksandrning vafotidan so'ng uning imperiyasi lashkarboshilar – *diadoxlar* o'rtasidagi taxt uchun shiddatli kurashlar natijasida mayda bo'laklarga bo'linib ketgan. Imperiyaning Osiyo qismi, ya'ni O'rta Osiyoning janubiy hududlari mil. avv. 312 yilda Iskandar Zulqarnaynning sarkardalaridan Salavk I Nikator tomonidan asos olingan Salavkiylar imperiyasining bir qismiga aylangan.

Mil. avv. III asr o'rtalarida Osiyoning Sharqiy viloyatlari Salavka imperiyasidan ajralib chiqib, uning o'rniga O'rta Osiyoning janubiy hududlari, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini o'z ichiga olgan Yunon-Baqtriya podsholigi tashkil topgan.

Yunon-Baqtriya podsholigining tangalari. Hozircha O'rta Osiyoning na Ahamoniylar davriga, na Iskandar Zulqarnayn davriga oid tangalari topilmagan. O'rta Osiyo ulkan imperiya tarkibiga qo'shib olingach, umumiy oldisotdi savdosida pul joriy etila boshlangan. Chunonchi, Baqtriyada Salavkiylar davrida hukmdorlar tomonidan pullar chiqarila boshlangan. Mil. avv. 293–280 yillar mobaynida Baqtriya davlatining sharqiy viloyatlari noibi Salavkning o'g'li Antiox I birinchi marta pul chiqarishga asos solgan. Dastlab Salavk va Antioxning qo'shhokimiyatini ifodalovchi tangalar zarb qilingan, keyinroq esa Antioxni yagona hukmdor sifatida ko'rsatuvchi

tangalar chiqarilgan.

Yunon madaniyatining yirik vakillari bo'lmish salavkiylar tanga pullarini yunon namunasi bo'yicha zarb ettirganlar, xususan, yunon tilidagi yozuvlar va podshohning aksi tushirilgan tangalar chiqarila boshlangan. Baqtriyada chiqarilgan pullarning nomi ham yunoncha bo'lgan. Jumladan, tilla pullar – *stater*, kumush tangalar – *tetradraxma*, *draxma*, *gemidraxma* deb atalgan. Hatto pullarning og'irligi ham yunon og'irlik o'lchov birligiga to'g'ri kelgan, ya'ni tetradraxmalar – 16 gr, draxmalar – 4 gr. ga yaqin bo'lgan. Kundalik savdoda foydalanish uchun mo'ljallangan mis tangalar ham chiqarilgan. Antiox I draxmasining o'ng tomonida shoh, uning tersida muguzli ot tasvir tushirilgan.

Salavkiylar davrini biz tangalarning iqtisodiy hayotga joriy etilish davri sifatida baholash mumkin. Bu davrda mahalliy aholi ular bilan yaqindan tanishganlar. Dastlabki paytda faqatgina kelgindi yunon aholisi tangalardan savdo munosabatlaridan foydalangan bo'lib, mahalliy xalqlar savdo moliyaviy munosabatlarga tortilmagan degan faraz rus tangashunosi Ye. V. Zeymal tomonidan qayd etilgan. O'rta Osiyoda tangalar keng muomalaga kirishi davrini mil. avv. III asrning ikkinchi yarmidan ikki mustaqil davlat – Parfiya va Yunon-Baqtriyaning tashkil topganidan keyin boshlangan deya ko'rsatish mumkin. Ulardan dastlabkisi, ya'ni janubiy Turkmanistonda yashovchi Parfiya mahalliy ko'chmanchi qabilalar – parmlar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, ikkinchisida esa hukmron tabaqa kelgindi yunonlardan iborat bo'lgan.

Yuz yildan ko'proq vaqt, ya'ni mil. avv. III asrdan to II asr uchinchi choragigacha hukm surgan Yunon-Baqtriya tangalari medal yasash san'atining go'zal namunalari hisoblanadi. Kichkinagina yumaloq doiraga tushirilgan

podsholarning rasmi bizning davrgacha yetib kelgan o'sha hukmronlarning yakkayu-yagona asl rasmlari hisoblanadi. Bu rasmlar tarixiy shaxslarning qo'lyozma manbalarda ifoda etilmagan qiyofalari va his-hayajonlarini aks ettiradi.

Yunon-Baqtriya podsholigining tanga tizimi attik standartga asoslangan bo'lib, tangalar asosan kumush va misdan, ba'zan oltindan zarblangan. Ular orasida Yevkratidning 20 staterli (160 gr.) oltin tangalari antik davrning eng yirik pullaridan hisoblangan. A. Semyonovning ma'lumotiga ko'ra bunday tangalardan ikkitasi bugungi kunda mavjud bo'lib, biri Buxoro amirining xazinasida, ikinchisi esa Parijda saqlanadi.

Yunon-Baqtriya tangalari ko'pchilik hollarda Salavka an'analarini davom ettirgan. Tanganing yuza tomonida hukmdor, tersida esa ularning homiysi hisoblangan yunon ilohlari – Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollon, Artemida, Dioskura, Afinalarning tasviri zarb qilingan. Ammo, mahalliy ta'sir ham pul zarb etish ishlarida sezilarli bo'lgan. Jumladan, yunon mabudlarining ba'zi bir xususiyatlari Sharq mabudlarining ayrim jihatlariga o'xshash holda aks ettirilgan.

Mazkur tangalarda podshoning martabasi, ismi, laqabi qayd etilgan. Masalan, «*Podsho Antimax Xudoning*» kabi so'zlar yunon yozuvida yarim doira yoki ustuncha shaklida joylashtirilgan. Bundan tashqari, tanganing tersida ma'bud tasviri hamda bir necha yunon harflaridan iborat monogramma¹ ham bo'lgan.

Shuningdek, Yunon-Baqtriya tangalarida umumiy qabul qilingan andozalardan chekinish holatlari ham uchrab turgan. Masalan, podsho Yevkratid tomonidan zarb qilingan

¹ Monogramma – (yunoncha mono – bir, gramma – harf, yozuv) tangani zarb qilgan usta hamda hukmdor ismlarining jimjimador bosh harflari.

mashhur tangalarda old tomonidan podshoning o'zining tasviri va «*Buyuk hukmdor Yevkratid*» degan yozuv birgalikda tasvirlangan bo'lsa, orqa tomonida yosh erkak kishi va peshonasida tillaqosh taqqan ayolning yon tomondan olingan tasviri hamda «*Geliokl va Laodika*» yozuvi zarblangan.

Aleksandr, Antiox, Diodot va Yevtidemlar sharafiga bag'ishlangan medal-tangalar² ham diqqatga sazovor. Bunday medal-tangalardan biri – Yevtidem sharafiga Antimax tomonidan zarb etilgan tanga Panjkentda, Diodot va Yevkratid sharafiga Agafokl tomonidan chiqarilgan uchta tanga Buxoroda topilgan dafina ichidan chiqqan.

Hindistonning bir qismi Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga qo'shilganidan keyin, ayrim hukmdorlar tomonidan zarb etilgan tangalarda xaroshtx yozuvi va fil, zebu – buqa, qora qoplon kabi hayvonlar tasviri paydo bo'lgan. Ayniqsa, misdan tayyorlangan Yunon-Baqtriya tangalari hayvonlar tasvirlarining xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Ba'zi tangalar esa Qadimgi Gandxar zarbxonalari ta'sirida to'rtburchak, kvadrat shaklga ega bo'lgan.

Yunon-Baqtriya tangalari texnikaviy jihatdan va podsholar tasvirlarining aks ettirishdagi badiiy ifoda usullari jihatidan hatto eng baland saviyada zarb etilgan ellada tangalaridan ustun bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda Yunon-Baqtriya tangalari Sitsiliyaning *dekadraxma* hamda *tetradraxmasi* bilan bir qatorda antik davr tanga zarb etish ishining eng nodir namunasi hisoblangan.

Tangalarda aks ettirilgan Yunon-Baqtriya podsholarining tasvirlari bu umumiy tarzda qabul qilingan yagona hukmdorning tasviri bo'lmay, balki podshoning

² Medal tanga – biror ulug' zot, sharafli sana, qimmatchilik yoki ochlik yillari munosabati bilan zarb etilgan tanga.

haqiqiy surati bo'lgan. Podsholar bir birlaridan faqat yuz ko'rinishi bilangina emas, balki ularning ruhiy ahvolini tasvirlashda ajinlardan, ko'z boqishlaridan hamda lab ifodalaridan unumli foydalanganlar.

O'rta Osiyoda zarb etilgan Salavka tangalari juda oz miqdorda topilgan bo'lsa, Yunon-Baqtriya tangalari esa aksincha ana shu umumiy miqdorning ko'p qismini tashkil etadi. Yunon-Baqtriya kumush tangalari xazinasini (100 donaga yaqin) Qashqadaryo vodiysining Kitob shahri atrofidan topilgan.

Mil. avv. II asr O'rta Osiyo xalqlari etnik va siyosiy hayotida katta o'zgarishlar davri hisoblanadi. Ilgariroq O'rta Osiyoning shimoli va shimoliy-g'arbini egallagan *toxar, assiya, pasiy, sakaraval* hamda *yuechjilar* boshqa ko'chmanchi qabilalarning tazyiqi ostida Yunon-Baqtriya davlatiga qarshi xujumga o'tib, sharqdagi so'nggi ellin davlatini yer bilan yakson qilganlar.

Mil. avv. II-I asr oxirlarida by qabilalarning bir guruhi So'g'd, ikkinchi guruhi esa Baqtriya podsholigini egallagan. Bu davrda har ikki davlat bir paytning o'zida «*varvarcha taqlid tangalar*» deb nom olgan tangalarni zarb ettirishgan. Ushbu taqlid tangalarni O'rta Osiyo xalqlarining mahalliy tanga zarb etishdagi ibtidoiy shakl yoki ilk urinishlari deyish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, bundan oldingi tangalar Baqtriya saltanatining yunon hukmdorlari tomonidan yunoncha uslubda zarb etilgan. «Varvarcha taqlid tangalar» iqtisodiy va huquqiy jihatdan O'rta Osiyo tangashunosligining eng murakkab yo'nalishlaridan hisoblanadi.

«Varvarcha taqlid tangalar», aslini olganda, haqiqiy tanganing nusxasi bo'lib, asl nusxadan ma'dan tarkibi, vazni, tasvirning sifati, pala-partish yozuvlari bilan ajralib turgan.

Zarb etishning har bir keyingi bosqichida yo'l qo'yilgan xato va o'zgarishlar borgan sayin ko'payib, oxir-oqibatda asl tangadagi tasvirlar va yozuvlar tanazzulga yuz tutgan.

O'rta Osiyoda «varvarcha taqlid tangalar»ini zarb etish hamda ularni muomalaga kiritish pul muomalasi rivojlangan yoki butunlay pul muomalasi bo'lmagan viloyatlarda amalga oshirilgan.

So'g'd va Baqtriyada Yevtidem va Geliokl tetradraxmalariga, Yevkratid obol³lariga o'xshatib zarb etilgan tangalar keng rasm bo'lgan edi. «Varvarcha taqlid tangalar»ning aksariyat hollarda yaxshi tomonlari ham bo'lgan: ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bir pallasida ular aks ettirgan tasvirlar va yozuvlar butunlay yoki qisman o'zgartirilgan holda mahalliy hukmdorlarning mustaqil zarb andozasiga aylanib qolgan. Buxoro vohasida zarb etilgan Yevtidem tetradraxmasiga taqlidan zarb etilgan tangalarni bunga misol qilsa bo'ladi. Ulardagi shoh Yevtidem tasviri boshiga tiara kiygan mahalliy hukmdorning tasviri bilan, yunon tilidagi yozuvlar (legenda⁴), so'g'd yozuvlari bilan almashtirilgan. Baqtriya davlatida Geliokl, Xorazmda Yevkratid tetradraxmasiga taqlidan zarb etilgan tangalar aynan yuqorida zikr etilgan yo'lni bosib o'tgan.

Qadimgi So'g'd tangalari. So'g'd (So'g'diyona) – O'rta Osiyoning qadimiy viloyatlaridan bo'lib, Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida joylashgan. So'g'diyalar – O'rta Osiyodagi qadimiy xalqlardan hisoblangan. O'rta Osiyoning baqtriyaliklar, xorazmiylar, parfiyaliklar, marg'iyonaliklar

³ Obol – qadimgi Yunonistonda six shaklidagi pul, keyinchalik 1/6 draxmaga teng tanganing nomi.

⁴ Legenda – tangada uchraydigan barcha yozuvlar, qisqartirilgan so'zlar, alohida harflarning atamasi.

qatori so'g'diylar ham ahamoniylar imperiyasi qo'shinida muhim o'rin egallaganlar. So'g'd va Parfiya ahamoniylarning satrapliklari tarkibida bo'lgan. Ushbu davrda so'g'dliklar ahamoniylarning zarblangan tanga pullari – oltin dariklar bilan tanishganlar. Qisqa muddatli ellin hukmronligi davrida esa so'g'dlar yunon tangalari namunalari bilan tanishganlar. Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi So'g'dning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida muhim bosqich bo'lgan. Savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida tashqaridan keltirilgan tangalar ko'pincha asl nusxa bo'lib, undan o'xshatma tangalar zarblangan. Aleksandr Makedonskiy, salavkiylar, Yunon-Baqtriya tangalari So'g'd uchun ellinzi timsoli hisoblangan.

Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida So'g'd podsholigi Yunon-Baqtriya imperiyasidan ajralib chiqqan. Ammo Yunon-Baqtriya turmush tartibiga taqlid qilgan holda o'z tangalarini zarb etishda davom etgan. Tez orada mazkur tangalardagi yunon yozuvi so'g'd yozuvi bilan almashtirilgan. Eramizning boshlarida bir tomonida podsho tasviri, ikkinchi tomonida yoychining rasmi aks ettirilgan so'g'd kumush tangalari paydo bo'la boshlagan. Ularning vazni ancha yengil bo'lib, og'irligi 0,3 gr.ni tashkil etgan.

So'g'dning mil. avv. I asrdan – milodiy I asrgacha bo'lgan tangashunosligi namunalari biz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ko'p sonli va turli turdagi ushbu davrga oid So'g'd tangalarini bir necha guruhlariga birlashtirgan holda o'rganish mumkin:

1. Antiox I tomonidan zarb qilingan orqa tomonida otning boshi tasvirlangan Salavka tangalari asosida zarb etilgan kumush va mis namunalari (mil. avv. II–I asrlar hamda milodiy I asr).

2. Salavka tangalari va Aleksandr draxmalariga borib

taqaluvchi Gerakl va Zevs tasviri zarb qilingan, biroq so'g'd yozuvli kumush tangalar.

3. Chopayotgan ot yoki tik turgan ma'buda tasvirlangan Girkod kumush tangalari.

4. So'g'd yozuvlari va kamonchi tasviri zarb etilgan kumush tangalar.

5. Yevtidem tetradraxmalariga taqlid qilingan, ammo yunon tilidagi bitiklari xiralashgan va pala partish so'g'd yozuvlari bor tangalar.

Yevtidemga taqlid qilingan tangalardan tashqari so'g'd tangalarining ko'pchiligi to'g'ri shakldagi, yuzi o'ymali, vazni va kichik diametrliligi kumush tangalardan iborat.

Bularning orasida skifat, ya'ni bir tomoni qavariq, ikkinchi tomoni botiq, *tirandoz* tasvirli tangalar alohida o'rin tutadi. Hozirgi paytgacha mis so'g'd tangalarining juda oz qismi topilgan. So'g'd tangalarini zarb qilishda asosan kumushdan foydalanilgan. So'g'diy tangalarining old tomonida hukmdorning yon tomonidan berilgan tasviri; tersida esa kamonchi, nayza ko'tarib turgan iloh, chopib ketayotgan ot yoki shoxli ot boshi tasvirlangan.

Girkod guruhiga mansub so'g'd tangalari asosan mil. avv. II asr ikkinchi yarmi – milodiy I asrda So'g'dga bostirib kirgan ko'chmanchi qabilalar hukmdorlari tomonidan zarb qilingan bo'lsa kerak. Ushbu guruhga mansub ilk namunalarda faqat yunon bitiklari mavjud bo'lib, keyinchalik so'g'd va yunon tilidagi mushtarak yozuvlar va nihoyat faqat so'g'diy bitiklar paydo bo'lgan.

Ushbu tangalarning old qismida peshonasi tor, katta burunli va bodomqovoqli hukmdor tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Uning do'rdoq lablari ustidan shopmo'ylovlari osilgan, iyagidagi bir tutam soqoli, peshonasini qoplagan sochlari hafsala bilan taralgan, sochiga qo'sh tasma tang'ib

qo'yilgan. Dastlabki tangalarning ters tomonida o'ng qo'lida nayza tutgan, kiftlari uzra olov yolqinlanuvchi, nigohi to'g'riga qaragan tangri tasviri, keyinchalik esa chopib borayotgan ot tasviri paydo bo'lgan. Girkod tangalarida hukmdorlarning antropologik tuzilishi, soch turmaklari, mo'ylab va soqol qo'yish usullari bir-biriga yaqin bo'lgan. Shuningdek, mil. avv. I va milodiy I asrlarda Baqtriya va So'g'd podshohliklarini bosib olgan boshqa ko'chmanchi qabilalarning hukmdorlari joriy etishgan tangalardagi tasvirga o'xshab ketadi.

Qadimgi Xorazm tangalari. Xorazm vohasi qadimiy dehqonchilik madaniyati o'choqlaridan biri hisoblanadi. Xorazm (qadimgi fors manbalarida – *Xuvarazmish*, «Avesto»da – *Xvairazm*, arab manbalarda – *Xvarizm* nomlari bilan atalgan) qadimiy tarixga ega bo'lib, «quyoshli yer», «serhosil yer» ma'nolarini anglatadi. Qadimiy Xorazm madaniyati mil. avv. VII–VI asrlarda mahalliy tub joy aholi sak-massagetlarning janubiy dehqonchilik tamadduni asosida shakllangan. Mil. avv. VI asr mobaynida Xorazm o'lkasi ahamoniylar va yunon-makedonlar ta'siriga tushib qolgan.

Mil. avv. II asrda Xorazmda ham tangalar zarb qilina boshlangan. Xorazmning birinchi tangalari – Yevkratid tangalariga taqlid qilingan kumush tangalar hisoblanadi. Ularda yozuvlarning biroz buzilganligi, orqa tomonida o'ziga xos belgi – tang'a tasvirlanganligi farqli jihat hisoblanadi. Keyinchalik old tomonidagi Yevkratidning tasviri mahalliy hukmdorning surati bilan almashtirilgan, xiralashgan yunon bitigi bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot beruvchi xorazmiy tilidagi yozuvlar, tangananing tersida esa suvoriy tasviri paydo bo'lgan.

Ayrim tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotlariga asoslanib, tangada tasvirlangan siymo xorazmshohlar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Siyovush desa, boshqalar bu tasvirda podsho-tangri berilgan deydilar.

Keyinchalik butun kumush tangalarda mavjud bo'lgan chavandoz-hukmdorning tasviri va tamg'alar yetti asr mobaynida, ya'ni Xorazm tangasi zarb qilinish tugagunga qadar zarb qilingan. Faqat tasvirning shakli o'zgarib turgan xolos.

O'rta Osiyo tangashunosligida uchragan bu ajoyib voqea bir suloladan kelib chiqqan xorazmshoxlarning izdoshligi, qadimiy an'analarga sodiqligidan dalolat beradi.

Xorazm podsholari Bravik va Savushfanlarning kumush tangalari bundan oldinroq zarb etilgan tangalardan shakl jihati, qalinligi, shoh tasviri va yozuvlarning mazmuni, birmuncha zamonaviy zarb qilinish usuli bilan ajralib turadi. Savushfan tangalarining o'ng tomoni chetga qarab turgan, peshonasida yarim oy, o'ziga yarashqli toj kiygan, soqoli olingan shohning o'ta ta'sirchan tasviri berilgan. Shohning bo'ynida ikki qator marjon, boshi uzra tillaqosh tasmalari hilpirab turgan holda tasvirlangan.

Tangada «*Siyovushdek dongdor*» ma'nosini bildiruvchi so'g'd yozuvi bor. Tanganing ters tomonida Xorazm suvoriylarining an'anaviy tasviri hamda «*Siyovush podsho hazratlari*» degan xorazm tanga zarb qilish uslubiga xos yozuv bor. Xorazmshohlar tomonidan chiqarilgan so'nggi tangalarda arab yozuvlari paydo bo'lib, bu o'z o'rnida Xorazmda arab xalifalarining ta'siri kuchayganligi, so'nggi xorazmshohlardan biri islom diniga kirganligidan darak beradi.

Bu kabi shoh va suvoriy tasvirli an'anaviy xorazm tangalarini zarb etish milodiy VIII asrgacha davom etgan.

Shunisi yana qiziqki, ushbu davrda Xorazmda yapaloq holatga keltirilgan misdan obinon shaklidagi yassi tangalar ham zarb qilingan.

Kushonlar va Sosoniy kushonshohlar tangalari. Yuechji qabilasi xunlar ta'siri ostida o'zining avval istiqomat qilgan hududlaridan O'rta Osiyoning janubiy qismlariga ko'chishlari natijasida Baqtriyaning Amudaryo shimolidagi yerlari, keyinchalik butun mamlakat hududi bosib olingan. Milodiy I asrda Kudzula Kadfiz tomonidan Kushonlar imperiyasiga asos solingan. Mazkur podsholik I–III asrlarga kelib dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan imperiyaga aylangan. U Shimoli-g'arbiy Hindiston, Afg'oniston va O'rta Osiyoning ko'pgina qismini birlashtirgan. Kushon davlati qadimgi dunyoning eng qudratli mamlakatlaridan biriga aylangan va o'zining ahamiyatiga ko'ra Xan davlati, Parfiya podsholigi va Rim imperiyasiga teng bo'lgan. Ushbu davlat 200 yilcha hukmronlik qilgan va podsho Kanishka zamonida o'z qudratining eng cho'qqisiga chiqqan.

Kushon davri tangashunosligiga tadqiqotchilar tomonidan tangalarda zarb qilingan hukmdorning ismi «Geray» va «Sanab» tarzida tadqiqotchilar tomonidan o'qilgan ikki – *tetradraxma* va *obol* qiymatidagi kumush tangalarning chiqarish bilan asos solingan.

Tetradraxmalarning old tomonida g'ayratli va jasur, sochlari peshonasining tepasida birlashtirilib lentaga bog'langan, o'ziga xos soch turmagiga ega erkak kishining beligacha bo'lgan gavda qismi tasvirlangan. Tanganing ters tomonidagi tasviri esa ancha qiziq bo'lib, uning o'rtasida hukmdor-chavandoz, uning orqasida qo'lida gulchambar bilan uchib turgan holdagi Nika (Zafar) ma'budasi tasvirlangan. Aynan shu orqa tomonda yana to'rt so'zdan

iborat yunoncha yozuv ifodalangan bo'lib, ushbu yozuv «*Kushon hukmdori Geray Sanabniki*» ma'nosini ifodalagan.

Agar O'rta Osiyoda kushonlargacha va hatto ilk kushonlar davrida ham kumush tanga zarb qilingan bo'lsa, Kushon podshosi Vima Kadfiz islohoti natijasida oltin tanga zarb qilishga asos solingan. Shu davrda ko'plab oltin dinorlar va boshqa tangalar chiqarilgan. Mazkur tangalar xalqaro savdoda muhim o'rin egallagan Rim oltinlariga yaqin turgan.

Kushon mis chaqalari bundan ham hayratomuz va sirliroqdir. Ularda hukmdorning ismi yo'q, faqat mansabi va laqabini anglatuvchi «*Shohlar shohi Buyuk xaloskor*» degan yunon yozuvi bor. Ilmda «*Noma'lum shoh*» yoki «*Soter Megas*»ning tangalari deb nom olgan bu chaqalar O'zbekiston va Tojikiston janubida olib borilgan arxeologik qazilmalarda juda ko'plab uchraydi. M. Ye. Masson, E. Rtveladzelarning fikriga ko'ra, ushbu tangalami Kudzula Kadfiz zamonidan zarb etilgan. «*Soter Megas*»ning old tomonida qo'lida kalta qilich va yengil nayza – drotik ushlagan ideal shoh siymosi aks ettirilgan. Ayrim tadqiqotchilar bu shoh emas, balki ma'bud Mitra deb taxmin qiladilar. Tanganing ters tomoni o'rtasida qo'lida jang boltasi – tabar-zagnul tutgan otliq shoh tasvirlangan.

Kushon hukmdori Kadfiz II davrida pul islohotlari amalga oshirilgan. Yangi tangachilik tizimi turli qiymatlardagi oltinlarga asoslangan. 8,03 gr. vaznga ega staterlar, 16,07 va 2,01 gr. vaznga ega tangalar zarb qilingan. Shuningdek, 23–25 mm. diametr, 16–17 gr. vaznga ega yirik mis tangalari ham zarblangan. Tangalarning old tomonidan qat'iy ikonografik tasvirlarni zarb qilish an'anaga aylangan. Bunda hukmdorning figurasi umumiy va yuzi yon tomondan tasvirlangan, hukmdor mehrob yonida qandaydir

bir marosimni ado etayotgan holda tasvirlangan. Bunday turdagi tangalarda ifodalangan hukmdor-kohin tasviri boshqa kushon hukmdorlari – Kanishka, Vasudeva va Kanishka III davriga oid tangalarda ham uchraydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, kushonlar davrida turli qiymatga ega bo'lgan mis tangalar ham ko'plab zarb qilingan. Faqat Surxondaryoning kichik qishloq tumanlarida kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. O'rta Osiyoda bunday hol oldin bo'lmagan. Bu kundalik mayda savdoning xalq orasida qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi.

Kushon tangalarida ham yunon alifbosidan foydalanish davom etgan. Keyinchalik yunon alifbosida Baqtriya tilidagi so'zlar yozila boshlangan. Yunon ilohlarining tasviri asta-sekin mahalliy, shu jumladan, zardo'shtiylik ma'budlarining tasviri bilan almashtirilgan. *Anaxita* (tabiatning hosildorlik va jonlantiruvchi xudosi), *Farro* (boylik va podsho hukumati ramzi), *Mitra* (quyosh ilohiyati)lar shular jumlasidandir. Kushon tangalarining ters tomonida berilgan homiy ma'budalar tasviri ayniqsa maroqlidir. Kadfiz II va Vasudeva tangalarida homiy ma'bud sifatida buqa Nanda yonida turgan hind ma'budi Shiva namoyon bo'ladi. Kanishka va Xuvishka tangalarida ma'bud va ma'budalar ahli jam holda uchraydi – zardo'shtiylik diniga mansub Otash, Vad, Mexr, Moh, Orlagi, sanamlar Nana va Ardoxsh; greklarning Geliosi, hindlarning Buddasi, misrliklarning Soranisi. Aynan mana shu tasvirlar O'rta Osiyo qadimgi xalqlarining diniy e'tiqodlarini tushunishda yaqindan yordam beradi.

Tangalardagi ilohlar tasviri ibodatxonalarda saqlangan haykalchalardan ko'chirib olingan bo'lishi mumkin. Baqtriya davriga oid yozma yodgorliklar kashf etilmasdan

avval kushon tangalarini o'rganish orqali Kushon davlatida amalga oshirilgan muhim islohotlar aniqlangan. Podsho Kanishka tangalarida avvalgi yunoncha yozuvlar o'rniga baqtriya yozuvida bitiklar paydo bo'lgan.

III–IV asrlar O'rta Osiyo tarixida hayotning deyarli barcha sohalarida tub o'zgarishlar davri hisoblanadi. Eng oxirgi yirik davlatlar – Kushonlar va Parfiya davlatlari tanazzulga yuz tutgan. Ularning avvalgi mulklari qudratli sosoniylar davlatining o'ljasiga aylangan. Sobiq kushon mulklarida sosoniy hukmdorlar tomonidan tasdiqlangan noiblar – kushonshohlar hukmronlik qilganlar. Ular tomonidan oltin va mis tangalari zarb qilingan.

Sosoniy qushonshohlarning tangalari ikki turkumga: sosoniy-kushon va kushon-sosoniylar tangalariga bo'linadi. Birinchi turkumga oid tangalarning old tomonida: hukmdor kushonshohning yon tomondan ko'kragi bilan olingan surati zarb etilgan, ters tomonida esa muqaddas mexrob yonida zardo'shtiy dinining bosh ma'budi Axura Mazda yangi shohga hukmdorlik belgilarini topshirayotgan manzara yoki peshtoqlar ostidagi taxtda o'tirgan shoh tasvirlangan. Ikkinchi turkumra mansub tangalar Kushon shohi Vasudeva tangalari andozasi bilan zarb etilgan.

Bundan tashqari, sobiq Kushon o'lkalarida Kushon ilohlari Xuvishka, Vasudeva va Kanishka III tangalariga qiyosan zarb etilgan tangalar keng joriy etilgandi. Ular asl nusxa tangalardan nafaqat tasvirlarning mushtarakligi, sayqali, vazni, diametri va tayyorlanish sifati bilan ham keskin farq qiladi.

Qizig'i shundaki, o'sha davrda Xorazmda yassi mis simdan «yopgan non» shaklidagi tangalar zarb qilingan.

Qadimgi zamonda tanga zarb qilish texnikasi inqirozga yuz tutgani tasodifiy hol emasga o'xshaydi. Bu voqea O'rta

Osiyo moddiy madaniyatining bir qator sohalarida tanglik boshlangan vaqtga to'g'ri kelgan. Ba'zi bir tadqiqotchilar buni qadimgi ijtimoiy formatsiyaning umumiy tanglikka yuz tutganining ifodasi deb hisoblaydilar.

III-IV asrlarda O'rta Osiyoda pul muomalasi joriy etilgan hududlar tobora kengayib, tanga zarb qilishning yangi markazlari paydo bo'lgan. Mahalliy mis tangalar birinchi bo'lib Kesh (hozirgi Qarshi va Shahrisabz), Choch (Toshkent viloyati) va Buxoroda paydo bo'lgan. Tasviriy jihatdan Kesh tangalari alohida diqqatga sazovordir. Tangalarning old tomonida hokimning ko'ksigacha tushgan rasmi bor. Uning sochlari bosh uchidagi tasma bilan turmaklangan sochi pastga g'alati tarzda taralgan. Tanganing ters tomonida esa orqa oyoqlarida turib odam bilan olishayotgan arslon tasviri berilgan. Bunday manzara O'rta Osiyoda zarb etilgan boshqa tangalarida uchramaydi, ammo u eramizdan oldingi IV asrda Kilikiya kumush tangalari hamda ahamoniylar davridan boshlab Eronning bir qator san'at obidalarida qayd etilgan.

Qadimgi tangachilik markazlarida tanga zarb qilish texnikasining orqaga ketishi kutilmagan hodisa bo'lmasdan, balki bu o'sha davrda O'rta Osiyoning moddiy madaniyatining turli sohalarida namoyon bo'lgan tang holatlarga uzviy bog'liq bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilar ushbu jarayonni qadimgi ijtimoiy tuzumning umumiy tang holati bilan bog'laydilar.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Yunon-Baqtriya, Kushon, Xorazm, tetradraxma, stater, «Varvarcha taqlid tangalar», Yevkratid, Antiox, Geliokl va Laodika, Kudzula Kadfiz.

Mavzuga oid savollar:

1. Yunon-Baqtriya podsholigining tangachilik tizimi qaysi standartga asoslangan?

2. Qaysi kushoniy hukmdor davrida kushon tangalarini zarb qilishga kirishilgan?

3. Sosoniy-kushonshohlarning tangalari necha turga bo'linadi?

4. «Darik» tanga haqida nimalarni bilasiz?

5. Qadimgi dunyoning eng yirik tangalaridan biri bo'lgan 160 grammlik tanga qaysi Yunon-Baqtriya hukmdori tomonidan chiqarilgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Qaysi hukmdor davridan Kushon davlatida oltin tangalar tangalar zarb qilina boshlangan?

a) Kudzula Kadfiz

b) Vima Kadfiz

s) Kanishka

d) Geliokl

2. «Siyovushdek dongdor» yozuvlari qaysi qadimgi davlat tangalarida uchraydi?

a) Kushon podsholigi

b) Xorazm

s) Davan

d) Yunon-Baqtriya

3. «Stater» bu – ...?

a) Kumush tanga

b) jez tanga

s) oltin tanga

d) mis tanga

4. O'rta Osiyoning o'z tangalari qachon paydo bo'lgan?
- a) miloddan avvalgi IV asrda
 - b) IV asrda
 - s) miloddan avvalgi V asrda
 - d) miloddan avval III asrda
5. 100 donaga yaqin Yunon-Baqtriya kumush tangalar xazinasini qayerdan topilgan?
- a) Kitob shahri atrofidan (Qashqadaryo)
 - b) Dalvarzintepa atrofidan (Surxondaryo)
 - s) Axsikent atrofidan (Farg'ona vodiysi)
 - d) Ko'zaliqir atrofidan (Xorazmshoh)

Mavzu № 3. ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA ZARB ETILGAN TANGALAR

Reja:

1. Ilk o'rta asrlar davri Sug'd tangalari.
2. Ilk o'rta asrlar davri Choch tangalari.
3. Ilk o'rta asrlar davri Xorazm tangalari.

Ilk o'rta asrlar davri Sug'd tangalari. Ilk o'rta asrlar davriga oid tangalar O'rta Osiyoning turli viloyatlarida har xil darajada o'rganilgan. O'rta Osiyoda pul munosabatlari doirasida ilk o'rta asrlar davrining boshlanishi eramizning V–VI asrlari bilan belgilanadi (ayrim viloyatlar ushbu qolipga tushmasligi ham mumkin). Davr mahalliy namunadagi ilk o'rta asrlarga oid tangalarni zarb qilishning, keyinroq esa ularning savdo munosabatlaridagi ishtirokining butkul to'xtalishi bilan yakunlanadi. Bu taxminan VIII asrning o'rtalarida, O'rta Osiyo Yaqin Sharq mintaqasining moliyaviy-iqtisodiy munosabatlariga tortilgan paytda nihoyasiga yetgan. Ushbu jarayon ancha kechroq Xorazm, Ustrushona va Chochda amalga oshgan.

Tangalarda ifodalangan xudolar tasviri, asosan ibodatxonalarda tasvirlangan xudolar tasvirlaridan olingan. Ikkinchisi, g'azablangan hayvonlarning tasviri esa shaharlarning o'ziga xos gerbi hisoblangan shahar emblemalaridan olingan. Ko'plab uchrab turadigan hayvonlarning tasviri sifatida sher (turlicha ifoda usullarida), ikki o'rkachli tuya, ot va kiyikni olish mumkin. Ushbu tasvirlar nafaqat tangalarda, balki aslzodalarning qalqonlarida ham uchragan. Ulardan muhr va shtamp sifatida ham foydalanilgan, ya'ni xususiy xarakterdagi emblemalar vazifasini o'tagan. Sug'dning oxirgi davriga oid tangalarni sinchiklab o'rganish orqali mahalliy aholining

tasavvurida ma'budalar qanday tasvirlanganligini bilib olish mumkin. Tangalarda ifodalangan yuz-qiyofalari turlicha bo'lib, ko'pincha tangalarga namuna sifatida olingan shakllardagi tasvirlardan kelib chiqqan. Ular cho'zinchoq va keng, yevropoid, juda kam holatlarda mongoloid yoki qisman mongoloidga tortadigan qiyofada tasvirlangan. Yuz qismlarining qanday ifodalanganiga qarab liboslar, bir-biridan farq qiluvchi bosh kiyimlari va soch turmaklari farq qilgan. Tangalardagi bitiklar yonida shuningdek, alohida belgilar bo'lgan – nishonlar ham ifodalangan. Keyinchalik belgilar old tomoniga o'tkazilgan, orqa tomonida esa tanganing kim tomonidan chiqarilganligini ko'rsatuvchi yozuvlar zarb qilina boshlagan. Oxirgi Sug'd davriga oid bronza tangalardagi nishon-belgilar ushbu turdagi tangalarning asosiy va barqaror elementlaridan hisoblanadi. Ularning har biri ma'lum bir vaqt – biror bir markaz, ya'ni shahar bilan bog'liq bo'lgan. Eng keng tarqalgan nishon-belgilarni quyidagilar tashkil etadi. «Y» ga o'xshash ikki ko'rinishdagi – samarqandcha, to'rt qirrali buxorochoa, bunday ko'rinishda ko'proq Varaxsha va Toshkent vohasi tangalari zarb qilingan, svastikaga o'xshash uch qirrali shakl Toxaristonda, lirasimon «U» shakl – Panjikentda, ayrisimon «Y» – Choch vohasida keng tarqalgan.

Sug'diylar va ular bilan zamondosh bo'lgan turklarning zarbchilik ishi haqida gapirganda, biz ushbu sohani yuksak badiiy taraqqiy etganligini hamda toshlarni o'yish va tamg'alarni ishlatishda yuqori darajadagi san'at namunasidek ish ko'rilganligini e'tirof etish mumkin. Tangalarda zarb etilgan sanasi ko'rsatilmagan taqdirda ularni zarb etilgan paytini aniqlashda shakliy-stilistik uslubi bo'yicha tasniflash katta o'rin tutadi.

Sug'd bronza tangalari quyma usulda tayyorlangan, faqatgina VIII asrning ikkinchi choragidan boshlab,

arablarning tangachilik usuli ta'sirida sug'dlar qoliplarda zarb etish va keyinchalik to'liq zarb qilish usuliga o'tganlar.

O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davri tangachiligi umuman yangi bir negizda amalga oshirilgan. Deyarli barcha viloyatlarda (Xorazmdan tashqari, u yerda asosan Sosoniy draxmalari va ularga o'xshash tangalar amal qilgan) asosiy pul sifatida kumush tangalardan foydalanilgan.

Buxoro Sug'di. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan ushbu viloyat tangachiligida qadimiy davr Yevtidem tetradraxmalariga taqlid asosida chiqarilgan ilk sug'diy tangalarni zarb etishning to'xtatilishi bilan nihoyasiga yetgan.

Bir vaqtning o'zida ham mis, ham kumushdan chiqarilgan tangalarning ikki kichik guruhida Sosoniylar tangachiligining ta'siri yaqqol bilinib turadi va bundan ushbu tangalar IV asr oxiri V asrlarda muomalaga chiqarilgan degan xulosa kelib chiqadi. Ushbu tangalarning stratigrafik taqsimlanishini o'rganish orqali biz ularning zarb etilgan aniq vaqtini, shuningdek, ancha avvalgi vaqtlarda amal qilgan «*Girkod*» tangalari bilan o'zaro nisbatini bilib olishimiz mumkin.

Buxoro Sug'dida Sosoniy hukmdori Varaxran V (421–439)ning draxmalari andozasida birinchi sug'd tangalari chiqarilgan va ular buxorxudot tangalari nomini olgan.

Varaxran V tangalari andozasidagi VI–VIII asr yarmiga oid Buxoro tangalari kumush pullardan iborat bo'lib, ular Buxoro Sug'dining turli markazlarida zarb qilingan mayda mis pullarga yirik pul – kumush tanga vazifasini o'tagan. Shuningdek, umumviloyat maqomida orqa tomonida mehrob tasvirlangan *skifat* mis tangalari ham amal qilgan.

Mehrob tasvirlangan Buxoro mis tangalari VI–VII asrning ikkinchi choragida Buxoro kumush tangalari bilan parallel tarzda chiqarilganligi va ustiga kumush

yurgizilganligi to'g'risidagi Allot de la Fyui fikri bir muncha asossiz hisoblanadi. Chunki bugungi kungacha buxoro mis tangalariga kumush yurgizilganligi to'g'risida birorta ishonarli fikr mavjud emas.

Xitoy namunalari asosida o'rta qismi teshilgan quyma mis tangalari VII asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro Sug'dining (shuningdek, Samaraqand Sug'dining) markazlarining birida tayyorlana boshlangan. Ularga namuna sifatida ilk Tan davrining «*kay yuan tun bao*» bitikli tangalari olingan. Ularning tayyorlangan yeri to'g'risidagi ma'lumotni orqa tomonidagi «buxorocha» belgidan bilib olish mumkin.

Yana bir Sug'dda zarb qilingan xitoy namunasidagi tangalar Panjikentdagi topilmalardan topilgan.

VII asr oxirgi choragi – VIII asrga oid Buxoro sug'di tangalari sirasidan old qismida tuyaning va orqa qismida olov mehrobi va sug'diy bitik tasvirlangan tangalarni misol keltirish mumkin. Buxoro Sug'dining kichik hududlaridan topilgan mahalliy tangalar markaziy hudularda zarb etilgan tangalarga nisbatan ancha kam topilgan. Yuqorida Poykendda zarb qilingan xitoy andozasidagi tangalar qayd etilgan edi. 1982 yilda Poykendda qayta davom ettirilgan qazilma ishlari orqali boshqa turdagi mahalliy tangalar ham zarb etilganligi to'g'risida ma'lumot olingan, ammo ushbu tangalar juda yomon holatda saqlanganligi bois hozircha ular haqida bir nima deyish mushkul ish hisoblanmoqda.

Old tomonida odam qiyofasining sxematik tasviri va orqa tomonida arab tilidagi bitik tasvirlangan kichik guruh mis tangalarini misol keltirish mumkin. Ularni zarb qilish VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Marv va uning atroflari. III asrdayoq sasoniylar tomonidan bosib olingan Marv VII asrning o'rtalariga qadar ayrim paytlarda tangalarni zarb qilish biroz to'xtab qolgan

bo'lsa-da, tangachilik markaziga aylangan. Ushbu zarbxonaning barcha mahsulotlari (umumdavlat namunasidagi draxmalar va mayda mis tangalar) o'zining tasviri va vazniga ko'ra Eronda o'sha paytda amal qilgan standartlarga to'liq muvofiq kelgan. Marv tanga zarbxonasida tangalarning aynan Marvda zarb etilganligini ifoda etuvchi harfli belgilar barcha tangalarga bosilgan.

Samarqand Sug'di. Eramizning IV asri Samaraqand Sug'dida kamonchining tasviri ifodalangan kumush tangalarning ko'plab namunalari muomalada bo'lganligi bilan xarakterli hisoblanadi, yuqori turdagi tangalarni zarb etish taxminan V asrning oxiri yoki VI asrning boshlarida to'xtatilgan. V asrning oxiri yoki VI asrning boshlarida tangachilik sohasida tub o'zgarishlar kuzatiladi, ya'ni Sosoniylar namunasidagi yangi tangalarga zarb qilishga o'tilgan. Bu kamonchi tasviri ifodalangan tangalarni qadrsizlanishiga olib kelgan. VI asr mobaynida kumush tangalardan Sosoniy podshosi Peruz tomonidan zarb qilingan va unga taqlid tarzida zarb qilingan tangalar katta ta'sirga ega bo'lgan. VII asrda ularning o'rnini Varaxran V tomonidan asos solingan namunadagi tangalar egallagan.

Xitoy namunasidagi tangalarni VII asrning ikkinchi choragidan VIII asrning o'rtalarigacha zarb qilina boshlagan. Ularga andoza sifatida tancha «*kay yuan tun bao*» bitikli tangalar olingan.

Janubiy Sug'd. Mustaqil tangachilik an'anasiga ega viloyatlar qatoridan Qashqadaryo vohasi nisbatan kechroq, Naxshab tangalarining zarb etilishidan keyin o'rin olgan. Ularning old qismida chapga qaragan hukmdorning boshi tasviri va sug'diy bitik, orqa tomonida esa orqa oyoqlarida tik turgan sherni qilichda bo'lib tashlayotgan hukmdor tasviri zarb qilingan. Ularni o'rganish yo'lida S. K. Kabanov tomonidan ancha ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tangalarni

zarb qilingan shahar – Yerqo‘rg‘on shahri xarobalarida qazilma ishlari davom etmoqda. Ushbu guruhga oid 500 tadan ko‘p tanga namunalari topilgan va ularning aksariyati Yerqo‘rg‘on xarobalaridan topilgan bo‘lib, bu yana bir bor S. K. Kabanov tomonidan ilgari surilgan ilmiy taxminlarni tasdiqlaydi.

Naxshab hududida, Janubiy Sug‘dda eramizning IV asrida old qismida hukmdor tasviri va orqa qismida sher bilan yakkama-yakka olishayotgan odam tasvirlangan mis tangalar zarb qilingan.

Ilk o‘rta asrlar davri Choch tangalari. Arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan ilk Shosh tangalarida yurib ketayotgan sher, ayrisimon belgi va sug‘d bitiklari mavjud. Ilk o‘rta asrlar davrida Chochda «buxorxudot usuldagi» draxmalar va old tomonida chapga (kam holatlarda o‘ngga) qarab turgan hukmdorning boshi va chap tomonidan turli ko‘rinishdagi tamg‘alar va sug‘dcha bitik tasvirlangan mis tangalari zarb qilingan. Shuningdek, orqa tomonida ayrisimon belgilar va orqa tomonidan hukmdorning gavda qismi yoki oyog‘i ko‘tarilgan sher tasvirlangan tangalar ham Choch tangalari qatoriga kiritilgan. Orqa tomonidagi sug‘diy bitikda hukmdorning unvoni, uni Chochdan ekanligini qayd etgan holda ko‘rsatilgan. Kabarnada orqa tomonidan murakkab besh qirrali yulduz tasvirlangan tangalar zarb qilingan bo‘lsa, Farankatda esa «Buxoro tamg‘asi» usulidagi va Buxoro Sug‘di tangalarida tasvirlangan olov mehrobining sxematik tasviriga o‘xshash chiziqlar tangalarga tushirilgan.

VI–VIII yuz yilliklardagi Choch tangalarining katta qismi *Teginlar* (☉) va *Tudunlar* (☿) sulolasi tangalaridan farqli tamg‘alar (☼) bilan bostirilgan bo‘lib, ularning ba‘zi tiplarida *c‘cynk xwv* (“Choch hukmdori”), ba‘zilarida esa faqat *xwvw* (“hukmdor”)

soʻzi uchraydi.

Mutaxassislar VI–VIII yuz yilliklarda Choch markaziy hukmdorga boʻysunuvchi va oʻzining alohida tanga zarbiga ega bir nechta kichik oʻlka (udel)larga boʻlinib ketganligi toʻgʻrisida xulosa chiqarishgan. Jumladan, E.V.Rtveladze ilk oʻrta yuz yilliklarga oid Choch tangalaridagi 6 xil shaklli tamgʻalarga tayanib, vohada 6 ta kichik oʻlka (udel) boʻlganligini ilgari surgan. Shu bilan u tangalardagi sugʻdiy yozuvlardan *Kabarna*, *Banokat*, *Tunukand* (Tunkat), *Farnkat* kabi toponimlarni topishga uringan va ularni vohadagi maʼlum bir hokimliklarning markazlari deb talqin qilgan.

Biroq keyingi yillarda Toshkent vohasidan topilgan yuzlab tangalardagi yozuvlarning qayta oʻqilishi tufayli Chochda zarb qilingan tangalar aslida 7 guruh boʻlganligi, ulardan 3 tasi Gʻarbiy Turk xoqonligiga, qolgan 3 tasi esa toʻgʻridan-toʻgʻri Choch sulolalari (teginlar, tudunlar va mahalliy sulolalar)ga tegishli ekanligi oydinlashdi. Faqat ulardan bir guruhining yozuvi hali toʻliq tiklanmaganligi uchun qaysi sulolaga tegishli ekanligi aniqlanmay qolmoqda.

VI–VIII asrlarga taalluqli Choch tangalarining maʼlum bir qismi Gʻarbiy Turk xoqonlariga xos tangalar ekanligi aniqlangan. Bu tangalardagi sugʻdiy yozuvli «Tardu xoqon», «Jabgʻu-xoqon tangasi» kabi jumllar hamda tangalarda aks etgan hukmdor, hukmdor va malika, otliq, ot, tuya tasvirlari orqali oʻz tasdigʻini topgan.

Gʻarbiy Turk xoqonligining ilk tangasi deb hisoblayotganimiz oʻng tomonida shaklli langarsimon tamgʻa va uning ustida sugʻdiy yozuvda «Tardu», teskari tomonida esa «xoqon» soʻzlari aks etgan. Gʻarbiy Turk xoqonligining eng mashhur hukmdori Tun yabgʻu-xoqon

(618–630) tangalari o‘zining ikonografik jihatlariga ko‘ra uch xil bo‘lib, ulardan birida taxtda chordona qurib o‘tirgan hukmdor, birida hukmdor va malika portreti, birida esa ot tasvirlari va orqa tarafida tang‘a o‘rin olgan. Chordona qurib o‘tirgan hukmdor tasvirli tangalarda uzun sochli xoqon o‘ng tomonga yuzlangan bo‘lib, bir qo‘li nimagadir ishora qilayotgandek yuqoriga ko‘tarilgan holatda, bir qo‘lida esa qilich ushlab turibdi. Hukmdorning yelkasidan teparoqda yarim oy va yulduz tasvirlari joy olgan. Bu tip tangalarning ba‘zi variantlarida hukmdor o‘tirgan taxtning ikki chetidagi ustunlari zoomorf (balki bars boshi?) shaklida ishlangan. Ushbu tasvirlarga diqqat qilinsa, ularning barchasi o‘sha davr siyosiy-mafkuraviy hayoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi. Avvalo, hukmdorning taxtda chordona qurib o‘tirgan holda tasvirlanishi turkiylarga xos odat bo‘lib, unga o‘xshash holatni markaziy osiyolik turli sulolalarga tegishli ilk va o‘rta asrlarga mansub devoriy suratlar, kumush laganlar, miniatyuralar va boshqa tasvirlarda uchratish mumkin. Mutaxassislar tomonidan shartli ravishda «turkiy hukmdor o‘tirishi» deb nomlanadigan bu usul shubhasiz o‘sha davr an‘anasini o‘zida mujassam etgan. Bundan tashqari, qilich, yarim oy va yulduz tasvirlari qadim davrlardan beri dunyoning ko‘plab xalqlarida hokimiyat ramzlaridan bo‘lib kelgan.

O‘ng tomonida hukmdor va malika tasviri – qo‘shaloq portret joy olgan. Qo‘shaloq tasvirli tangalarda xotun uch muguzli bosh kiyimida tasvirlanishi esa o‘sha davr mafkurasi bilan chambarchas bog‘liqdir. VII–VIII asrlarga taalluqli uch mo‘guzli iloha shaklidagi loy haykalchalar aksariyat xollarda qadimgi turkiylar e‘tiqodidagi Umay (Umay ona, Umay ene) bilan bog‘lanadi.

Choch vohasining G‘arbiy Turk xoqonligiga taalluqli boshqa tangalarida, orqa tomonida yulduzlangan olov aks

etgan otashdon va uning yonida G'arbiy Turk xoqonligi tangalariga xos tamg'a o'rin olgan. Choch vohasi tangalarida otashdon ilk bor faqat shu tipdagi tangada uchiriladi. Otashdon tasviri asosan Sosoniylar va Buxoroning turli tangalariga xos bo'lib, u zardushtiylik bilan bog'liq ramziy belgi hisoblanadi. Xoqonlikka xos tangalarda otashdonning joy olishi esa zardushtiylikning G'arbiy Turk xoqonligi mafkuraviy hayotidagi o'rimdan darak beradi.

Choch vohasi tangalari orasida old tomonida o'ngga yuzlangan ikki o'rkachli tuya va orqa tomonida rombsimon tamg'a o'rin olgan tangalar ham uchraydi. Tuya Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasida muqaddas hayvon sifatida joy olgan bo'lib, xoqonlik tangalaridan tashqari Buxoro vohasi tangalarida ham uchraydi. Faqat ularda Choch tangasidan farqli o'laroq, tanganing bir tomonida zardushtiylik timsollaridan biri – otashdon aks etgan va tuya o'ngga emas chapga yuzlangan. Shu bilan birgalikda, "xoqon" unvoni bilan chiqarilgan mazkur Choch tangalarining aynan o'xshashi yaqinda Qanqa xarobasi (Toshkent viloyati)dan topilgan mis muhrda uchrab, tanga va muhrning ham o'lchami, ham zarb texnikasi bir xil. Bu esa mazkur muhrni ham xoqonlikka aloqador deb talqin qilishga asos beradi.

Choch tangalari orasida Xitoy tangalariga taqlidan o'rtasi to'rtburchak teshik shaklda zarb qilingan tangalar ham uchrab turadi. Bunday tangalarni zarb qilish G'arbiy Turk xoqonligining Xitoy imperiyasi asoratiga tushib qolgan davri, ya'ni 658- yildan keyingi davrlarga to'g'ri kelsa kerak.

Qadimgi turk tangalari Yettisuv (Issiqko'l havzasi va Chuy vodiysi, qadimgi Taraz joylashgan Talas vodiysi) va Movarounnahming Sirdaryo bo'yi havzalarida – O'tror atroflari (qadimgi Farob), Choch va Farg'ona, Buxoroda muomalada foydalanilgan. Xronologik jihatdan tangalar katta davmi VI asrdan Ikkinchi Turk xoqonligining

tanazzulga yuz tutish davrini o'z ichiga oladi.

Ilk o'rta asrlar davri Xorazm tangalari. Ilk o'rta asrlarda me'morchilik yanada rivoj topib, Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosgan singari qal'a, qasr va ko'shklar kvadrat yoki to'rtburchak shaklda bino qilinib, burchaklari doirasimon burjlar bilan mustahkamlangan. Bu davrda bunyod etilgan qal'a va ko'shklar orasida me'moriy jihatdan, ayniqsa, Teshikqal'a va Yakka Porson diqqatga sazovordir.

Xorazmda badiiy san'at ham rivoj topgan. Ayniqsa, zargarlik (oltin, kumush va jezdan turli xil taqinchoqlar: uzuk, bilaguzuk, isirg'a va boshqalar) ohangarlik va sarrojlilik, ohanjoma (temir jiba, ot anjomlar) yasalgan, ip va ipakli guldor matolar to'qilgan. Miloddan avval VI-V asrlarda ro'y bergan yuksalish milodiy III asr oxiri va IV asr boshida tushkunlikka uchrab, xarobaga aylangan qator shaharu qal'alar V— VI-asrlarda yana jonlangan (Kavat qal'a, Guldursun qal'a, Kat), X asr oxirlarida Shimoliy Xorazmda Urganch shahrining ahamiyati ortib, unda qator monumental binolar qad ko'targan. Binokorlikda paxsa, xom g'isht bilan bir qatorda pishiq g'ishtdan foydalana boshlangan (Ko'hna Urganch; Sulton Takashning maqbarasi, Faxriddin ar-Roziyning maqbarasi va boshqa shular jumlasidandir).

IV asrda Xorazmda kumush tangalarni zarb etish to'xtatilgan va faqatgina mis tangalar zarb qilina boshlagan. Tangachilik ishining tanazzulga yuz tutganligini bu yerda mis simlarning bo'laklaridan gulbarglar shaklidagi tangalar zarb etilganligidan bilib olishimiz mumkin.

VII asrda Xorazmda kumush va bronza tangalarining shakli va vaznida katta o'zgarishlar sodir bo'lganligi kuzatiladi. VII—VIII asrlardagi Xorazm tangachiligining o'ziga xos xususiyati sifatida kumush tangalar tarzida

Sosoniylar tangalariga taqlid namunalari emas, balki old tomonidan toj kiygan hukmdorning va orqa tomonida esa suvoriyning tasviri zarb qilingan mahalliy tangalarning amal qilganligini ko'rsatish mumkin.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Eftalitlar, Xioniylar, Turk xoqonligi, Girkod, Varaxran V, mehrob, Poykend, Yerqo'rg'on, S. K. Kabanov, Allot della Fyui.

Mavzuga oid savollar:

1. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday bo'lgan?
2. Ilk o'rta asrlarda Buxoro Sug'dida qanday turdagi tangalar zarb qilingan?
3. Ilk o'rta asrlarda Chochda qanday tangalar mavjud bo'lgan?
4. Ilk o'rta asrlarda yurtimizning qaysi hududlarida Xitoy na'munasidagi tangalar zarb qilingan?
5. Panjikentda zarblangan tangalarda qanday tasvirlar bo'lgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Ilk o'rta asrlarda yurtimiz tangashunosligida mavjud bo'lgan nishon belgilar ichida «to'rt qirrali» belgi qaysi hudud tangasiga taaluqli edi?
 - a) Xorazm
 - b) Samarqand
 - s) Buxoro
 - d) Choch

2. VI–VIII asralarga oid yuzasida mehrob tasvirlangan mis tangalar qayerdan topilgan?

- a) Qashqadaryo
- b) Buxoro
- s) Farg‘ona
- d) Xorazm

3. Yurtimiz hududidan topilgan qadimgi turk tangalari xronologik jihatdan qaysi davrga oid?

- a) VIII asr
- b) VI asr
- s) V asr
- d) VIII asr

4. Qaysi mahalliy hokimlik tangalarida Hindiston bilan aloqalarga sha'ma qiluvchi fil tasviri tushirilgan?

- a) Chochda
- b) So‘g‘dda
- s) Ustrushonada
- d) Yunon Baqtriya

5. So‘g‘dning mil. avv. I asrdan milodiy I asrgacha bo‘lgan tangalari shartli ravishda necha guruhga bo‘linadi?

- a) 5 guruhga
- b) 6 guruhga
- s) 7 guruhga
- d) 4 guruhga

Mavzu № 4. ARAB XALIFALIGINING ILK DAVRIDAGI VA SOMONIYLAR DAVRI TANGALARI

Reja:

- 1. Xalifa Abd ul-Malikning pul islohoti.**
- 2. Arab xalifaligi tangalari.**
- 3. Somoniylar davlati tangalari.**

Arab xalifaligi 632–1258 yillarda mavjud bo'lgan, Arabiston yarim oroli, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan saltanat hisoblanadi. Bu mamlakatlar asosan «*Xulafo ar-roshidin*» («*To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar*») va ummaviylar zamonida fath etilgan. Lekin, abbosiylar bu ulkan hududni butun saqlab qololmaganlar. Ichki ixtiloflar ta'siri ostida Arab xalifaligi VIII asrning oxirlaridan boshlab mayda-mayda qismlarga parchalanib keta boshlagan. 788-yilda Mag'ribning g'arbiy qismida (Marokash) idrisiylar (788–985 yillar), uning sharqiy qismida (Tunis) ag'labiylar (800–909 yillar) hukmronligi o'rnatilgan. Xuroson va Movarounnahrda esa IX asrning 20 yillaridan boshlab mahalliy sulolalar – tohiriylar (821–873 yillar), safforiylar (867–903 yillar) va somoniylar (875–999 yillar) bosh ko'tarib chiqqanlar. Ular Arab xalifaligiga nomigagina tobe bo'lib, aslida mustaqil hukmdor bo'lganlar. Arab xalifaligi 1258 yil mo'g'ullar tarafidan tugatilgan.

Xalifa Abd ul-Malikning pul islohoti. Xalifa Abd al-Malikning (685-705) pul islohoti va xalifalikda yangi tipdagi tangalarni joriy kilinishi. VII asrning 90 yillarida boshlangan va 696–697 yillarda nihoyasiga yetkazilgan Abd ul-Malik tomonidan amalga oshirilgan pul islohotlarini iqtisodiy jihatdan muhim tadbir bo'lgan. Arab xalifaligida

yarim asr mobaynida bir vaqtda davlatning mafkurasiga zid bo'lgan rasmlari bor pullarning amal qilishini, faqatgina arablar ushbu qadim davrlardan pullarga o'rganib qolganligi bilan izohlash mumkin. Vizantiyaning hujum qilish xavfi bo'lgan paytda xalifalik hududida xalifalar tasvirlangan pullarning muomalada bo'lishi umuman mantiqsiz holat edi.

Arab tarixchilari birinchi yangi turdagi – hech qanday suratlarsiz, faqatgina arabcha yozuvlardan iborat tangalarning paydo bo'lishini hijriy 694–695 yillarga borib taqasalar-da, ushbu davrga oid tangalar bugungi kungacha topilmagan. Abd ul-Malik nomi zikr etilgan eng dastlabki dinorlar 695–696 yillarda zarb qilingan. Ushbu tangalar avvalgi Vizantiya dinorlariga o'xshash bo'lib, arab tilidagi diniy iboralarning qayd etilganligi va bu bilan toza epigrafik musulmon dinorlariga aylanganligi bilan diqqat-e'tiborni tortadi. Ushbu turdagi dinorlarning old tomonida qinli qilich taqqan va qo'lida uch xipchinli qamchi ushlagan holda tik turgan xalifa hamda dumaloq tarzda *«Lo ilaha illalloh, Muhammadur rasululloh»* yozuvi ifodalangan. Orqa tomonining markaziy qismida uch zina tepaligidagi buzishga harakat qilingan xoch tasviri qisman bilinib turadi, dumaloq tarzda yozilgan bitik *«ushbu dinor Alloh nomi bilan 76-yilda zarb qilindi»* degan ma'noni anglatadi. Dunyoning turli tanga kolleksiyalarida yigirmaga yaqin bir-biridan vazni va o'lchamiga ko'ra farq qiluvchi Ammon, Jibrin, Quddus, Qinnasrin, Kurus, Maarra, Manbij, Sarmin va Xalabda zarb qilingan shunday turdagi tangalar saqlanadi. Yana alohida 34 ta dinor mavjud bo'lib, ularda xalifa tanasi tasvirlangan, lekin ism va sana ko'rsatilmagan, *«xalifatul-lohi»* («Allohning xalifasi») degan bitik zarb etilgan. J. Uoker ularni 670–685 yillarga mansub deb ko'rsatgan, ammo avvalgi ilk musulmon tangalariga katta o'xshashlik ularni ilk yangi turdagi musulmon tangalari deyishga asos beradi va

ular Feofan yozgan 690–691 yillarda Yustinian II o‘lpon sifatida olishdan bosh tortgan tangalar bo‘lishi mumkin.

696–697 yillarda Damashqda old tomonidan bir necha dumaloq yozuvli tasvirlar ifodalangan (u yerda «*Muhammad Allohning rasuli. Alloh uni yetakchi sifatida haq din bilan, ushbu dinni barcha boshqa dinlardan yuqoriga qo‘yish uchun Sizlarga jo‘natdi*» (Qur‘on, 9:33), degan jumalalar bitilgan) toza epigrafik dinorlar zarb etishga kirishilgan. Avvalgi tangalardan farqli tarzda ular barqaror 4,25–4,27 gr., ya‘ni Vizantiya nomismalaridan (4,45–4,48 gr.) 1/24 yengil vaznga ega bo‘lganlar.

Yuqoridagi tangalar bilan bir vaqtda yoki biroz keyinroq al-Hajjoj ham epigrafik tangalarni zarb etishga kirishgan. Ulardagi yozuvlar dinorlarga qaraganda ancha keng yozilgan. 9- suraning 33- oyati «...*barcha dinlar ustidan, bu xudosizlarga yoqmasa ham...*» to‘laligicha ifodalangan, shuningdek, dumaloq yozuv orqali avvalgi dinorlarda mavjud bo‘lmagan tangalarning zarb qilingan joyi ko‘rsatilgan. Qanday omil asosida yangi dinorlarning vazni, arab-sosoniylar tangalaridan chorak vazn yengil (4 gr. o‘rniga 3 gr. qilib belgilangan) qolip belgilanganligi bugungi kungacha bahsli masala hisoblanadi. Endi dinorning dirhamga nisbatan almashinuv kursi 1/14 ni tashkil etgan. Dirham vaznining keskin kamaytirilishi yashash tarziga ham ta‘sir etishi lozim edi, lekin tarixiy manbalarda maosh oluvchilarning norozilik chiqishlari haqida ma‘lumotlar mavjud emas. Shuningdek, tangalar vaznini kamaytirilishi maoshlarning miqdoriga ta‘sir etganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar ham uchramaydi.

Al-Balozuriy tomonidan keltirilgan yangi dirhamlar zarb etilishi yuzasidan noroziliklar haqidagi ma‘lumotlar ham ancha noaniq. Al-Hajjoj tomonidan «*bag‘liya*» dirhamlari zarb qilingan, ulardan «*Bismi Allahi al-Hajjoj*»

(«*Alloh nomi bilan Hajjoj*») degan yozuv ifodalangan bo‘lib, bir yildan keyin ushbu yozuv «*Allohu ahad Allohu samad*» degan yozuv bilan almashtirgan. Bu faqihlarning noroziligiga sabab bo‘lgan va ular ushbu dirhamlarni «yoqimsiz», «*jirkanch dirhamlar*» deb ataganlar. Shuningdek, ajamliklarga ham ushbu dirhamlar yengil bo‘lganligi uchun yoqmagan va ular ham ushbu dirhamlarni «*jirkanch*», «yoqimsiz» dirhamlar deya nomlaganlar.

Islahotlar natijasida yangi o‘lchov birligi – 3,125 gr. vaznga ega dirhamlar paydo bo‘lgan, ularni avvalgi draxmalar va sikllarga nisbati aniqlanmagan. Ushbu dirhamni qisman vizantiya solidiga (4,68 gr.) tenglashtirish mumkin, dirhamlarning ularning $\frac{2}{3}$ og‘irligiga teng bo‘lgan, shuningdek, unchalik muvofiq kelmagan qator boshqa o‘xshashliklarni ham keltirish mumkin. Yangi o‘lchov birligi xalifalik hududida foydalanilgan ko‘plab o‘lchov birliklarini ifodalash uchun asos sifatida olina boshlagan.

Ushbu dirham tanga – dirhamlarga, dinorlar esa *solib* – misqollarga teng pul sifatida baholangan. Ikkisining vazni ham bir-biridan $\frac{1}{24}$ nisbatga farq qilgan: 2,985 gr. va 3,125 gr., 4,27 gr. va 4,68 gr. Ushbu pullarning umumiy taqsimlanish nisbatining $\frac{1}{24}$ ga tengligi tasodifiy hodisa emas. Bu yerda g‘aznaga kelib tushgan metall va tanganing vazni e‘tiborga olingan, ya‘ni eski turdagi tangalardan yangilarini zarb etish davlatga daromad keltirishi kerak bo‘lgan. Tangalarni zarb etishga ketgan mablag‘ shu tariqa qoplangan. Shunga e‘tibor qaratish lozimki, ushbu mezon sarflarni qoplashda belgilab olingan yuqori qiymat hisoblanadi. Fotimiylar davrida Misr zarbxonalarida tangalar yasashga mo‘ljallangan qimmatbaho metallar va zarb qilingan tangalar o‘rtasidagi nisbat $\frac{1}{34}$ dan $\frac{1}{30}$ gacha bo‘lsa, Moskva zarbxonasida XVI asrda bu nisbat $\frac{1}{48}$ ni

tashkil etgan. Bu yerda zarb qilish texnikasi ancha sodda bo'lib, ko'p mablag'ni talab qilmaganligiga ham e'tibor berish lozim. Shuningdek, XII asrda Qohira zarbxonasidagi nisbatning ancha yuqori 1/20 bo'lganligiga ham e'tibor berish kerak.

Mesopotamiya, Armaniston va Eronning bir qismida yangi tangalarni zarb qilinishi Sharqiy Eron hududida eski turdagi tangalarning muomalada bo'lishi va zarb qilinishini to'xtatib qo'ymagan. Ammo islomlashuvning kuchayib borishi bilan ularning amal qilinishi doirasi ham torayib borgan.

Avvalgi tangalarda mavjud bo'lgan xristian ramzlarining, ya'ni xoch va yunoncha yozuvlarning arab tilidagi musulmoncha diniy formulalar bilan almashtirilishi papirus qog'oziga o'ralgan bayonnomalarning o'zgarishiga olib kelgan. Arab mualliflari bayonnomalar birdaniga o'zgargan degan ma'lumotni ilgari suradilar, ammo saqlanib qolgan papiruslardan bu jarayon sekin-asta, bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini bilish mumkin.

Abd ul-Malikning islohotlari xalifalik tarixida yangi davrni boshlab bergan. Ya'ni, xalifalikda bosib olingan hududlarning davlatchilik an'alaridan foydalanmasdan, balki o'zining ma'muriy-g'aznaviy tizimni shakllantirishga kirishilgan, ushbu tizim etno-mazhabiy birdamlikka asoslangan bo'lib, markazlashgan harbiy-byurokratik davlat negizini tashkil etgan.

IX asr boshlariga kelib, Movarounnahr va Xurosonda mahalliy sulolalar – tohiriylar, keyinroq somoniylarning ta'siri osha boshlagan.

Somoniylarning asoschisi Somon islom dinini qabul qilgan va Xuroson noibi himoyasida faoliyat ko'rsatgan. Uning nabiralari – Nuh, Ahmad, Yax'yo va Ilyos – to'g'ridan-to'g'ri xalifaga xizmat qilganlar. Uning

buyrug'iga ko'ra Xuroson noibi ularni to'rt viloyatga hukmdor sifatida tayinlagan: Nuhga – Samarqand, Ahmadga – Farg'ona, Yah'yoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga – Hirot ustidan hukmronlik qilish topshirilgan. Tashqi jihatdan go'yoki ushbu to'rt aka-uka Xuroson noibiga bo'ysinuvchi va unga o'lpon to'lovchi viloyatlar hukmdoridek ko'rinsalar-da, aslida ishlar boshqacha bo'lgan.

To'rt aka-ukaning eng kattasi bo'lgan Nuh – alohida ta'sirga ega bo'lgan. Tashqi to'qnashuvlarda u oila boshlig'i sifatida ishtirok etgan. Tarixchilar ushbu holatga unchalik diqqat e'tibor qaratishmagan. Numizmatik ma'lumotni o'rganish orqali shuni bilish mumkinki, aka-ukalar bu paytda o'zlarini alohida viloyatlar hokimi sifatida emas, balki yetakchi Nuh hisoblangan bir sulola sifatida baholaganlar. Ilk Somoniy mis tangalarining uning nomidan zarb etilganligini shunday izohlash mumkin. Masalan, Binkatda Yah'yo mulkida zarb etilgan tangada Yahyoning ismi emas, balki Nuhning ismi qayd etilgan. Shu sababdan, eng boshidanoq Somoniylar sulolasining vakillari ongida sulolaviy birdamlik tuyg'usi shakllangan va ular O'rta Osiyoni Arab xalifaligi va tohiriylardan mustaqil tarzda boshqarishga uringanlar.

Nuhning vafotidan keyin Ahmad ushbu kichik, hali to'liq shakllanmagan sulolaning yetakchisiga aylangan. Alohida g'ayrati va qobiliyatlari bilan aka-ukalar ichida ajralib turgan Ahmad o'zining inilarining mulklarini «birlashtirishga» va o'z sulolaviy manfaatlarini hayotga tadbiiq etishga kirishgan. Xususan, u o'zining hali hayotligida Samarqand taxtini o'g'li Nasrga berishga muvaffaq bo'lgan, u otasining vafotidan keyin 864- yilda sulola yetakchisiga aylangan. Xalifa uni 875- yilda sulola yetakchisi sifatida tan olgan va unga davlatni boshqarishga ruxsat beradigan «yorliqni» jo'natgan.

Nasrning ahvoli ancha og'ir edi. Uning o'zidan katta qarindoshlari uni rad etib, ko'pincha hattoki tashqi jihatdan ham uning sulola yetakchisi sifatidagi hukronligiga qarshi chiqqanlar. Nasrning o'z aka-ukalarining ayirmachilik harakatlariga qarshi kurashi qat'iy bo'lmaganligi sababli unchalik muvaffaqiyat qozona olmagan. Masalan, Shoshda Nasrning amakisi Muhammad ibn Nuh hukmronlik qilgan paytda u jiyanining hukmronligini tan olgan va uning nomidan tangalar zarb etgan bo'lsa, Shosh Nasrning inisi Ya'qubga tekkanda u o'z nomidan tangalar zarb etib, shu tariqa o'z isyonini Nasrga namoyon qilgan. Farg'ona ustidan Nasrning inisi Asad hukmronlik qilgan. Nasr va Asad boshqa aka-ukalarga qarshi kurashda ittifoqchi bo'lgan bo'lsalar-da, Asad Axsikatda (Farg'ona poytaxti) o'z nomidan tangalar zarb qilgan hamda Nasrning ismini hattoki syuzeren sifatida ham qayd etmagan, Nasr ushbu holatga ko'z yumib qaragan. Nasrning boshqa bir inisi Ismoil bilan munosabatlari ancha murakkab bo'lgan. Ismoil faqatgina 874- yilda yirik viloyatlardan bo'lgan – Buxoro taxtiga o'tirgan. Bungacha Buxoro somoniylarning mulklari sirasiga kirmagan. Ushbu shahar aholisi Buxoro noibi suiste'molliklaridan norozi bo'lib, uni haydab yuborganliklaridan keyin shahar oqsuyaklari Nasrga murojaat qilganlar va u Ismoilni Buxoro noibi etib tayinlagan. Ammo Ismoil Buxorodagi hokimiyatini mustahkamlash yo'lida o'zining butun aqliy qobiliyatini, ayyorligini va qaysarligini namoyish etishi kerak bo'lgan.

Buxoro Ismoilning qo'lida xizmatlari uchun in'om etilgan bir viloyat tarzida bo'lgan. Narshaxiy bergan matnning tahlili quyidagicha xulosaga kelishga imkon berdi: Ismoil Buxoro viloyatidan tushadigan daromadlarning katta qismini (700 ming *G'itrifiy* dirham atrofida) Nasrning g'aznasiga berishi va kichik qismini (500 ming *G'itrifiy*

dirham) o'zida qoldirishi mumkin bo'lgan. Shaharda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Ismoil Nasr oldida hisobot bermay qo'ygan va ushbu boy viloyatning daromadlarini barchasini o'ziniki qilib olgan.

Aka-ukalar o'rtasida uzoq davom etgan kurash boshlangan. Yaqin davrgacha bu hokimiyat uchun siyosiy kurash bo'lgan degan fikr ustunlik qilar edi, ammo ushbu fikr manbalardagi ma'lumotlarda o'z tasdig'ini topmagan. Aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil etish orqali bu iqtisodiy kurash bo'lganligini xulosa qilish mumkin. Ismoil Buxoroda faqatgina barcha huquq va imtiyozlar bilan mustahkamlanib olishga uringanligini ko'rish mumkin. Aka-ukalar o'rtasidagi ikki to'qnashuv ham Ismoil Buxorodan olingan va Nasr g'aznasi uchun mo'ljallangan daromadlarni o'zlashtirib olganligi natijasida kelib chiqqan: ularning birinchisi 886- yilda bo'lib, Ismoilning vaqtincha taxtdan chetlatilishi bilan yakunlangan, ikkinchisi 888- yilda bo'lib, unda Ismoil g'alaba qozongan. Lekin Ismoil Nasrdan taxtni olib qo'ymagan, chunki uning taxtga davosi bo'lmagan. U faqatgina Buxoroning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurashgan va bunga to'liq 888- yilda erishgan. 892- yilda Nasr vafot etganidan keyingina, u davlat boshlig'iga aylangan va Buxoro davlatning yangi poytaxti maqomini olgan.

O'zaro sulolaviy nizolar va isyonlarni bostirganidan keyin Ismoil oldida yana bir vazifa u tomonidan barpo etilgan davlatning tashqi mustaqilligini ta'minlash vazifasi turgan. Kundan-kunga kuchayib borgan Somoniylar davlatining qudrati xalifalikning markaziy qismini ancha xavotirga solib qo'ygan, shuningdek, qo'shni ko'chmanchi urug'-qabilalarning Movarounnahr o'troq hududlariga to'xtovsiz hujumlari dehqonchilik hududlarining xo'jaligiga

katta ziyon keltirgan.

Ismoilga qarshi kurashda xalifa Xuroson hukmdori Amr ibn Lays Safforiydan foydalanishga uringan. 898- yilda xalifa O'rta Osiyodan hajga kelgan ziyoratchilarni o'z qarorgohiga Bag'dodga taklif etgan va u yerda Movarounnahrning hukmdori etib, Amr Safforiy tayinlanganligi to'g'risidagi yorliqni o'qib eshittirgan. So'ngra xalifa qimmatbaho sovg'alar bilan ushbu yorliqni Amrga jo'natgan. Amrni Ismoilga gij-gijlash orqali xalifa ularning ikkisinining hokimiyatini zaiflashtirishga va bu orqali xalifalik hokimiyatini mustahkamlashga uringan.

Yorliqni olganidan keyin Amr Ismoilga qarshi qo'shin bilan borgan. Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra, Ismoil shundan keyin «hunarmand va oddiy xalqni qurollantirib» katta kuch bilan Balxga Amrni qarshi olishga borgan.

Ismoil Amr ibn Lays ustidan 900- yilda Buxoro devorlari yonida g'alaba qozongan, chunki uni oddiy xalq ommasi va hunarmandlar qattiq qo'llab-quvvatlaganlar. Tabariy, Ibn Miskavayh va ancha aniqroq Narshaxiy ma'lumot bergan. Ushbu ma'lumotga ko'ra, Ismoilning shaxsan o'zi ham oqsuyaklarga, ham oddiy xalq ommasiga, hunarmand-to'quvchilarga ta'minot va qurol tarqatgan. Xalq ko'ngillilarining qudratiga yetarli baho bermagan Amr tormor etilgan. Ismoil tomonidan oddiy xalq ommasining qurollantirilganligi to'g'risidagi Narshaxiy keltirgan ma'lumot shuningdek, «Tarixi Seyiston»da ham o'z aksini topgan: Ismoil ibn Ahmad Movarounnahrda jarchilarga *«Amr Movarounnahrni ishg'ol etish uchun, mulklarni talon-taroj qilish va bolalar hamda ayollarni qul qilib olib yetish uchun keldi»*, deb jar solishga buyurgan. Haqiqatda ham shunday bo'lganligi sababli, Movarounnahrda barcha hunarmandlar Ismoil tomonga o'tganlar va *«Asirga tushgandan ko'ra, shonli o'lim afzal!»*,— degan so'zlar bilan

Amrga qarshi urushga otlanganlar.

900- yilda mahorat bilan o'ylangan tadbir natijasida Ismoil Amr qo'shinini o'rab olishga, unga zarba berib, Xurosonda o'z hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'lgan.

Ismoilning ko'chmanchilarga qarshi urushlari uning amrga qarshi bo'lgan urushidan ham muvaffaqiyatli chiqqan. Ko'chmanchilar buning natijasida uzoq vaqt mobaynida Movarounnahrning dehqonchilik hududlariga bosqinchilik yurishlarini amalga oshira olmaganlar. Buxoro vohasini ko'chmanchilar hujumlaridan saqlab qolish maqsadida Ismoil taxtga chiqishidan ancha avval o'troq dehqonchilik hududlarini ko'chmanchilar yashaydigan cho'l va dashtlardan ajratib turuvchi bir necha o'n kilometrdan iborat devor qurilgan. Ushbu devor ta'mirlanishi uchun mahalliy aholidan yiliga soliqlar yig'ilgan. X asr tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, ushbu soliqni to'lash xalqqa ancha malol kelgan va og'ir bo'lgan. Ismoil ko'chmanchilar ustidan g'alaba qozonganidan keyin u Buxoro aholisini ushbu soliqlardan ozod etgan: *«Men tirik ekanman, Buxoroning devori men bo'laman»*,— deb aytgan Ismoil Somoniy. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Ismoil darhaqiqat shaxsan o'zi janglarda ishtirok etgan va bu bilan dushmanga Buxoro vohasini egallab olishga yo'l qo'ymagan.

Xalq ommasining mustaqillik uchun kurashidan foydalangan holda Ismoil arab istilosidan keyin birinchi marta o'zaro urushlar natijasida parchalanib ketgan mamlakatni birlashtira olgan va kuchli mustaqil davlatni barpo etgan. Safforiylar hokimiyatini tugatgan Ismoil Somoniy nafaqat Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini kuchaytira olgan, balki Eronning bir qator shimoliy va sharqiy viloyatlari hukmdoriga aylangan va amalda Arab xalifaligidan mustaqil tarzda hukmronlik

qilgan.

Yirik zodagon sifatida Ismoil Somoniy mahalliy aslzodalarning va savdogarlarning manfaatlarini himoya qila olgan. Aynan ularning manfaatlaridan kelib chiqqan holda u mamlakat tashqi xavfsizligini ta'minlay olgan va ichki boshqaruvni tartibga solgan. Ushbu chora-tadbirlar, birinchi navbatda Movarounnahr va Xurosonning yagona bir markaz atrofida birlashuvi mamlakatning amaldagi mustaqilligini ta'minlagan va ko'chmanchilar bilan munosabatlarni tartibga solib, Xuroson va Movarounnahrda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo taraqqiyoti uchun zamin yaratgan.

IX–X asrlarda O'rta Osiyoning yirik shaharlari ichki, viloyatlararo va ayrimlari xalqaro savdo munosabatlarining markazi vazifasini o'tagan. Biroq nafaqat ushbu savdo-hunarmandchilik markazlarida, balki ayrim qishloqlarda ham ularda muayyan hunarmandchilik turi gullab-yashnagan holatlarda faol savdo aloqalari olib borilgan. Ushbu holatda Narshaxiyning Buxoro atrofida joylashgan qishloqlar to'g'risidagi ma'lumoti ahamiyatga molik hisoblanadi. Haftaning biror bir kunida ushbu markazlarning birida bozor uyushtirilgan va u yerga ko'plab aholi boshqa hududlardan kelganlar. Ayrim qishloqlarda 10 va hatto 20 kunlab davom etgan yillik yarmarkalar tashkil etilgan va u yerga turli chekka hududlardan savdogarlar kelganlar. Yarmarkaga tashrif buyurganlar nafaqat o'zlarining ehtiyojlari uchun mahsulotlarni sotib olganlar, balki boshqa o'lkalarga olib borib sotish uchun ham oldi-sotdi ishlarini amalga oshirganlar. O'rta Osiyo ishlab chiqarilgan ayrim mahsulotlarga asosan matolarga boshqa o'lkalarda talab kuchli bo'lgan. Ushbu qishloqlarning o'zida istiqomat qilgan yirik savdogarlar ham keng savdo amaliyotiga ega bo'lganlar.

Ichki savdoning holati, rivojlanishi va ayrim o'ziga xosliklari haqida o'sha davr tangalari guvohlik beradi. Ularni o'rganish orqali ushbu hududda rivojlangan pul xo'jaligi va pul munosabatlarining aniq-tarixiy spetsifikasi mavjud bo'lganligini xulosa qilish mumkin.

Oltin tangalar – *dinorlar* Somoniylar davrida ko'p miqdorda O'rta Osiyo hududiga kirmagan zarbxonalardan ko'plab ishlab chiqarilgan, mintaqa hududidagi zarbxonalar dinorlarni juda kam zarb etganlar. Lekin boshqa bir holat kishi diqqat e'tiborini tortadi. Oltin tangalar (dinorlar) manbalarning ma'lumot berishicha, «mahsulot tarzida» baholangan va boshqa pul-tangalar kabi donalab emas, balki vazniga qarab qiymati belgilangan. Mabalarning ushbu ma'lumotini dinorlarnig aniq vazni ham tasdiqlaydi: ularning bir-biridan farqi shu darajada bo'lganki, darhaqiqat donalab ularni qiymatini belgilash mumkin bo'lmagan.

Shuningdek, XI–XIII asrlarga oid tangalar ham donalab emas, vazniga ko'ra baholangan. Ammo bu davrda ular baribir savdoda bevosita ishtirok etgan. IX–X asrlarda esa ular muomala vositasi vazifasini deyarli bajarmaganlar. Shunga qaramasdan, Buxoro pullariga ta'rif berar ekan, Istaxriy to'g'ridan-to'g'ri quyidagi ma'lumotni keltiradi: «*ular o'zaro dinorlarda savdo qilmaydilar*». 921- yilda Buxoroga tashrif buyurgan Ibn Fazlon viloyat pullarini katta qiziqish bilan batafsil ta'riflagan holda oltin dinorlarning mavjudligini umuman qayd etmagan. Yana shuningdek, oltin dinorlar xazina tarzida baholangan va aholi tomonidan ularni uylarga yashirgan holda yig'ish afzal ko'rilgan. O'sha davr savdosining hajmidan va narxlaridan kelib chiqqan holda eng yirik savdo bitimlarida ham to'lov sifatida kumush va kumush tangalar – dirhamlardan foydalanish imkoni mavjud bo'lgan.

IX–X asrlarda tohiriylar va somoniylar davlatida turli

ko'rinishdagi dirhamlar zarb qilingan hamda ularning har biri o'zining nomiga va vazifasiga ega bo'lgan. IX asrda ayniqsa X asrda umumdavlat kumush dirhamlarini zarb etish ancha barqaror yo'lga qo'yilgan. Ushbu dirhamlarda hech qanday tasvir mavjud bo'lmasdan, balki kufiy yozuvidagi bitiklar ifodalangan. X asrda ushbu tangalar Ismoil Somoniy ismiga bog'langan holda *ismoiliy* deb atalgan. Eng qiziq holat shuki, G'arbiy Yevropa va Boltiqbo'yida *ismoiliy* dirhamlarining yuzlab kolleksiyasi topilgan holda O'rta Osiyoning o'zida ushbu turdagi tangalar juda kam uchragan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ushbu tangalar birinchi navbatda dunyo puli vazifasini o'tagan va davlatning ichki iqtisodiyotida muayyan bir vazifani bajargan. Ularning probasi va vazni ham to'liq shunga muvofiq keladi. Dastlab ularning probasi juda yuqori, vazni esa aniq bo'lib, davlat ichidagi savdo munosabatlarida ular donalab o'lchangan. Ushbu pullarning katta qismi baribir davlat tashqarisiga, boshqa mamlakatlarga chiqib ketayotganligi aniq bo'lib qolganidan keyin somoniylar hukumati ularning vaznini yengillashtirishga va probasi sifatini pasaytirishga qaror qilgan. Darhaqiqat o'ttiz yil o'tmasdan turib, *ismoiliy* dirhamlarining vazni o'zgargan va ular bir-biridan vazn jihatidan katta farq qila boshlagan. Ularning probasi ham shu tariqa o'zgargan. Bunday pullar davlatning ichida donali tarzda muomalada bo'la olmasdi va bundan «*ismoiliy*» dirhamlarning ichki savdoda ahamiyati tushib ketgan, degan xulosaga kelish mumkin. Oltin kabi ular ham ayrim holatlardagina davlatning ichki bozori ehtiyojlarini qondira olgan.

IX–X asrlarga oid O'rta Osiyoda manbalarida «*xorazmiy*», «*Muhammadiy*» va «*g'itrifiy*» deb nomlangan dirhamlar asosiy muomala vositasi vazifasini bajarganligi qayd etilgan. Ayniqsa, oxirgi uch turga alohida e'tibor

qaratish kerak. Ularda, *ismoiliy* dirhamlaridan farqli tarzda arabcha yozuvlar katta o'rin egallamagan, asosiysi bu bir tomonida hukmdorning gavda qismi tasviri va ikkinchi tomonida olovli muqaddas qurbonlik qilinadigan joy va soqchilar tasvirlangan. Ushbu holatni eramizning V asrida sosoniy tangalarida qayd etilgan tasvirlarning sxematik qaytarilishi sifatida baholash mumkin. O'sha davr iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida soliqlar aynan mana shu uch tasvirga ega tangalarda belgilanganligini ko'rsatish mumkin. Har qaysi viloyat har qanday tangalarda emas, balki muayyan tasvir mavjud tangalarda soliq to'lashi shart bo'lgan. Masalan, konlarga ega bo'lgan Shosh viloyati va Xo'jand oliy probali *musayyabiy* dirhamlarida to'lagan; Markazi Samarqand bo'lgan Sug'd va Farg'ona *Muhammadiy* dirhamlarida to'laganlar, Buxoro esa faqatgina *g'itrifiy* dirhamlarida to'lash majburiyatini olgan. Ustrushona viloyati esa 48 ming *Muhammadiy* dirhamlari va 2 ming *musayyabiy* dirhamlarini to'lagan.

Ushbu uch dirham turi bir-biridan nimasi bilandir, qattiq farq qilganligi aniq, chunki boshqa vaziyatda ushbu viloyatlarga mazkur dirhamlarning aniq bir miqdorini buzmasdan to'lash zimmasiga yuklatilmagan bo'lar edi. Ushbu masala yuzasidan ikki xil taxmin mavjud bo'lib, birinchisi, ushbu dirhamlar bir-biridan o'zida tasvirlangan arabcha yozuvlarning ifodalanishiga ko'ra va ikkinchidan, yasalgan metalidan kelib chiqib farq qilgan. Ikkinchi ilmiy taxmin manbalardagi ma'lumotlarda ham o'z tasdig'ini topgan.

Musayyabiy dirhamlari oliy probali kumushdan yasalgan bo'lib, Ibn Xavqal tomonidan bejizga «ularning xazinalaridan» deb atalmagan.

Muhammadiy dirhamlari to'g'risida Istaxriy ular temir, mis, kumush va boshqa narsalardan quyilgan bo'lib, asosan

past sifatli kumushlar bo'lganligini e'tirof etgan.

G'itrifiy tangalari esa bronzadan quyilgan.

O'z-o'zidan ularning to'lov qiymati ham bir-biridan farq qilgan: *musayyabiy* dirhamlariga ko'proq, *g'itrifiy* dirhamlariga kamroq narsa sotib olish mumkin bo'lgan. Biroq, IX–X asrlar pul munosabatlarining o'ziga xos jihati sifatida o'zining qiymatiga ko'ra umumdavlat miqyosidagi *ismoiliy* dirhamlaridan yuqori turgan. Hattoki, *g'itrifiy* dirhamlarga ham *ismoiliy* dirhamlariga qaraganda ko'proq mahsulot xarid qilish mumkin bo'lgan.

Mayda savdo uchun mis tangalar – *fulslar* ishlatilgan. Ular kumush tangalarga nisbatan muayyan qiymatda amal qilingan. Masalan, 921- yilda Buxoroda 1 kumush dirham 24 mis fulsga teng bo'lgan. Mis tangalar viloyat ichkarisida savdo munosabatlarini olib borishga mo'ljallangan bo'lsa-da, amalda viloyat tashqarisida savdo munosabatlarida qo'llanilgan va tabiiyki, u yerda bir muncha arzonroq qiymatga ega bo'lgan. Masalan, 921- yilda Buxoroda Samarqand tangalariga mahalliy Buxoro tangalariga sotib olish mumkin bo'lgan mahsulotlarning 2/3 qismini xarid qilish mumkin bo'lgan.

Musayyabiy, Muhammadiy, g'itrifiy tangalarining amal qilishining o'ziga xosliklaridan shunday xulosa qilish mumkinki, X asrda hattoki markazlashgan somoniylar davlati doirasida ham O'rta Osiyo viloyatlari iqtisodiy ma'noda yaxlit bir butunlikni tashkil etmagan. O'zining bozorlariga ega iqtisodiy viloyatlar aniq ajralib turgan. Ushbu iqtisodiy viloyatlar o'sib borayotgan savdo munosabatlariga qaramasdan, tangalarning ichki tarkibidan tortib, ko'plab o'ziga xosliklarini saqlab qolgan. O'z navbatida hukumat ham yuqoridagi o'ziga xoslik va an'analar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Abd ul-Malik, Yustinian II, Istaxriy, Narshaxiy, musayyabiy, ismoiliy, g'itrifiy, «jirkanch dirham», muhammadiy.

Mavzuga oid savollar:

1. Abd ul-Malik islohotlarining muhimligi nimalar bilan belgilanadi?

2. O'rta Osiyoda somoniylar davlatining tashkil topishi yurtimiz tangashunosligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

3. «Ismoiliy tangalari» yurtimiz hududidan ham ko'proq miqdorda qayerdan topilgan?

4. Somoniylar davrida ichki va tashqi savdoda ishlatiladigan tangalar bir biridan nimasi bilan farqlangan?

5. Somoniylar davrida tanga pul munosabatlari haqida Ibn Havqal qanday ma'lumotlar bergan?

Mavzuga oid testlar:

1. Xalifa Al- Xajjoj tominadan zarb qilingan ammo ko'pchilikning noroziligiga sabab bo'lgan «jirkanch tangalar» haqidagi ma'lumotni kim bergan?

a) Al-Balozuriy

b) Al-Mehtarziy

s) Narshaxiy

d) Istaxriy

2. Xalifa Abd ul-Malik tomonidan ilk tangalar nechanchi yilda zarb qilingan?

a) 695-96

b) 690-91

s) 699-700

d) 656-567

3. Kim Somoniylar davri Buxoro pullariga ta'rif berar ekan «ular o'zaro dinorlarda savdo qilmaydilar» deydi?

- a) Narshaxiy
- b) Istaxriy
- s) Jurjoniy
- d) Beruniy

4. IX–X asrlarda Oʻrta Osiyoda har bir viloyat markaziy hokimiyatga har qanday tangalarda emas balki, muayyan tangalarda soliq toʻlashi kerak edi. Aytingchi, «musayyabiy» dirxamlarida qaysi viloyat soliq toʻlagan?

- a) Fargʻona
- b) Shosh va Xoʻjand
- s) Buxoro
- d) Xorazm

5. IX–X asrlarda Oʻrta Osiyoda har bir viloyat markaziy hokimiyatga har qanday tangalarda emas balki, muayyan tangalarda soliq toʻlashi kerak edi. Aytingchi, Buxoro qaysi tangalarda soliq toʻlagan?

- a) Musayyabiy
- b) Gʻitrifiy
- s) Muhammadiy
- d) Ismoiliy

Mavzu № 5. XI–XIII ASRLARDA MOVAROUNNAHR TANGALARI

Reja:

1. XI–XIII asrlar boshlarida Oʻrta Osiyoda pul muomalasi.
2. Gʻarbiy Qoraxoniylar davlatining tangalari.
3. Xorazmshoh Muhammad tomonidan Movarounnahrni zabt etilishi va bu jarayonni tangalarda aks etishi.

Qoraxoniylar davlati Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yon bagʻrida tashkil topib, IX asr ikkinchi yarmidan XIII boshlarigacha mavjud boʻlgan. Davlat qoraxoniylar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Sulola nomi ilmiy adabiyotlarda ilk marotaba sharqshunos olim V. V. Grigoryev tomonidan qayd etilgan. Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chigʻil va yagʻmo qabilalari yetakchi rol oʻynagan. Qoraxoniylar davlatining saltanat darajasidagi rivoji va taraqqiyoti X asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Abdulkarim Sotuq Bugʻroxon hokimiyatni egallab, oʻzini «*Qoraxon*» deb eʼlon qilgan. Bugʻroxondan keyingi barcha xonlar ham ushbu unvon bilan ulugʻlangan.

Qoraxoniylar davlati 1041- yilga kelib ikki mustaqil davlatga: sharqiy va gʻarbiy qismga boʻlinib ketgan.

Sharqiy qism poytaxti Bolasogʻun, madaniy markazi esa Qashqar boʻlgan Yettisuv, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Fargʻonadan iborat boʻlgan. Gʻarbiy qism esa Movarounnahrda to Fargʻona vodiysining gʻarbiy chegarasigacha boʻlgan yerlarni oʻz ichiga olib, markazi Samarqand hisoblangan.

Qoraxoniylar davlati vujudga kelgan dastlabki vaqtda,

uning etnik asosi va aholisining tarkibini Yettisuv, Isfijob, Shosh, Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismi, Farg'onaning shimoli-sharqiy hududlarida yashovchi qarluq, chigil, xalach, to'xsi va arg'un kabi ko'plab qabilalar tashkil etgan. Qoraxoniylar keyinchalik Movarounnahr uzra o'z hukmronligini o'rnatgach, o'lkalarda qadimdan yashab kelayotgan o'troq va ko'chmanchi aholini, mazkur yagona davlatning umumiy chegaralarida o'zaro bir-biriga yaqinlashish va aralashib borish jarayoni tezlashgan. Ularning iqtisodiy, madaniy hayoti, bir-biri bilan aloqadorlikda rivojlana borgan. Tub yerli aholi ta'sirida yarim ko'chmanchi va yarim o'troqlikda yashab kelgan etnik guruhlar o'troqlashib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqish jarayonining tezlashuvi, ko'chmanchi dasht bilan o'zaro munosabatlarning taraqqiyoti O'rta Osiyo davlatlarining ichki va tashqi savdo munosabatlarining taraqqiy etishiga olib kelishi Eron va Xitoyning bir qismida topilgan arxeologik topilmalar hamda va yozma manbalardagi ma'lumotlari orqali tasdiqlangan.

Pul ayriboshlashining mavjudligi to'g'risida keng numizmatik ashyolar ham bundan guvohlik beradi. XI–XIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda turli davlat birlashmalarining pullaridan foydalanilganligini (bu hududlardagi viloyatlarning qaysi davlat hududiga kirganligiga bog'liq) ham kuzatish mumkin. G'aznaviy va saljuqiylar davriga oid tangalarni asosan O'rta Osiyoning janubiy qismlari xarobalarida ko'plab topish mumkin. Ulardan birinchisi asosan Tojikiston hududida, ikkinchisi esa Turkmaniston hududida ko'plab saqlanib qolgan. Qoraxoniylar davriga oid tangalar esa asosan Qirg'iziston,

O'zbekiston va Shimoliy Tojikiston hududlarida uchraydi. Butun O'rta Osiyo bo'ylab Xorazmshoh Muhammad ibn Takash tomonidan zarb qilingan tangalarni uchratish mumkin.

Ushbu davrga oid pul munosabatlariga nisbatan o'ziga xos ikkita jihat mavjud. Birinchisi, bu avvalgi davrlarga qaraganda oltin pullarga, oltinga bo'lgan talabning ortganligi bo'lib, ammo u ushbu davrda ham donalab emas, balki vazniga ko'ra baholangan. Lekin ularning pul munosabatlaridagi o'rni ancha o'sgan va O'rta Osiyoning bir necha shaharlarida oltin pullar zarb etilgan. Ikkinchi o'ziga xos xususiyat esa, kumush tangalarning tanglikka uchrashini ko'rsatish mumkin. XI asrdan boshlab, Sharq mamlakatlarida kumush pullarning probasi pasayib ketgan. Ushbu sifatsiz pullarni Yevropaga olib ketmay qo'yilgan. Ularning amal qilish hududi torayib, asosan ular zarb qilingan mamlakatda savdo munosabatlarida ishtirok etganlar.

Kumush tangalarning sifatsizlanish holati barcha davlatlarda turlicha bo'lgan. G'aznaviy davlatida bu jarayon sekinroq amalga oshgan bo'lib, buning sababi, Mahmud va Mas'ud tomonidan Hindistonga qilingan bir necha yurishlar natijasida g'azna kumush va oltin bilan ancha to'ldirilganligi hisoblanadi. Ularning tangalarida 70–76% sof kumush bo'lib, shuningdek, tarkibining 95% sof kumushdan iborat oliy sifatli dirhamlar ham muomaladan chiqib ketmagan. Bu davrda O'rta Osiyoning janubida zarb qilingan Qoraxoniylar dirhamlarida tarkibida kumush 20% ni tashkil etgan. XI asr ikkinchi yarmida Qoraxoniylar tasarrufida bo'lgan Farg'onada umuman tarkibida kumush bo'lmagan dirhamlar zarb qilingan bo'lib, ular asosan mis va qalay eritmasidan tayyorlangan va ular sanalmasdan, balki vazniga qarab baholangan. Lekin, Ibrohim Tamg'achxondan

keyin G'arbiy Qoraxoniylar davlati Farg'onani egallab olgan va u yerda tarkibida 20% kumush bo'lgan tangalarni zarb etgan. Bu vaqtinchalik holat bo'lib, XII asrdan boshlab Qoraxoniylar davlatida usti yupqa kumush qoplamga ega mis dirhamlarni zarb qilishga kirishilgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyoda avvalgi davrlarga mansub mis *g'itrifiy* dirhamlar amal qilishda davom etgan. Ushbu turdagi barcha tangalar kumush pul muomalasi sohasida amal qilingan va ularning xarid qiymati o'zining qiymatidan ancha yuqori bo'lgan.

Ayrim tadqiqotchilar kumush inqirozining sababini ko'plab kumush metallarning yevropaga olib ketilganligi va bu omil inqirozni keltirib chiqarganligi bilan izohlaydilar. Albatta, bu muhim omil hisoblanadi va ammo tangalarning sifatini buzilishining asosiy sababi emas, shunchaki ularning oltinga nisbatan mavqeyi o'zgargan xolos. Ushbu holatda aynan shaharlarning, mahsulot ishlab chiqarishning va pul munosabatlarining gullab-yashnashi – oliy sifatli tangalarni o'rniga, balki qulay ko'plab tangalarning yuzaga kelishini talab qilgan. Bozorning kuchayib borgan talablari bir tomondan oltinni faollashuviga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan katta miqdorda past sifatli tangalarning zarb etilishini talab qilgan.

XI–XIII asr boshlariga oid pul munosabatlarining tavsifi u davrda rivojlangan tovar-pul munosabatlari mavjud bo'lgan, deya ta'kidlashga imkon beradi. Agar tovar-pul munosabatlariga O'rta Osiyoning eng chekka tog'li hududlari ham faol jalb etilganligini e'tiborga olsak, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qanday muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin.

Endi XII–XIII asr boshlaridagi G'arbiy Turk xoqonligi asosiy hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalarni ko'rib chiqamiz.

XI–XII asrlar oraliq'ida Movarounnahrda Sharqiy Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan viloyatning hukmdori Jabroil Qodirxon hujum qilgan. Movarounnahr Sharqiy qoraxoniylar tasarrufiga o'tgan. Yangi bosib olingan hududlarni kengaytirish maqsadida Jabroil Saljuqiylar davlatiga qarashli yerlarga hujum qilish rejasini tuza boshlagan, lekin 1102- yil 22- iyunda Termiz yaqinida o'ldirilgan.

Jabroilni tor-mor etgan sulton Sanjar Movarounnahrning bo'shab qolgan taxtiga o'zining noibini o'tqizgan. Bu Jabroilning hujumi vaqtida Marvga sulton Sanjar yoniga qochib borgan G'arbiy Qoraxoniylar shahzodasi Muhammad bo'lgan.

Shunday qilib, keyinchalik Arslonxon nomini olgan Muhammad ibn Sulaymonning ko'p yillik hukmronligi boshlangan. Arslonxonning hukmronligi oson kechmagan, u taxtga chiqqan dastlabki paytlaridan boshlab taxtga davogar bo'lgan boshqa qoraxoniylar bilan kurashishga majbur bo'lgan. Unga qarshi qoraxoniylardan Umarxon isyon ko'targan va uni Samarqanddan haydab chiqargan. Keyinchalik isyonchi Xorazmga qochishga majbur bo'lgan va u yerda sulton Sanjar tomonidan qo'lga olinib, o'ldirilgan.

Arslonxon davrida uch hududda Samarqand, Buxoro va Farg'onada tangalar zarb qilingan. Farg'onadagi zarbxona o'sha davrda viloyatning markaziy shahri hisoblangan va Qoraxoniylar davlatining poytaxti O'zganda joylashgan.

Farg'onaning mis fulslari Muhammad ibn Sulaymon tomonidan zarb qilingan dastlabki tangalar sirasiga kirgan. Undagi sana to'liq saqlanib qolmagan bo'lib, tahminan hijriy 495- (1101/1102) va 499- (1105/1106) yillar oraliq'ida zarb qilingan deyish mumkin. Bu fuls tanga bizga muhim ma'lumotlarni beradi. Unga ko'ra biz Farg'ona

vodiysi Muhammad ibn Sulaymon hukmronligi davrida G'arbiy Qoraxoniylar davlatining asosiy hududini tashkil etgan deya ta'kidlashimiz mumkin. Biz ushbu ma'lumotga diqqat e'tiborimizni qaratamiz, chunki 1099- yilda Qodirxon Jabroilning G'arbiy Qoraxoniylar yerlariga bostirib kirishi natijasida Farg'ona Sharqiy Qoraxoniylar davlati tarkibiga o'tib ketishi ham mumkin edi.

Yana shunisi qiziqki, Farg'ona tangalarida Muhammad ibn Sulaymon Tamg'achxon unvoni bilan qayd qilingan. Bundan uning dastlabki unvoni Tamg'achxon bo'lib, u keyinchalik Arslonxon deb atalgan degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, ayrim yozma manbalarda xususan Avfida Muhammad ibn Sulaymon Tamg'achxon nomi bilan uchraydi.

Aniq sanasi ko'rsatilgan Muhammad ibn Sulaymonning tangalari sifatida hijriy 498- (1104–1105) yilga oid Buxoro fulsini ko'rsatish mumkin, uning old tomonida sulton Sanjarning ismi, orqa tomonidan Muhammad ibn Sulaymon Tamg'achxonning ismi qayd etilgan. 498- hijriy yilga oid Buxoro fuls tangasi orqali Muhammad ibn Sulaymon o'z hukmronligining dastlabki yillarida tangalarda Sulton Sanjarning ismini zikr etgan holda uning hokimiyatini tan olgan deb xulosa qilish mumkin.

Shuningdek, hijriy 513- (1119/1120) va 516- (1122/1123) yilga oid Buxoro tangalari ham ma'lum bo'lib, ularda Muhammad ibn Sulaymon «*al-xoqon al-a'zam*», ya'ni «*buyuk xoqon*» deb atalgan. Hijriy 513–516 yilga oid tangalarning old tomonidan Sulton Sanjarga tegishli bo'lgan, «*as-Sulton al-mu'azzam*» yozuvi uchraydi.

Muhammad ibn Sulaymonning Samarqandda zarb etgan dastlabki tangasi hijriy 490- yillarda chiqarilgan bo'lib, unda hukmdor faqat xoqon deb ifodalangan. Keyingi tanga esa xalifa Mustaxriz zamonida, ya'ni hijriy 512 yilda chiqarilgan

bo'lib, unda Muhammadning unvoni – «*al-Xoqon al-Adl A'lo ad-davla*» tarzida ifodalangan. Sulton Sanjarning ismi yoki unvoni bu tangalarda zikr etilmagan. Keyin hijriy 520-yilda chiqarilgan tanga keladi, unda «*Muhammad al-Xoqon al-adl*» orqa tomonida sulton Sanjar esa «*as-Sulton al-mu'azzam*» tarzida ifodalangan. Fitnachilarga qarshi sulton Sanjardan yordam so'rashga majbur bo'lgan Arslonxon yana uning oliy hukmdorligini tan olishga majbur bo'lgan.

Shuningdek, Saljuqiy hukmdorlar tomonidan zarb qilingan tangalar orqali ham qiziq tarixiy ma'lumotlarni olish mumkin. Hijriy 522- va 524 yillarda Sulton Sanjar nomidan zarb qilingan tangalar topilgan bo'lib, ular Nasr o'ldirilib, Sulton Sanjarning Arslonxonga yordamga kelishi hijriy 522- yilda sodir bo'lganligini ta'kidlashga imkon beradi. Aynan shu yilning o'zida Ahmad otasiga qarshi isyon ko'targanlarni tor-mor etib, qo'shukmdorga aylangan. Ammo «yordam berish uchun» kelgan Sulton Sanjar Buxoroni bosib olgan va u yerda o'z nomidan tangalarni zarb etgan. Hijriy 523- yilga oid Samarqand tangasi keyingi voqealar haqida ma'lumot beradi, ushbu tangalarda endi Sulton Sanjar ismi uchramagan va Muhammad ibn Sulaymon va uning o'g'lining unvoni qayd etilgan. Shunday qilib, Arslonxon va uning o'g'li Sulton Sanjarning hokimiyatini tan olmagan holda Samarqandga egalik qilganlar, Buxoroda esa 70 ming qo'shinga ega Sulton Sanjar hukmronlik qilgan va o'z nomidan tangalar zarb etgan.

Hijriy 524- yilning uchinchi oyida Samarqandni qo'lga kiritgan va Arslonxonni Marvga badarg'a qilgan Sanjar Buxoroda tangalar zarb qilishni davom ettirgan.

V. V. Bartold va keyinroq M. Ye. Massonlarning ta'kidlashlariga ko'ra, Movarounnahr taxtiga Arslonning vorisi sifatida, uning inisi Abu Muzaffar Tamg'ach

Bug'roxon Ibrohim ibn Sulaymon o'tirgan. Ibrohim sulton Sanjarning saroyida tarbiyalangan bo'lib, Arslonxon taxtdan tushganidan keyin Arslonning o'g'li Ahmad ibn Muhammad emas, balki aynan u Movarounnahr hukmdoriga aylangan.

Abu Muzaffar Tamg'ach Bug'roxon Ibrohim ibn Sulaymon Samarqand ishg'ol etilganidan keyin 1130- yilda Morvarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilingan. Hijriy 526- yili (may-iyun, 1132) taxtdan mahrum etilgan Arslonxon vafot etgan. Buning natijasida Ahmad qo'zg'olon ko'targan va Movarounnahr oliy taxtini egallashga urinib ko'rgan. 1132- yilning yozida Sanjar Xurosonga qaytishi kerak bo'lgan, lekin u Movarounnahrda uning hukmdori Ahmadxonning isyonida xabar topgan. Ahmadxon «*Movarounnahr hukmdori*» deb atalganligi sababli Movarounnahrda uning harakatlari dastlab muvaffaqiyat qozongan. Bu haqida Ahmad tomonidan chiqarilgan tangalar ham guvohlik beradi, afsuski, ularda na sana ko'rsatkichi, na zarb etilgan yer nomi qaydi saqlanib qolmagan. Ular Ahmadning nomidan chiqarilgan. Sanjar tomonidan Qodirxon Ahmadning isyoni bostirilgan. Ushbu hukmdor to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan.

Ibrohim ibn Sulaymondan keyin Movarounnahr taxtiga Sanjar tomonidan Qilich Tamg'achxon ibn Ali ibn Abd al-Mo'min tayinlangan, u Hasan-tegin nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Hasan ibn Ali o'z ajali bilan o'lgan, biroq uning vafot etgan yili to'g'risida ma'lumot keltirilmagan. Termizda hijriy 530 va 531- yilgacha (1136- yil oxiri – 1137- yil may-iyun) bo'lgan davrda zarb qilingan qoraxoniylar davriga oid tangalar topilgan.

G'arbiy Qoraxoniylar xoqonligining oliy taxti Arslonxonning Jalol ad-Din Mahmudga topshirilgan.

Mahmud taxtga hijriy 531- yilda o'tirishi kerak bo'lgan,

chunki bu davrda Xo'jandda Mahmudxonning qo'shinlari bilan atrofdagi yerlardan Movarounnahr hududiga ko'chmanchi – qoraxitoylar bostirib kirgan. Qoraxoniylar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, Sharqiy Qoraxoniylar xoqonligi hukmdorlarini to'liq bo'ysundira olmaganlari sababli Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo'lganlar.

Mahmudxon Sanjarning ancha sodiq vassallaridan hisoblangan. Mahmud tomonidan chiqarilgan barcha tangalarda Sulton Sanjarning ismi va uvoni qayd etilgan.

Biroq, mamlakatda osuda holat ko'p davom etmagan. Qoraxoniylar davlati taqdirini butunlay o'zgartirib yuborgan hodisalarning sodir bo'lishi uchun vaziyat ancha pishib yetilgan. Movarunnahrda jangovor qarluq qabilasining qo'shinlari bilan Mahmudxon askarlari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. Mahmudxon Sanjardan yordam so'rab murojaat etgan. 1141- yil iyulda Movarounnahrda saljuqiylarning qo'shini bostirib kirgan. Qarluqlar yordam so'rab qoraxitoylarga murojaat etganlar. 1141- yil 9-sentyabrda Qatvon dashtida hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan va ushbu jang saljuqiylar qo'shinining mag'lubiyati bilan yakunlangan. Jangda Sanjar va Mahmudxonning 30 ming qo'shini halok bo'lgan. Sulton Sanjar Mahmudxon bilan birga Termizga chekingan. Mamlakat qoraxitoylarga bo'ysindirilgan. Buxoroni egallanlaridan keyin qoraxitoylar u yerga o'z noiblari Alp-teginni o'tqizganlar. Movarounnahrda shu tariqa Mahmudxonning hukmronligi nihoyasiga yetgan. Bizgacha Mahmudxonning Samarqand va Buxoroda zarb etgan tangalari yetib kelgan bo'lsa-da, ularning zarb qilingan sanasining qaydi saqlanib qolmagan. Ushbu tangalarda oliy hukmdor tarzida Sulton Sanjar qayd etilgan. Mahmudxon esa ushbu tangalarda «sarvarxon» unvoni bilan qayd etilgan.

Qatvon jangidan keyin Movarounnahr qoraxitoylar hokimiyati ostiga o'tgan. Biroq qoraxitoylar mamlakatda eski boshqaruv tizimini saqlab qolganlar va hukmron sulolaning hokimiyatiga chek qo'ymaganlar. Bosib olingan viloyatlar aholisidan o'lpon olish bilan cheklanilgan.

G'arbiy Qoraxoniylar xoqonligining oliy taxtiga Arslonxon Muhammad ibn Sulaymonning o'g'li va Mahmudxonning inisi Tamg'achxon Ibrohim o'tirgan. U mamlakatni deyarli 16 yil boshqargan. 1156- yil fevralda u qo'zg'olon ko'targan qarluq qabilalari tomonidan o'ldirilgan.

Mahmudxon va sulton Sanjarning qochib ketishiga sababchi bo'lgan Qatvon jangidagi dahshatli mag'lubiyatidan va taxtga ularning o'rniga Ibrohimxon o'tirganidan keyin ushbu yangi qoraxoniy hukmdorning ismi tangalarda qoraxitoylar vassali sifatida tangalarda qayd etilgan. Biroq, qoraxitoylar bu masalaga deyarli e'tibor bermaganlar. Movarounnahr deyarli yarim asr mobaynida qoraxitoylarning hokimiyati ostida bo'lgan bo'lsalar-da, Movarounnahrning qoraxoniylar davriga oid birorta tangasida qoraxitoylar gurxonining ismi qayd etilmagan.

Masalan, Taxtabozor xazinasidan Samarqandda zarb qilingan Ibrohimxon tangalari topilgan, ularda oliy hukmdor sifatida Sulton Sanjar yoki Sarvarxonning nomi qayd etilgan. Aynan mana shu xazinada Ibrohim mustaqil hukmdor sifatida qayd etilgan tangalar ham mavjud.

Uzoq vaqt mobaynida fan uchun Ibrohimxon tomonidan zarb qilingan tangalar ma'lum bo'lmagan, faqatgina 1957- yilda Ye. A. Davidovich tomonidan Ermitajda saqlanayotgan va A. K. Markov tomonidan e'lon qilingan tangalar Ibrohimxon tomonidan zarb qilinganligi aniqlangan. A. K. Markov tomonidan tangalarda qayd etilgan hukmdorning ismiga aniqlik kirita olinmagan,

faqatgina ushbu yozuv aniqlashtirib berilgan. Ye. A. Davidovich esa hukmdorning ismini to'g'ri tarzda – Ibrohim ibn Muhammad deb o'qiy olgan. Zarb qilingan yil qaydi saqlanib qolmagan ushbu tangada *Ibrohim al-Xoqon al-A'zam* unvoni bilan qayd etilgan va mustaqil hukmdor sifatida zikr qilingan. Biz yana bir bor qoraxoniylarning qoraxitoylarga qaramligi tangalarda qayd etilmaganligiga guvoh bo'lamiz.

Ibrohim bilan birga shajarasi qoraxoniy Iboq Nasrga borib taqaluvchi sulolaning hukmronligi barham topadi.

Movarounnahrning yangi hukmdori Jag'raxon Ali ibn Hasan avval qayd qilingan Hasan teginning o'g'li bo'lgan. Shunday qilib, Movarounnahr taxtiga o'z ibtidosini Qoraxoniy Abdul Mo'mindan oluvchi yangi sulola kelganligiga e'tibor qaratish lozim.

Jag'raxonning hukmronligi urush bilan boshlangan. U o'ldirilgan Ibrohimxon uchun qasos olishga kirishgan va qarluqlarni tor-mor etib, ularning yetakchisi Bayg'uxonni o'ldirgan. Biroq, faqat bu bilan qoniqmagan Jag'raxon Ali qarluqlarni ta'qib etishda davom etgan. Qarluqlar yordam so'rab, Xorazmshoh El-Arslonga murojaat qilganlar va u 1158- yilda Jag'raxonning mulklariga bostirib kirgan. Jag'raxonga qoraxitoylar yordamga kelganlar va 10 ming askarli qo'shinni jo'natganlar. Ish urushgacha bormasdan, o'rtada sulh tuzilgan, quvg'indagi qarluq amirlarining aybi kechirilgan.

O. Pritsak, turk olimi A. Atesh tomonidan ilgari surilgan 556- (1160) hijriy yili o'lgan degan fikrni qo'llab quvvatlagan. O. Pritsak va A. Ateshning tahminlari to'g'ri chiqqan, chunki toshkentlik yozuvchi S. Borodinning kolleksiyasida Jag'raxon Alining vorisi Qilich Tamg'achxon Mas'ud tomonidan 556- hijriy yilda zarb qilingan mis ustiga kumush yurgizilgan tanga saqlanadi.

Jag'raxonning to'g'ridan-to'g'ri vorisi sifatida uning inisi Mas'udni qayd etish mumkin. V. V. Bartold tomonidan Mas'udning hukmronlik yillari sifatida 1163–1179- yillar oralig'i davri ko'rsatiladi. O. Pritsak Jamol Qarshi ma'lumotlariga tayangan holda Muhammadni Mas'ud bilan birgalikda hukmronlik qilgan degan fikrni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, Muhammad otasidan avval 1173–1174- yillarda vafot etgan, garchand bu ma'lumot Qarshi tomonidan keltirilmagan bo'lsa ham.

Shunday qilib, Samarqandning Muhammad qo'l ostiga o'tishi 567- yil muharram oyida (sentyabr, 1171) sodir bo'lgan va ushbu voqea evaziga tangalar zarb etilgan. Odatga ko'ra, tangalarda faqatgina yil ko'rsatiladi, oylarni qayd etish an'anasi mavjud emas. Ushbu tangalarda oliy hukmdor sifatida Muhammadning otasini ismi – Rukn ad-dunyo yoki ad-din ifodalangan. Lekin, hijriy 568- yilga oid tangalarda otaning unvoni Muhammadning G'iyos ad-dunyo va din unvoni bilan almashtirilgan.

Jamol Qarshining ma'lumotiga ishonadigan bo'lsak, Muhammad Mansurning Samarqand hukmdori sifatida hijriy 569- yilda o'lganligi ma'lum bo'ladi. Tangalardagi ma'lumotlarga, shuningdek, «Sindbodnoma»dagi bir ma'lumotga tayanib, Samarqandda uning vafotidan keyin yana otasi Mas'ud taxtga o'tirganligini ta'kidlash mumkin.

Undan keyin taxtga Ibrohim ibn Husayn o'tirgan. Ibrohim Ibn Husaynning hukmronligi (dastlab O'zgandda, keyinchalik Samarqandda) Qoraxoniylar davlati tarixida eng uzoq podsholik davrlaridan hisoblanadi. U tomonidan ilk tanga hijriy 557- (1163/1164) yili va eng oxirgi tanga hijriy 597- (1200/1201) yili zarb qilingan. Ibrohim ibn Husayning uzoq davom etgan hukmronlik yillari tinch va samarali kechgan.

O. Pritsak A. K. Markov tomonidan e'lon qilingan

Buxoroning hijriy 600- (1203/1204) yildagi zarb qilingan tangasidagi yozuvga tayanib, Ibrohim hijriy 600 yili vafot etgan degan g'oyani ilgari surgan. Nima bo'lganda ham bugungi kunda bizga ma'lum Ibrohimning vorisi sulton Usmon tomonidan chiqarilgan ilk tangalar hijriy 605 yilga tegishlidir.

Hijriy 574- yilda Ibrohim ibn Husayn G'arbiy Qoraxoniylar davlatining oliy hukmdoriga aylangan va poytaxt Samarqandda o'z nomidan tangalar zarb qilishni boshlaydi.

Hijriy 574- yilga oid (xalifa Mustadiy zamonida 566–575) Samarqandda zarb qilingan tangada Ibrohim o'zining O'zgarddagi unvoni «*al-xoqon al-odil al-a'zam Ibrohim Arslonxon*» degan jumlanı qayd ettirgan. Hijriy 582- yilga oid Samarqand tangasida ham u tomonidan ushbu unvon qo'llangan bo'lib, ammo ayrim to'ldirishlar kiritilgan: «*Al-xoqon al-odil al-A'zam Nasrat ad-dunyo va-d-din Ibrohim Kuch Arslonxon*». Hijriy 586- (1190) yilga kelib Ibrohimning Eng odil sulton, sultonlarning buyuk sultoni kabi unvonlari tangalarga zarb qilina boshlagan.

Numizmatik manbalarning guvohlik berishicha, Buxoro ham Samarqand kabi Ibrohim ibn Husaynning mulki hisoblangan.

Hijriy 597- yilning rajab oyida (1201 yil aprel-may) yozuvchi va olim Muhammad al-Avfiy Buxoroga tashrif buyurgan paytda Ibrohim ibn Husayn hali hayot bo'lgan, uning o'g'li esa 14–15 yoshlarda bo'lgan.

Dastlabki paytda Usmon xuddi otasi, barcha Qoraxoniy hukmdorlar, xorazmshohlar kabi qoraxitoylarning vassali bo'lgan. 1204- yili xorazmshoh Muhammadga qoraxitoylar yordamga kelganlarida Usmon ularning vassali sifatida qoraxitoylar qo'shini tarkibida harbiy harakatlarda ishtirok etgan.

Biroq, G'uriylar ustidan hal qiluvchi g'alabaga erishganidan keyin va isyonchi qipchoqlar bostirilganidan so'ng xorazmshoh Muhammad shu darajada kuchayib ketganki, oxir-oqibat u qoraxitoylarga o'lpon to'lamasdan qo'ygan va Usmon bilan fitnalar uyushtirishga kirishib Movarounnahrni bosib olish rejasini tuza boshlagan. 1207-yilning kuzida xorazmshoh Muhammad hech qachon Usmon o'z hokimiyatini o'rnata olmagan Buxoroni bosib olgan. Dastlab u yerda diniy sadrlar hukmronlik qilganlar, keyinchalik sadrlarning haydab yuborilishiga sababchi bo'lgan xalq qo'zg'olonidan keyin isyonchilarning boshlig'i Malik Sanjar Buxoroni boshqargan. Buxoroning shahar devorlari hamda qo'handizi qayta tiklanib, Muhammad u yerda o'z noibini qoldirgan va o'zi Xorazmga qaytgan.

Shu paytda qoraxitoylar davlatida Ko'chluk Naymanning isyoni boshlangan. Ko'chlukka qarshi kurashish uchun gurxon barcha vassallardan yordamchi kuchlarni jo'natishni talab qilgan. Bunday talab Usmonga ham jo'natilgan. Samarqand hukmdori gurxonning talabini bajarishdan bosh tortgan. Bundan tashqari, u ochiqchasiga Xorazmshoh tomonga o'tgan va hijriy 606- yilda (1209/1210) oliy hukmdor sifatida Xorazmshoh Muhammadning nomi zikr etilgan tangalarni zarb qilgan. Gurxon ushbu itoatsiz hukmdorni jazolashga harakat qilgan va 30 ming askardan iborat qo'shinni Samarqandga jo'natgan. Qoraxitoylar Samarqandni egallaganlar, biroq viloyatni talon-taroj qilmaganlar, oz hajmdagi o'lpon bilan cheklanganlar va Samarqandga o'z noiblarini qo'yib ortga qaytib ketganlar.

Ko'chluk Naymanning muvaffaqiyatlari to'g'risidagi xabar gurxonni Samarqanddan qaytib ketishga majbur qilgan. Bundan xorazmshoh Muhammad foydalanishga qaror qilgan va Samarqandga qarab yurish qilgan. Usmon

unga peshvoz chiqqan, viloyatni unga topshirib, uning qo'shiniga qo'shilgan. Ittifoqchilar Tarozga qarab yurganlar, u yerda hijriy 607- yilda (1210- yil avgust-sentyabr) qoraxitoylar bilan bo'lib o'tgan to'qnashuvda ularning qo'mondoni Tayang'u asir olingan. Shu vaqtda Bolosog'un yaqinida Kuchluk Nayman ustidan g'alabaga erishgan.

Tayang'u bilan urushdan keyin Usmon Muhammad bilan birga Gurganjga kelgan. U yerda u Xorazmshohning qiziga uylangan. U Samarqandga qaytmoqchi bo'lganida, xorazmshohning onasi Turkonxotun u turkiylarning odatiga ko'ra, bir yil o'z qaynotasining uyida yashashini talab qilgan. Faqatgina 1211- yildagina Usmonga Samarqandga qaytishga ruxsat berilgan. Biroq, unga hamroh qilib xorazmshohning vakili va xorazm qo'shini ham jo'natilgan. Usmonning kichik inisi Xorazmda garov tariqasida olib qolingan. Hijriy 607- yilga (1210–1211) oid Samarqand tangalarida Usmon xorazmshohning vassali sifatida zikr etilishda davom etgan.

Xorazmliklarning dimog'dorliklari samarqandliklar va Usmonning jig'iga tekkan. Usmonning siyosati yana qoraxitoylar bilan yaqinlashishga urinish ko'zga tashlana boshlagan. Juvayniyning keltirgan ma'lumotiga ko'ra, bu paytda Usmon gurxonning qiziga uylangan.

Usmon va xorazmshoh Muhammad o'rtasidagi munosabatlar ancha yomonlashgan. Bunday holatning yuzaga kelishida Usmonning saroyidagi xorazmshoh vakili va xorazm qo'shining dimog'dorligi asosiy sabablardan biri bo'lgan. 1212- yilda Usmon Samarqand aholisining bir ovozdan qo'llab-quvvatlashlari bilan isyon ko'targan. Qo'zg'olon haqida eshitgan xorazmshoh Samarqandga yurish qilish uchun otlangan. Usmon Muhammadning oldiga kechirim so'rab borganligiga qaramasdan, qatl etilgan. Shahar uch kun davomida talon-taroj qilingan, o'n mingga

yaqin samarqandliklar halok bo'lganlar. Shundan so'ng Samarqand xorazmshohlar davlatining amaldagi poytaxti vazifasini bajara boshlagan.

Shu tariqa Movarounnahrda Qoraxoniylar sulolasi hukmronligiga chek qo'yilgan. V. V. Bartoldning asosli taxminiga ko'ra, Usmon sulolaning xorazmshoh Muhammadning buyrug'i bilan qatl etilgan yagona vakili bo'lmagan. Boshqa Qoraxoniylar hukmdorlar ham shu yo'l bilan o'ldirilgan, lekin ularning ayrimlari shuningdek, omon qolish baxtiga muvassar bo'lganlar va Farg'onadagi ayrim hukmdorlar esa saqlanib qolganlar.

Ushbu mavzuda Qoraxoniylar davlatining XII–XIII asrlardagi, «quruvchi hukmdor» va islohotchi Arslonxondan boshlab ushbu qachonlardir qudratli bo'lgan sulolaning halokatigacha bo'lgan voqealar numizmatik manbalar asosida tahlil etishga harakat qilindi. Uning tanazzulini boshlanishi sifatida XII asrning oxirgi o'n yilliklarini olish mumkin, ushbu davrda Qoraxoniylar davlati hududida bir-biriga bog'liq bo'lmagan, oliy hukmdor qarorgohi Samarqandga bo'ysunmagan 6 ta mustaqil qoraxoniylar podshohlari yuzaga kelgan. Ushbu davrga oid Qoraxoniylar tangalarining birortasida oliy hukmdor unvoni qayd etilmagan. Qoraxoniylar mulklarining bo'linib ketishi nafaqat amaliy, balki yuridik ahamiyat ham kasb eta boshlagan. Bu yerda xuddi o'sha davrdagi Rusdagi kabi holat yuzaga kelgan, ya'ni qoraxoniylarning tarqoqligi va zaifligi sulolaning halokatini belgilab bergan.

Sulolaning ayrim vakillari XIII asrning boshlarida Xorazmshoh Muhammadni oliy hukmdor sifatida tan olishga majbur bo'lgan bo'lsalar-da, bu ularni hamda Qoraxoniylar davlatini muqarrar halokatdan saqlab qola olmagan. Bu hijriy 609- yilda (1212/1213) sodir bo'lgan. Agar Nasaviyning ma'lumotlariga ishonadigan bo'lsak,

bizga ma'lum bo'lgan eng oxirgi Qoraxoniylar hukmdori Bilgaxon Xorazmshoh tomonidan 1217- yilda qatl etilgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Qoraxoniylar, Asrlonxon, Tamg'achxon, Sarvarxon, Sulton Sanjar, Ibroxim Sulton, kumush inqirozi.

Mavzuga oid savollar:

1. «Kumush inqirozi» haqida nimalar bilasiz?
2. O'rta Osiyoda qoraxoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar, xorazmshohlar hukmronligi davri yurtimiz tangashunosligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. Muhammad ibn Sulaymon tomonida qanday tangalar zarb qilingan?
4. O'rganilayotgan davr tangalari haqida to'g'risida O. Pritsak, A. K. Markov qanday ma'lumot berganlar?
5. XI–XIII asrlarda hukmronlik qilgan qaysi sulola tangalarini butun O'rta Osiyo bo'ylab uchratishimiz mumkin?

Mavzuga oid testlar:

1. O'rganilayotgan davrda qaysi hukmdor o'z nomini «Sarvarxon» tarzida ifoda etib tangalar zarb qilgan?
 - a) Sulton Sanjar
 - b) Muhammad ibn Sulaymon
 - s) Mahmudxon
 - d) Bilgaxon
2. 1130- yilda kim Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilingan?
 - a) Sulton Sanjar
 - b) Ibrohim Sulton
 - s) Muhammad ibn Sulaymon
 - d) Axmadxon ibn Tamg'achxon

3. Nechanchi asrda qoraxoniylar davlatida usti yupqa kumush qoplamga ega mis dirhamlarni zarb qilingan?

- a) IX asrda
- b) XII asrda
- s) XIII asrda
- d) XI asrda

4. Qoraxoniy hukmdor Ibroxim ibn Husayn tomonidan ilk tangalar qachon zarb qilingan?

- a) 1163–64
- b) 1200–1202
- s) 1178–79
- d) 1134–36

5. Kimning kolleksiyasida Jag'raxon Alining vorisi Qilich Tamg'achxon Ma'sud tangalari saqlanadi?

- a) O. Pritsak
- b) S. Borodin
- s) A.K. Markov
- d) A. Atesh

Mavzu № 6. MO'G'ULLAR HUKMRONLIGI DAVRI TANGALARI

Reja:

1. Mo'g'ullar hukmronligining dastlabki davri tangalari.
2. Ma'sudbekning pul islohoti.
3. Kebekxon tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti.

O'rta Osiyo va Eron bosib olinganidan keyin mo'g'ul xonlari va oqsuyaklari ichida bosib olingan hududlardagi o'troq aholiga nisbatan ikki xil munosabat shakllandi. Ushbu yondashuvlarning ijtimoiy asoslari A. Yu. Yakubovskiy hamda I. P. Petrushevskiy tomonidan o'rganilgan. Birinchi yondashuv namoyandalari sifatida harbiy-ko'chmanchi (ham mo'g'ul, ham turkiy) oqsuyaklarning katta qismini, ko'plab shahzodalar va mo'g'ullarning oliy hukmdori bo'lgan xoqonlarni olish mumkin. Ular o'troq hayot tarziga qarshi chiqqanlar, butun yerlarni yaylovlarga va shaharlarni xarobalarga aylantirishni istaganlar. Ular to'xtovsiz talonchilik yurishlarini amalga oshirishga, shaharlarga o't qo'yib yuborishga va aholini tinmay asir olib, sotib yuborishga tayyor bo'lganlar. Ularning bunday ishlari tezda o'troq hududlarni vayron qilib, keyinchalik dehqonchilik, hunarmandchilik va savdodan keladigan daromad manbaidan ularni bebahra qoldirishi mumkinligini xayollariga ham keltirmaganlar. Ushbu guruhni shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri talonchilik yo'li bilan boyishni ko'zlagan ayrim mahalliy oqsuyaklar va savdogarlar ham qo'llab quvvatlaganlar.

Ikkinchi qarash tarafdorlarini esa ayrim xoqonlar va xoqon xonadoniga yaqin harbiy-ko'chmanchi

oqsuyaklarning kichik qismi, amaldorlar, dindorlar va savdogarlarning katta qismi tashkil etgan. Ushbu oqsuyaklarni kuchli markazlashgan hokimiyatga intilish, birinchi yo'nalish tarafdori bo'lganlarning ayirmachilik kayfiyatlariga barham berish, o'troq aholini talon-taroj qilishni va talashni to'xtatishni darhol to'xtatilishi kerakligini tushunish tashkil etgan. Shaharlar va savdo-sotiq ishlariga yordam ko'rsatish, o'lpon va majburiyatlarning aniq miqdorini belgilab qo'yish, dehqonlar va shaharliklarni o'zboshimcha soliqlar va o'lponlar yig'ishdan ozod qilish, ekinzorlarni payhon etilishidan, shaharlarni vayron qilinishidan saqlash kabilar kasod bo'lgan xo'jalikni qayta tiklash va rivojlantirish uchun zarur edi. Ikkinchi yo'nalish vakillari ushbu dasturlarni bajarmaslik o'zing o'tirgan shohni arralash bilan teng ekanligini tushunganlar, chunki har qanday talonchilik qishloq-xo'jaligi, savdo, hunarmandchilik va shaharlardan tushadigan yillik tizimli daromadlarga yetmagan.

Ikkinchi yo'nalishning yorqin tarafdorlari sifatida 1251-yilda hokimiyatga kelgan Munqa xoqon va birinchi hukmdor Mahmud Yalovochning o'g'li Mas'udbekni ko'rish mumkin. Tarixchilar tomonidan yozma manbalarda saqlanib qolgan Munqa-xoqon faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga jiddiy e'tibor berilmagan, uning harakatlari faqatgina mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaliklariga qarshi chora sifatidagina baholangan. Munqa xoqon tomonidan chiqarilgan farmonlarning mazmunini numizmatik ma'lumotlar bilan solishtirma tahlil qilish orqali uning tadbirlari shunchaki chala, oxirigacha yetkazilmay qolgan ishlar emas, balki aniq bir maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirilgan va O'rta Osiyoda qisman hayotga tadbiiq ham etilgan.

Munqa-xoqon hukmronlik davrida qat'iy belgilangan

jon solig'i mavjud bo'lgan, O'rta Osiyoning ko'plab shaharlarida bir xil probali oltin dinorlarni doimiy zarb qilish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Mo'g'ullardan keyingi vayron etilgan xo'jalik hayoti sharoitida oliy probali oltin tangalar ancha yirik hisoblanib, ichki savdo ayirboshlashiga va asosiy mahsulotlarga nisbatan bo'lgan narxlarga muvofiq kelmasdi. Oltin dinorlar umumdavlat muomala vositasiga aylanishi va bu bilan pul savdosining tiklanishi va rivojlanishiga muvofiq kelishi uchun ushbu oltin pullarning sifati past bo'lishi kerak edi (tarkibida sof oltin 60%ni tashkil etgan) Shu yo'l bilan mahsulot va pulni muvofiqlashtirishga urinilgan.

Boshqa tadbirlar Rashid ud-din tomonidan yorqin tasvirlangan: *«Guyukxon (vafoti)dan keyin ko'plab xonlar va shahzodalar odamlarga sonsiz yorliqlar bera boshlaganlar, mamlakatning u boshidan bu boshigacha choparlarni jo'natganlar va kambag'alu boy, hammaga, ular savdo munosabatlarini olib borishlari sababidan ushbu yorliqlarni berganlar. Endi Munqa xoqon yuqoridagi odamlarga nisbatan farmon chiqardi, ular Chingizxon, O'qtoy – xoqon, Guyuk – xoqon davridagi barcha yorliqlarni to'plasinlar va endi shahzoda va mahalliy hukmdorlar oliy xoqon noibining ruxsatisiz hech kimga yorliqlarni bermasinlar. 14 ta yomdan oshuvchi safarlarga chiqmasinlar, aholidan soliq tarzida otlarni olib qo'ymasinlar»*. O'qtoyning davrida elchilarning Mo'g'uliston viloyatlariga aloqa xizmati⁵ otlarida borishlari urfga aylangan, Munqa xoqon buni bekor qilgan, chunki savdogarlar pul ishlash uchun boradilar, shunday ekan nima uchun ular ushbu xizmat otlaridan foydalanishlari kerak va ularning o'z otlarida safarga chiqishlariga farmon berdi. Shuningdek, choparlarga hech qanday qishloq va

⁵ Aloqa xizmati otlatri – qadimgi vaqtlarda: yo'lda horigan otlarni almashtirish uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan otlar.

shaharlarga kirmaslikka buyruq berdi, o'zlarining zimmasiga yuklatilganidan ortig'ini olmasliklariga buyruq berdi.

Eski, ancha og'ir va tartibga solinmagan soliqlar hamda o'lponlar bekor qilingan. Xususan, Munqa xoqon Chingizxon vafotidan chiqarilgan barcha yorliq va payzalarni bekor qilgan. U shuningdek, choparlarga aholining otlarini foydalanish uchun olishni ta'qiqlab, ular uchun qancha otdan foydalanish mumkinligi to'g'risidagi normalarni belgilab bergan. Xususiy shaxslarga umuman davlat otlaridan foydalanish ta'qiqlangan. Munqa-xoqon shahar va qishloqlarga bostirib kirib, keragidan ortiqcha soliqlar yig'ishni ta'qiqlab qo'ygan. Yana bir narsa qiziqi, Munqa-xoqon davrida farmonlar kimga mo'ljallangan bo'lsa, o'sha xalqlarning tilida yozilgan. Bosib olingan hududlar aholisi bilan hisoblashmaydigan mo'g'ullar uchun bu uzoq ishni ko'zlab qilingan siyosat edi.

Shunday qilib, Munqa xoqon tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar birinchi o'rinda soliqlarning aniq miqdorini qat'iy ishlab chiqish va amal qilishini ta'minlash, o'zboshimcha va betartib soliq va o'lponlardan aholini himoya qilib, shahar hayoti va savdoni faol yo'lga qo'yishga qaratilgan. Shunday qonunlarning qabul qilinishining o'zi XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, ikkinchi yo'nalish vakillarining ancha muvaffaqiyat qozonganliklarini ko'rsatadi. Ularning asosiy tashabbuskorlari va hayotga tadbiq etuvchilaridan biri so'zsiz Mas'udbek hisoblanadi, unga Munqa xoqon davrida Uyg'uristondan boshlab G'arbda Xorazmgacha cho'zilgan katta hudud bo'ysingan.

Eronda jon solig'ining joriy etilishi aholiga katta yengillik olib kelmadi, chunki amaldorlar va mo'g'ullar tomonidan katta su'iste'molliklarga yo'l qo'yilgan. O'rta Osiyoda esa soliqlarning qonuniylashtirilishi va ayrim

o'zboshimcha soliqlarning tugatilishi iqtisodiyotni tiklanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shahar hayoti va pul munosabatlari sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Oltin tangalar pul savdosini ancha kuchaytirib yuborgan. Pul munosabatlari asosini butun tangalar emas, balki vaziga qarab baholanuvchi ularning bo'laklari va qismlari tashkil etgan. Tangalarning probasining pastligini hisobga olsak, ular butun mamlakatning barcha hududlarida asosiy muomala vositasiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu umumdavlat pullaridan tashqari ayrim shaharlarda kumush yurgizilgan mis tangalar ham zarb qilingan. Bu yerda O'tror, Xo'jand, Farg'ona shaharlarida, umuman mamlakatning shimoliy-sharqida kechgan faol savdo-iqtisodiy munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Ushbu mintaqalarda bevosita yuksalish jarayoni kechgan. Keyinroq, XIII asrning oxirgi choragida ma'lum darajada gullab yashanagan, lekin Yettisuvda bu paytda ham shaharlarning xarobalari va yaylovlarning ustunligi ko'zga tashlanar edi.

XIII asrning 70- yillarida Mas'udbek tomonidan tub pul islohotlari amalga oshirilgan. Bu holat ikkinchi yo'nalish tarafdorlarining ancha ahmiyatli va ko'lamli g'alabalari natijasida yuzaga kelgan. Islohotga 1271- yilda kirishilgan bo'lsa-da, uning asosiy natijalariga XIII asrning oxirgi ikki o'n yilligida erishilgan.

Ushbu islohotning asosiy mazmunini O'rta Osiyoning shahar va viloyatlarida bir xil vazn va probadagi haqiqiy kumush tangalarni zarb etishning yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Bunday tangalar zarb qilingan yeridan qat'iy nazar mamlakatning butun hududida muomalada bo'lgan. Bu pul savdosida deyarli tom ma'nodagi inqilob edi. Kumush tangalar o'rta asrlar O'rta Osiyosining savdosi va narxlari darajasiga muvofiq kelgan. Ammo, ikki yarim asr

mobaynida O'rta Osiyoda barqaror tarzda kumush tangalar zarb qilinmagan, mo'g'ullar bosqini davri esa kumush bilan yuzaga kelgan tanglikni hal qilmasdan, balki yanada chuqurlashtirib yuborgan.

Bir necha bor kumush tangalarni zarb qilishga harakat qilingan bo'lsa-da, bu harakatlar muvaffaqiyat qozona olmagan. Mas'udbekning islohoti esa to'liq muvaffaqiyat qozongan. Bu esa islohotning chuqur tayyorgarlik bilan amalga oshirilganligidan va o'z vaqtida o'tkazilganligidan dalolat beradi.

Kumush tangalarni zarb qilish erkin bo'lgan. Har qanday xususiy shaxs zarbxonaga o'z kumushlarini olib kelib, ularni muayyan bir to'lov evaziga kumush pullarga aylantirish mumkin bo'lgan. Islohotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aynan shu jarayonga bog'liq bo'lgan. Ya'ni, erkin zarb qilishni yo'lga qo'yish amalga osharmikin? Kumush egalari o'z mahsulotlarini tangaga aylantirish uchun ushbu zarbxonalarga borarmikinlar?,- degan savollarning ijobiy javobi aynan islohotlarning ham muvaffaqiyatini belgilab bergan. Ishonchning qat'iy emasligining bir necha sabablari bo'lgan. Mo'g'ullar tomonidan o'zboshimchalik, talonchilik va zo'rliklar qilinmasligi kafolatlanishi, hukumat yana o'z foydasiga qandaydir qalloblikni o'ylab topmaganligiga ishonch kerak edi. Islohotlarning amalga oshirilish xususiyati shuni ko'rsatadiki, ushbu ishonchsizlik birdaniga va hamma hududlarda bir vaqtda yo'q qilinmagan, balki sekin-asta yo'qolib borgan.

Mas'udbek tomonidan mamlakatning barcha hududida kumush tangalarni zarb etishni yo'lga qo'yishga maxsus harakat qilingan bo'lsa-da, bunga u osonlikcha erishmagan.

XIII asrning 70- yillarida faqatgina oz miqdordagi zarbxonalar faoliyat ko'rsatganlar va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'p bo'lmagan. Faqatgina XIII

asrning 80–90- yillariga kelib, kumush tangalarni zarb qilish haqiqatda ommaviy tus olgan, zarbxonalar 16 ta shahar va viloyatlarda ochilgan. Shuningdek, aholining ishonchini qozonishga ham muvaffaq bo‘lingan. Bu esa o‘zboshimchalik hamda talonchiliklardan nisbatan aholi kafolatlangan. shahar hayoti va savdoni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo‘lgan, deb xulosa qilish mumkin.

1269- yili islohotlar boshlanishiga oz fursatlar qolganda Talas daryosi qirg‘oqlarida qurultoy bo‘lib o‘tgan va unda mo‘g‘ul shahzodalari tog‘ va dashtlarda yashash, ekinzorlarni toptamaslik va belgilangan soliq va o‘lponlar bilan cheklanish majburiyatini olganlar. Ushbu majburiyatlar ma'lum darajada ado etilgan, chunki aks holatda Mas'udbekning islohotlari muvaffaqiyat qozona olmagan bo‘lar edi. 1269- yildagi qurultoyning qarori va islohotlarning o‘tkazilishi – bu bir-biriga bog‘liq ish bo‘lib, qurultoy islohotlar o‘tkazilishini huquqiy kafolatlagan.

Albatta, ikki oqim o‘rtasidagi kurash davom etgan, shu sababdan ikkinchi fikr tarafdorlarining g‘alabasi qat’iy bo‘lmagan. Bunga Buxoroni misol keltirish mumkin. 1269- yildagi qurultoydan keyin pul islohotlari o‘tkazilgan paytda Buxoroga Xulaguy va chig‘atoy shahzodalar bir necha bor hujum qilganlar va shahar 1273, 1276- yillarda butunlay vayron qilingan, natijada 7 yil davomida butun bir shahar aholisiz huvillab qolgan. Buxoro vohasida XIV asrning birinchi yarmida ko‘plab payhon qilingan hamda egalari tomonidan tashlab ketilgan, qaralmagan uzumzorlar va bog‘-rog‘lar ko‘plab topilgan. Bu yerda yana Mas'udbekning Buxoroni odamlar bilan to‘ldirish va qayta tiklash bo‘yicha samarali harakatlariga e’tibor qaratish lozim. 1282–1283- yillarda hattoki Buxoroda ham doimiy kumush tangalarni zarb qilish yo‘lga qo‘yilgan, bu esa bu yerda shaharning

yana avvalgi hayot tarziga qaytganligidan va unda savdo-sotiq gullab-yashnaganligidan guvohlik beradi. Yana boshqa bir ma'lumot kishi diqqat e'tiborini tortadi: Tuvaxon tomonidan Farg'onadagi Andijon shahri qayta tiklangan (1282–1306- yy.) va tezda yana savdo-sotiq markaziga aylanib borgan.

Shunday qilib, XIII asrning oxirlariga kelib, pul savdosi ancha taraqqiy etgan va bu shaharlarning qayta tiklanganligi hamda ularda mahsulot ishlab-chiqarishning rivojlanganligida namoyon bo'lgan. Bizning taxminimizcha, O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy viloyatlari Yettisuv (Taroz, Kanj, O'tror va boshqalar ko'plab tangalar zarb qilingan), Farg'ona va Shosh vohasi boshqalarga qaraganda ancha yaxshiroq ahvolda bo'lgan bo'lishlari mumkin. Movarounnahrda shaharlarning tiklanish jarayoni ancha sekin davom etgan, lekin shunday bo'lsa-da, XIII asrning oxirgi o'n yilliklari – XIV asrning boshlarida ancha katta muvaffaqiyatlar ko'zga tashlanadi.

XIV asr boshlarida O'rta Osiyo qishloq xo'jaligining holati to'g'risida ma'lumotlar deyarli mavjud emas. 1299 yilgi vaqf yorlig'i ma'lumotiga ko'ra, vaqf egasi Buxorodan uncha uzoq bo'lmagan yerda boy sug'oriladigan yerlari bilan butun bir qishloqni sotib olganligi, yana bir manzilgoh, ikki masjid, ishchilarga yaxshi turar joylar, tegirmon va bir necha to'qimachilik ustaxonalari qurganligi haqida aytilgan. Buxoro mintaqasida hayotga xavf mavjud bo'lmagandigina, o'troq hayot gullab-yashnagan taqdirdagina yuqoridagi ishlarga qo'rqmasdan qo'l urish mumkin. Agar, aksincha holat mavjud bo'lganda, vaqf egasi bunchalik tavakkalchilikka bormagan bo'lar edi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, 1269- yilgi qurultoyda qabul qilingan qarorlar nafaqat shahar hayotini balki, qishloq hayotini tartibga solishga, rivojlantirishga ham asos yaratgan.

Albatta, XIV asrning boshlarida hali oqibatlar to'liq tugatilmagan bo'lib, xo'jalik hali mo'g'ullargacha bo'lgan davr darajasida ham emas edi, ekspluatatsiya shakllari va og'ir soliq tizimi xo'jalikni tiklanishini orqaga surar va rivojlanishini tez sur'atlarda amalga oshishiga yo'l qo'ymas edi. Mo'g'ul zulmi O'rta Osiyo xalqlari uchun hech narsaga qiyoslab bo'lmaydigan bir fojea bo'lgan. Ushbu numizmatik manbalar faqatgina birinchi navbatda shahar hayoti va savdoning tiklanish jarayoni va ma'lum darajadagi taraqqiyotini ko'rsatib beradi. Va ular O'rta Osiyoda shaharlarni rivojlantirishi va ichki savdoni kuchaytirishga aniq imkoniyatlar faqatgina Kebekxonning (1318–1326) islohotlaridan keyin amalga oshgan, aynan Kebekxon pul sohasidagi boshboshdoqlikni tugatgan, degan g'oyaga zarba bergan.

Kebek o'z qarorgohini to'liq Movarounnahrga ko'chirgan birinchi mo'g'ul hukmdori bo'lgan. Kebek islom dini qabul qilmasdan o'zining avvalgi dinida qolgan, lekin shunga qaramasdan u musulmon fiqhshunoslari diniy mavzularda ko'plab suhbatlar uyushtirib turgan. Uning ayrim holatlarda mo'g'ullarning O'rta Osiyo o'troq aholisini ta'qib qilishini qoralash holatlari to'g'risidagi ma'lumotlari uchraydi. U Nasaf yaqinida o'ziga qarorgoh – saroy qurgan va u keyinchalik butun bir shaharga aylanib, Qarshi nomini olgan.

Kebek tomonidan pul va ma'muriy islohotlar o'tkazilganligi qayd etilgan. Kebekxonning pul islohotlari M. Ye. Masson tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ushbu islohotlar Xulagular va Oltin O'rda davlatining pul tizimlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda 1321-yilda amalga oshirilgan. 8 gr.li yirik kumush tanga – dinor deb atalgan va 6 ta mayda dirhamga teng bo'lgan. Dastlabki yillarda Kebekxon nomi zikr etilgan ushbu tangalar (ayniqsa

dirhamlar) juda ko'plab ishlab chiqarilgan, ularning katta qismi Samarqand va Buxoroda zarb qilingan. Ushbu ikki qiymatdagi tangalarni zarb qilish ishlari boshqa hukmdorlar tomonidan ham davom ettirilgan. Tarmashirin tomonidan ham ko'plab kumush tangalar ishlab chiqarilgan, uning zamonida O'tror tanga zarbxonasi mamlakatning asosiy pul ishlab chiqaruvchi korxonasiga aylangan. Keyinchalik zarb qilinayotgan tangalarning soni ancha kamaytirilgan.

Kebek islohotlarining ahamiyati ko'plab tarixchilar tomonidan ancha oshirib yuborilgan. Ushbu islohotlar Mas'udbekning islohotlari kabi tangachilikda tub o'zgarishlarga olib kelmagan. Lekin, ushbu islohotlar ham ichki, ham tashqi savdoning taraqqiyoti uchun yanada keng imkoniyatlarni ochgan. Uning amalga oshirilishi va isloh qilingan zarbchilikning butun holati shaharlar va pul munosabatlarining rivojlanishi davom etganligidan guvohlik beradi. Ammo, ushbu jarayon O'rta Osiyoning barcha viloyatlarida bir xil darajada kechmagan.

XIV asrga kelib, o'troq aholiga nisbatan qarashlari bilan farqlanuvchi ikki oqim o'rtasidagi kurash ancha kuchayib ketgan. Masalan, Kebekning isyon ko'targan Chig'atoy shahzodasi Yasovurga qarshi kurash olib borishiga to'g'ri kelgan. Ushbu shahzoda Xuroson amirlarining qo'shini yordami bilan Kebek ustidan g'alaba qozongan. Bundan keyin, manbalarning xabar berishicha: *«Yasovur Termizdan Samarqand chegaralarigacha bo'lgan viloyatlar va qishloqlar aholisini ko'chirib ketdi, Kebekning hukmronligi ostida bo'lgan shahar va qishloqlarni vayron qildi, odamlarni esa asir oldi»*. Faqatgina Xuroson amirlarining o'zlarigina 50 mingdan ziyod kishini asir sifatida olib ketganlar va boy o'ljaga ega bo'lganlar. Kebek Yasovurning Xurosondagi mulklariga javob hujumini qilmoqchi bo'lganida, Yasovur Farob va Murg'ob aholisiga Hirot

viloyatiga ko'chishlarini buyurgan. Ushbu ko'chish paytida ochilikdan va sovuqdan o'n minglab insonlar halok bo'ldilar. 1316–1319- yillarda Yasovurning isyoni bilan bog'liq bo'lgan kichik urushlar O'rta Osiyo xalqlariga ulkan zarbalar bergan.

Kebekning merosxo'ri – uning inisi Tarmashirin (1326–1334) akasining siyosatini davom ettirgan. U o'troq hayot an'alariga yanada moyilroq bo'lib, islom dinini qabul qilgan va uni Chig'atoy davlatining davlat dini darajasiga ko'targan. Bu ko'chmanchi urug' boshliqlarining isyoniga olib kelib, natijada Tarmashirin o'ldirilgan.

O'zaro urushlar Yettisuvning shahar hayoti va dehqonchilik xo'jaligiga qattiq o'nlab bo'lmaydigan zarba bergan.

O'zaro feodal urushlar ilg'or islohotlarni o'tkazishga imkon bermagan va ularning oqibatlarini yo'qqa chiqargan. XIV asrning 40 yillarida Qozonxon Kebek va Tarmashirin izlaridan borib, xon hokimiyatni mustahkamlashga urinib ko'rgan. U Qarshidan ikki chaqirim masofada o'zining ko'chmanchilarga qarshi kurashida tayanch vazifasini o'tagan Zanjirsaroyini qurgan. U 1346- yildagi jangda halok bo'lgan. Uning o'rniga hokimiyatga kelgan amir Qozog'on ko'chmanchi an'analarga ancha sodiq va ularning homiysi hisoblangan. U qishda Saroy vodiysida yashagan bo'lsa, yozda Munqa xoqon qurgan shaharda yashagan. Ko'p vaqtini ov qilish bilan o'tkazgan. Uning o'g'li Abdulloh 1358- yilda o'troq oqsuyaklarning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosatni amalga oshirishga harakat qilib ko'rgan va oqibatda hokimiyatdan quvilgan. XIV asrning 50-yillarda Chig'atoy davlati taxminan o'n beshga yaqin mayda mulklarga bo'linib ketgan. Ularning ayrimlarini ko'chmanchi urug' boshliqlari boshqargan bo'lsalar, ayrimlari mahalliy o'troq aslzodalarga va dindorlarga

qarashli bo'lgan. Chig'atoy davlati ikkiga ham ajralib ketgan. Uning shimoliy-sharqiy viloyatlari Mo'g'uliston deb nomlana boshlagan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Chig'atoy, Mahmud Yalavoch, Ma'sudbek, Kebekxon, Tarmashirin, dinor, fuls, kepaki.

Mavzuga oid savollar:

1. Movarounnahr mo'g'ullar tomonidan bosib olingach, tangalarda qanday o'zgarishlar ro'y bergan?
2. Ma'sudbekning pul islohotlarining qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
3. Kebekxon nima sababdan pul islohoti o'tkazgan?
4. Mo'g'ullar davridagi tovar-pul munosabatlari to'g'risida qaysi tarixiy manbalar xabar beradi?
5. Tarmashirin hukmdorligi davrida tangashunoslikda qanday o'zgarishlar bo'lgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Ma'sudbek tomonidan pul islohotlari qachondan boshlangan?
 - a) 1274- yil
 - b) 1273- yil
 - s) 1271- yil
 - d) 1269- yil
2. Ma'sudbek pul islohotlariga aloqador bo'lmagan javobni toping.
 - a) kumush tangalarni zarb qilish erkin bo'lgan
 - b) islohotlar 1271- yil boshlangan
 - s) O'rta Osiyoda bir xil vazndagi kumush tangalar zarblangan
 - d) sof oltindan 4 grammlik tangalar zarblangan

3. 1282–1283- yillarida Movarounnahrning qaysi shaharida doimiy kumush tangalar zarb qilish yo‘lga qo‘yilgan

- a) Samarqand
- b) Buxoro
- s) Urganch
- d) Shosh

4. Kebekxon pul islohotiga taalluqli bo‘lmagan javobni toping.

- a) ushbu islohotlarda Xulogular va Oltin O‘rda davlatining pul tizimlarini hisobga olingan
- b) islohotlar 1321- yil amalga oshirilgan
- s) tangalar faqat Buxoroda zarblangan
- d) tangalar 8 gramm og‘irlikdagi kumushdan iborat bo‘lgan

5. Mo‘g‘ullar davrida zarbxonalar soni qanchaga yetdi?

- a) 15 taga
- b) 16 taga
- s) 20 taga
- d) 22 taga

Mavzu № 7. TEMURIYLAR DAVRI TANGALARI

Reja:

1. Amir Temur davrida pul munosabatlari.
2. Dastlabki temuriylar tomonidan zarb etilgan tangalar.
3. Ulug'bekning pul islohotlari va ularning O'rta Osiyo pul munosabatlari rivojidadagi ahamiyati.
4. So'nggi temuriylar davri tangalari.

Amir Temur Movarounnahr ustidan 35 yil hukmronlik qilgan. Bir necha bor qilingan bosqinchilik yurishlari natijasida u ulkan imperiyani qurishga muvaffaq bo'lgan va ushbu imperiya o'z ichiga Markaziy Osiyo davlatlarini, Afg'oniston, Eron, Hindistonning bir qismi va Kavkazortini olgan.

Temur va temuriylar davri Musulmon Sharqi tarixi sharqshunoslarining alohida e'tiborini tortib keladi. Ko'plab monografiya va maqolalarda ushbu davrning turli tarixiy, madaniy masalalari ochib berilgan. 1983 yilga kelibgina, XV asrda ahamiyati ancha oshib ketgan va chakana savdoda ishlatilgan mis tangalar tadqiq etilgan birinchi monografiya yuzaga kelgan.

Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini ikki davrga bo'lish mumkin:

Birinchi davr (1370–1386- yy.). Ushbu davrda Amir Temur tomonidan feodal urushlarga chek qo'yilgan va Movarounnahr yagona davlatga birlashtirilgan. Shuningdek, u Xorazmni qo'shib olish uchun Hasan va Yusuf So'fiyga qarshi kupash olib borgan. Birinchi davrda Amir Temur asosan mahalliy feodallarga qarshi kurash olib borgan bo'lib, ushbu kurashning maqsadi yagona va kuchli markazlashgan davlatni qurishdan iborat bo'lgan.

Ikkinchi davrda (1386–1404- yy.) esa Amir Temur tomonidan Eron, Iroq, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, Kavkazorti, Misr, Turkiya va Oltin O'rdaga yurishlar uyushtirilgan. Ushbu yurishlarning natijasida u Osiyoning katta qismi va Kavkazortini o'z ichiga oluvchi ulkan imperiyani qurishga muvaffaq bo'lgan.

Amir Temur to'g'ridan to'g'ri Chingizxonning avlodi bo'lmaganligi sababli o'zini xon deb e'lon qila olmasdan, «amir» unvonini qabul olgan. 1372–1388- yillarda u nomigagina qo'yilgan xon – Suyurg'atmishxon nomidan ish olib borgan, uning vafotidan keyin esa o'g'li Mahmudxon nomidan ish ko'rgan. Tangalarda u o'z ismini ushbu xonlarning ismlari yonida joylashtirgan. Hattoki, Mahmudxonning vafotidan (1402- yil) keyin ham Amir Temur uning nomidan tangalarni chiqarishda davom etgan. Chunki, Mahmudxonning vafotidan keyin hech kim xon lavozimiga saylanmagan.

Tangalar asosan ikki qiymatda zarb qilingan: yirik kumushdan yasalgan 6 grammlı pullar tanga deb atalgan, tangalarning chorak qismi 1,5 gr.ni tashkil etgan «miri»larga bo'lingan. Ushbu atama bevosita Amir Temurning unvonidan kelib chiqqan.

Yuqorida qayd etilgan ikki qiymatdagi tangalardan tashqari yana chakana savdoda ms tangalardan ham foydalanilgan. Ular Amir Temur nomi bilan chiqarilgan.

Tangalar 40 ga yaqin quyidagi shaharlarda zarb qilingan: Astrobod, Astara, Boku, Basra, Bag'dod, Hirot, Bomiyon, Darband, Yazd, Isfaxon, Kermon, Kushon, Kumi, Mardin, Mahmudobod, Mashhad, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Shebankara, Sheroz, Shayx Abu Is'hoq va h.k.

Ushbu tangalar nafaqat Amir Temur va temuriylar davlatining o'zida, balki Osiyoga qo'shni davlatlarda ham

savdo-sotiq munosabatlarida foydalanilgan. Ushbu tangalarni tadqiq etish temuriylar davri siyosiy-ijtimoiy, pul munosabatlari, shuningdek, ushbu davr madaniyati va san'ati tarixini o'rganishda katta o'ringa ega bo'lgan.

Shuningdek, Amir Temur tangalarida tasvirlangan, uning gerbini ifodalagan uchta dumaloqqa ham e'tibor berish lozim. Ispaniya qirolining elchisi R. gr. Klavixoning ma'lumot berishicha, ushbu belgi Amir Temurning uch qita hukmdori bo'lganligini ifodalagan. Amir Temur davri tangalari o'zining geometrik aniq o'lchamlari va ajoyib shakllarga egaliklari bilan ajralib turadi.

Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyotidagi hissasi beqiyosdir. Uning davrida Samarqand, Buxoro va Shahrisabz kabi qadimiy ko'plab arxitektura yodgorliklari qad rostlagan.

1991- yil 1- sentyabrda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, respublikaning iqtisodiy va siyosiy suverenitetini mustahkamlash uchun uning milliy valyutasi muomalaga chiqarilgan. 1996- yilda Amir Temur yubileyiga bag'ishlab 10 va 100 so'm qiymatidagi tilla suvi yuritilgan va kumush tangalar zarb qilingan. 1997- yilda Amir Temur tug'ilgan yilining 660 yilligiga bag'ishlab 99,99 probali oltindan 100 so'mlik pullar zarb qilingan.

Amir Temurning to'rtta o'g'li bo'lgan. Ularning eng kattasi Jahongir Mirzo otasining tirikligidayoq 1376- yilda halok bo'lgan. Ikkinchi o'g'li Umarshayx mirzo (Fors hukmdori) 1394- yilda Qurdistonda o'ldirilgan. Uchinchi o'g'li Mironshoh mirzo 1366- yilda tug'ilgan va 14 yoshidan boshlab Amir Temurning Xurosondagi yurishlarida birga ishtirok etgan. U Tabriz yaqinida Qora Yusufning qo'shinlari bilan jangda halok bo'lgan. To'rtinchi o'g'li Shohruh mirzo 1387- yilda tug'ilgan va 1396- yilda u Xuroson hukmdori etib tayinlangan.

Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton amir Temurning eng suyakli nabiralaridan bo'lgan. O'limidan keyingi o'zining merosxo'ri sifatida Amir Temur uni e'lon qilgan.

Muhammad Sulton 1374- yilda tug'ilgan bo'lib, 24 yoshida 40 minglik qo'shin qo'mondoni bo'lgan. 1399- yilda Amir Temurning Hindistonga yurishi paytida u Samarqand hukmdori etib tayinlangan. 1401–1402- yillarda Muhammad Sulton bobosining Eron va Turkiyaga qilgan yurishida birga ishtirok etgan. Qaytganidan keyin u kutilmaganda xastalikka chalingan va 1403- yilda vafot etgan. U Samarqandga dafn etilgan.

Amir Temur o'z nabirasining kutilmagan o'limidan qattiq aziyat chekkan. Muhammad Sultonning nomini tarixda qoldirish maqsadida Amir Temur uning nomidan tangalar zarb qilgan.

Ushbu tangalarning old tomonida Qur'on oyatlaridan namunalar keltirilgan, uning atrofiga esa to'rtta xalifaning ismlari bitilgan. Shuningdek, ushbu tangalarda zarb qilingan vaqti va joyi ham ko'rsatilgan.

Muhammad Sultonning o'limidan keyin Amir Temur Mironshoh Mirzoning o'g'li Xalil Sultonni merosxo'r deb e'lon qilgan. Xalil Sulton 1384- yilda tug'ilgan. U Amir Temurning rafiqasi Saroymulk xonim tomonidan tarbiyalangan. 15 yoshidan boshlab u o'z bobosining harbiy yurishlarida ishtirok eta boshlagan. Amir Temur o'zining 1404- yilda Xitoyga qilgan oxirgi yurishida Xalil Sultonni o'z qo'shinining o'ng qanot qo'mondoni etib tayinlagan.

Amir Temurning vafotidan keyin Xalil Sulton Samarqand hukmdori deb e'lon qilingan. Muhammad Sultonning o'g'li Muhammad Jahongir soxta xon vazifasini bajargan.

O'zining hukmronligi davrida Xalil Sulton kumush va

mis tangalarni zarb qilgan. Ushbu tangalarda u Muhammad Sul-ton ismini «xon» unvonisiz zarb qilgan.

Amir Temurning vafotidan keyin uning merosxo'rlari o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlangan. Ushbu kurashda Amir Temurning o'g'li Shohruh g'alaba qozongan. 1409- yilda Samarqandni egallaganidan keyin u o'g'li Ulug'bek Mirzoni Samarqand hukmdori deb e'lon qilgan. Shuningdek, u Xalil Sul-tonni Ray noibi deb e'lon qilgan.

Muhammad Sul-tonning o'g'li Muhammad Jahongir Histori Shodmon viloyatining noibi deb e'lon qilingan. Shunday qilib, Hirotda tug'ilgan Shohruh Xuroson va Movarounnahr ustidan 50 yil hukmronlik qilgan.

Movarounnahr va Xurosonning oliy hukmdori sifatida Shohruh tomonidan barcha yirik shaharlarda (Astrobod, Buxoro, Damg'on, Isfaxon, Kushon, Kermon, Qum, Nishopur, Marv, Samarqand, Sabzavor, Sul-toniya, Tabriz, Xorazm, Hirot, Sheroz va h.k.) zarblangan tangalarning old tomonida Qur'on oyatlaridan namunalar va uning chetlarida to'rt xalifaning ismlari bitilgan. Tangalarning orqa tomonida esa zarb qilingan joyi hamda vaqti qayd etilgan.

Mirzo Ulug'bek 1394- yilning 22 martida Eronning g'arbidagi Sul-toniya shahrida tug'ilgan bo'lib, onasi Chig'atoy amirlaridan bo'lgan G'iyosiddin Tarag'ayning qizi edi. Ulug'bekning haqiqiy ismi Muhamad Tarag'ay bo'lib, u Samarqandni butun dunyo olimlarining qarorgohiga aylantira olgan. 1409- yilning dekabrda u Samarqand hukmdoriga aylangan. Movarounnahr ustidan 40 yil hukmronlik qilgan Ulug'bek (1409–1449) o'zining ilmiy ishlari bilan mashhur bo'lgan.

Ulug'bek davrida Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda zarblangan kumush tangalarda otasi Shohruh nomi bitilgan. Ulug'bek o'z nomidan tangalarni faqatgina otasi vafot etganidan keyin, 1447- yildan boshlab zarb qila

boshlagan. U Samarqand va Hirotidan o'z nomidagi tangalarni faqatgina ikki yilu yetti oy mobaynida chiqara olgan. Shu sababdan Ulug'bek nomi bilan chiqarilgan tangalar noyob hisoblanadi.

Shohruhning tangalarida Amir Temurning ismi zikr etilmagan. Ulug'bekning tangalarida esa Amir Temurning gerbi va ismi qayd qilingan.

Savdo-sotiq ishlarini yaxshilash va miss tangalarini takomillashtirish maqsadida Ulug'bek tomonidan 1428-1429- yili pul islohoti o'tkazilgan. Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohotlari to'g'risida bugungacha ma'lum yozma manbalarda deyarli hech qanday ma'lumotlar uchramaydi. Shu sababdan ushbu ma'lumot sharqshunoslar tomonidan umuman yoritilmasdan qolib ketgan. Faqatgina mis tangalarini tadqiq etishgina XV asr O'rta Osiyo iqtisodiy hayotining bizga noma'lum jihatlarini ochish va Ulug'bekning davlat arbobi sifatidagi faoliyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning manbasi sifatida, asosan Ulug'bek tomonidan zarb qilingan mis tangalardan tashkil topgan 17 ta xazinani olish mumkin. Xazinada topilgan tangalarning tarkibi va topografiyasini o'rganish orqali islohotlarning amalga oshirilishi sababchi omillari, ularni amalga oshirish mazmuni va bosqichlari haqida tushunchalarga ega bo'lish mumkin. Xazinalar tarkibidagi tangalarda ko'plab ko'rsatkichlar mavjud bo'lsa-da, asosan, statistik va turlarga bo'lishga oid ma'lumotlarga e'tibor qaratildi. Bunda barcha topilgan tangalar ham har tomonlama o'rganilmaganligiga e'tibor qaratish lozim.

Shunisi ahamiyatga molikki, 17 xazinadan 8 tasi markaziy Movarounnahr hududidagi turli tarixiy viloyatlardan topilgan, to'qqiztasi esa Hisor mintaqasida topilgan. Bunday topografik joylashuv, ya'ni ahamiyatsiz

narsalarning ahamiyatini bo'rttirib yuborishni oldini olish mumkin deya ta'kidlashga imkon beradi.

Xazinalar tangalarning turiga va ulardagi zarb usuliga qarab uch turga bo'linadi. Ushbu guruhlar xronologik omil asosida bo'lingan. Ushbu guruhlarning ichida esa tangalar bir-biridan faqatgina go'yoki bir asarning bir necha nashrlari va tahrirlari kabi mayda narsalari bilangina farqlanadi. Bir bosqichda shakllangan xazinalar, bir xil yoki o'xshash sharoitlarda muomaladan chiqib ketgan bo'lishi mumkin va ular o'zining tarkibiga ko'ra bir-biriga yaqin hisoblanadi. Eng katta o'ziga xosliklarga O'sh shahridan topilgan 12-xazinani misol keltirish mumkin. Lekin uning yorqin individualligi ham umumiy belgilarni zarracha yo'q qila olmaydi.

Hijriy 823- yilga oid tangalar 1- xazinaning asosini tashkil etgan. Boshqa xazinalarda ular umuman mavjud emas, ular yagona nusxa hisoblanadi. Hijriy 832- yil tangalari – ularning o'lchamlarining har xilligi, tarkibining o'ziga xosligi va turli davrlarda shakllanganligiga qaramasdan boshqa 9 ta xazinaning asosini tashkil etgan. Hattoki ancha o'ziga xos hisoblangan O'sh xazinasining (№12) tarkibida ham hijriy 832- yili zarb qilingan tangalar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Adabiyotlarda bir necha bor yoki barcha XV asrga oid tangalarning, yoki hijriy 832- yilga oid tangalarning bir necha seriyada zarb qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Tangalarni seriyali tarzda zarb qilinganligi to'g'risida XV asrga tegishli bo'lgan yoki hijriy 832- yilda zarb qilingan tangalarning barchasi emas, balki hijriy 832- yilga oid Buxoro tangalarigina guvohlik beradi. Gap shundaki, ushbu tangalar XV asrga oid ko'plab mahsulotlar ichida muhim ahamiyat kasb etgan. Ular turli davrlarga oid xazinalarning asosini tashkil etgan. 832/1428–29- yilda mis tangalar ko'plab

boshqa shaharlarda ham ishlab chiqarilgan, lekin ularning birortasi son jihatidan Buxoro tangalari bilan raqobatlasha olmaydi. Ayrim xazinalar faqatgina hijriy 832- yilda zarb qilingan Buxoro tangalaridan iborat bo'lsa, boshqalarida ushbu tangalar o'n, yuz martagacha ustunlik qiladi. 2–10-xazinalarda mavjud bo'lgan 1768 ta tangalarning 1712 tasi (ya'ni 97%ga yaqini) Buxoro tangalarini tashkil etadi, boshqa tangalar esa bor yo'g'i 56 tadan iborat (3%ni tashkil etadi).

Boshqa xazinalarda ham hijriy 832- yilga oid Buxoro tangalarining ustunlik qilishi ko'zga tashlanadi. Ushbu tangalar Movarounnahr hududida ko'pincha alohida topilmalar holda ham uchrab turadi. Shuningdek, Buxoro zarbxonasining keyingi yillarda chiqargan mahsulotlari ham hijriy 832- yildagidek ko'p emas. Shu sababdan ushbu 832/1428–1429- yil qayd etilgan tangalar yozuvlarini o'zgartirmagan holda keyingi yillarda ham zarb qilingan deb xulosa qilish mumkin.

Ulug'bek tomonidan 832/1428–1429- yilda boshlangan pul islohoti temuriylar davlatining iqtisodiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. U tovar-pul munosabatlarining taraqqiyotiga muvofiq kelgan va uni jadallashuviga yo'naltirilgan. Ushbu davrga oid barcha sohalarni qamrab oluvchi asarlarni o'rganish asosida Ulug'bekning islohotlarini faqatgina davlatning pul munosabatlarini tartibga solish uchun yo'naltirilgan bir tadbir sifatida baholash noto'g'ri hisoblanadi. Bu chuqur o'ylangan ichki siyosatni barqarorlashtirish yo'lidagi tadbirlarining bir bo'lagini tashkil etgan. Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohotlari bu Ulug'bek tomonidan ichki siyosatni barqarorlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan uchta tadbirdan birini tashkil etgan.

Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan pul islohotlarining asl

mohiyatini ko'rib chiqamiz. Islohotning asosiy vazifasi mis tangalarini zarb etishni va ularni muomalaga kiritishni yo'lga qo'yishga urinishdan iborat bo'lgan. Avval ta'kidlanganidek, tangalarni zarb etishni yo'lga qo'yishda va keng iste'mol mahsulotlari ko'lamini kengaytirishda ushbu omil eng daromadli hisoblangan. Shunday qilib, islohotlar birinchi navbatda markaziy davlat g'aznasini boyitish va savdo munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Rivojlanib borayotgan savdo viloyatlar va kichik mulklarda to'siqlarga uchramaydigan qat'iy, barqaror tangalarni talab qilgan.

Aynan islohot tufayli savdo uchun shunday tangaga ega bo'lingan. Pul tizimini isloh qilish ikki bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda eski pullar muomaladan olib tashlangan. Ular yangi tangalar bilan almashtirilgan. Yangi tangalarni Samarqand, Buxoro, Shohruxiya, Andijon, Qarshi va Termizda zarb qilishga kirishilgan. Ikkinchi bosqichda yangi tangalarning soni yetarli darajaga yetgach, eski tangalardan foydalanish butunlay ta'qiqlangan. Mis tangalarni zarb qilish markazlashtirilgan va Buxorodagi bitta zarbxonada amalga oshirilgan.

Ulug'bek mis tangalami poytaxt Samarqandda emas, balki Buxoroda zarb etilishini ta'minlagan. Bunday qaror qabul qilinishiga shu narsa sabab bo'lganki, tanlab olinadigan zarbxona mis tangalariga bo'lgan talabning o'sib borishi bilan ularni zarb qilishni ko'paytirilishini ta'minlay olishi kerak edi. Asosan kumush va mis tangalarini zarb qilgan Samarqand zarbxonasi uchun yana ko'p miqdorda mis tangalarini chiqarish og'ir bo'lganligi sababli tangalar Buxoroda zarb qilingan. Samarqand zarbxonasida kumush tangalarini zarb qilish davom etgan. Ularni chiqarish iqtisodiy jihatdan g'aznaga foydali hisoblangan, lekin kumush tangalarning siyosiy ahamiyati ko'proq bo'lgan.

Yuqorida ta'kilanganidek, Ulug'bek o'z nomidagi kumush tangalarni zarb qilishga faqatgina o'z otasining vafotidan so'nggina kirishgan. Tabiiyki, hukmdor nomi qayd etilgan tangalarni faqatgina poytaxtda joylashgan zarbxona amalga oshira olgan. O'sha davrdagi mis tangalarda hukmdorning ismi qayd qilinmaganligi sababli ushbu turdagi tangalarni zarb qilish majburiyatini har qanday yirik shahar o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan.

Buxoroda mis tangalarini markazlashtirilgan holda chiqarilishi avvalgi mis tangalarni ishlab chiqarishda ko'riladigan «daromad»larga chek qo'ygan va daromadlarni yagona markaziy g'aznaga to'planishiga imkon bergan. Ushbu maqsadlar uchun yana eski tangalarning muomalada bo'lishi ham ta'qiqlangan. Bunday chora eski turdagi tangalarni muomaladan olib, yangilarini ishlab chiqarishni va muomalaga kiritishni, shuningdek, markaziy g'aznaning daromadlarini ko'paytirishni nazarda tutgan.

Shunga alohida e'tibor berish zarurki, islohotlarning dastlabki bosqichi muvaffaqiyatli yakunlangan. Bunga pul tizimi qonuniyatlarini chuqur tushunish, tez fursatli va uzoq davom etuvchi daromadlarni ta'minlay olish qudrati ushbu islohotning omadli chiqishini ta'minlagan. Amalga oshirilgan tadbirlarning asosiy natijasi sifatida butun Movarunnahr hududida chakana savdo uchun asosiy pul vositasi hisoblangan mis tangalarini joriy etilishini ko'rsatish mumkin.

Ushbu tangalar mis tangalarining umumdavlat miqyosida amal qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan va pul munosabatlarining rivojlanishiga olib kelgan. Ulug'bek tomonidan pul munosabatlarini tartibga solish bo'yicha tadbirlar qishloq va shahar aholisini tobora faol savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilib borayotgan bozor munosabatlarining taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan.

Qishloq xo'jaligi munosabatlarining tobora faol pul munosabatlariga tortilishi XV asrga kelib, avval mavjud bo'lgan qishloq ichidagi o'zaro mahsulot ayirboshlashga zarba berib, pul munosabatlarining o'rnini kuchaytirgan.

Biroq, Ulug'bek vafotidan keyin kuchayib ketgan o'zaro urushlar, markazdan qochish tendensiyasi uning islohotining natijalarini yo'qqa chiqargan. Tangalarni zarb qilishda markazlashtirilgan an'anaga chek qo'yilgan va bu mis tangalarining butun O'rta Osiyo hududi bo'ylab muammosiz amal qilishini qiyinlashtirib qo'ygan. Bozorda vazni nazorat qilinmaygan turli o'lchamdagi Buxoro tangalari ko'payib ketgan. Ushbu holatlarning barchasi chuqur tanglikni keltirib chiqargan va ushbu tanglikdan Shayboniylar hukmronligi davriga kelibgina to'liq chiqa olingan.

Amir Temur zamonida o'zining eng markazlashtirilgan darajasiga yetgan siyosiy boshqaruv oxirgi temuriylar davrida, aksincha o'zining nomarkazlashish jarayonining eng cho'qqisiga chiqqan. Xuroson sultonligida ijtimoiy faol guruhlar ichida individual erkinlikka intilish shu qadar kuchli bo'lganki, bu dushmanlarga qarshi yagona ittifoqning vujudga kelishiga to'sqinlik qilgan. Dushmanlarning bir nechtaligi sababli ushbu omil shuningdek, davlat asoslarini buzilishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu Movarounnahrning dushmanlar qo'liga tushib qolishiga olib kelgan va uzoq vaqt Movarounnahrda barcha ichki nizolarga chek qo'ya oladigan kuchli hukmdor chiqmagan. Ichki nizolarning o'zni tashqi dushman oldidagi xavfdan ham yuqoriroq bo'lib, u temuriylar davlatining tugatilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mavzuga oid tanyach iboralar:

Amir Temur, Xalil Sulton, Shohruh Mirzo, Ulug'bek Mirzo, «fulusi adliya», Ulug'bek xazinasini.

Mavzuga oid savollar:

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi O'rta Osiyodagi pul munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatgan?

2. Mirzo Ulug'bek nima sababdan pul islohoti o'tkazgan?

3. Amir Temur va temuriylar davrida tangalar asosan qaysi shaharlarda zarb qilingan?

4. Temuriylar davrida zarblangan tangalarning o'ziga xosliklari nimalardan iborat?

5. So'nggi temuriylar davriga kelib mamlakat iqtisodiy hayotining tushkunlikka uchrashiga qanday omillar sabab bo'ldi?

Mavzuga oid test savollari:

1. Bugungi kungacha Mirzo Ulug'bek tomonidan zarblangan mis-fulslardan iborat nechata xazina topib o'rganilgan?

a) 17 ta

b) 18 ta

s) 19 ta

d) 20 ta

2. Mirzo Ulug'bek necha yil davomida o'z nomidan kumush pullarni zarblagan?

a) 40 yil, 6 oy

b) 2 yil, 7 oy

s) 28 yil 8 oy

d) 3 yil, 4 oy

3. Mirzo Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan pul isohotlarida mis tangalar qaysi shaharda zarblangan?

- a) Samarqand
- b) Buxoro
- s) Xiva
- d) Shaxrisabz

4. O‘z nomidan Movarounnahr va Xurosonning barcha yirik shaharlarida tangalar zarb qilgan temuriy hukmdomi aniqlang.

- a) Ulug‘bek Mirzo
- b) Shohruh Mirzo
- s) Mironshoh Mirzo
- d) Xalil Sulton

5. Mirzo Ulug‘bek tomonidan zarb qilingan tangalar xazinasining nechitasi Movarounnahr hududidan topilgan?

- a) 6 ta
- b) 8 ta
- s) 10 ta
- d) 17 ta

Mavzu: № 8. SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR DAVRIDA ZARB QILINGAN TANGALAR

Reja:

- 1. Shayboniyxonning pul-tanga siyosati.**
- 2. «Eski» va «yangi» tangalar.**
- 3. Ashtarxoniyar davlatining tangalari.**

Shayboniyar va Joniyar davlatlaridagi pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti ko'plab tangalar va tanga xazinalari, shuningdek, yozma manbalarning ma'lumotlari asosida tadqiq etiladi. Shayboniyar va Joniyar davlatida tilladan, kumushdan, misdan, mis va kumushning turli nisbatlardagi aralashmalaridan tangalar zarb qilingan. Umumiy holat shundan iborat bo'lganki, XVI–XVIII asrlarda pul xo'jaligida oltinning o'rni bozorda yetarli darajada muomalada bo'la oladigan kumush tangalarni zarb etish holatining darajasiga qarab belgilangan. Aynan oltin zahiralarning holati va kumush tangalarni zarb etishni etishning xususiyatlari oltin tangalarni doimiy tarzda zarb etishning faqatgina XVIII asrga kelib joriy etilganligini belgilab bergan. Bungacha oltin tangalarni zarb qilish faqatgina ayrim holatlardagina yo'lga qo'yilgan. Bizgacha faqatgina ikki Shayboniy hukmdorlar Muhammad Shayboniyxon (1500–1510) va Abdullaxon II (1583–1598)lar tomonidan zarb qilingan tilla tangalar bizgacha yetib kelgan. XVII asrga oid Joniyar davrida zarb qilingan tangalar mavjud emas, aniqlanmagan va ular to'g'risida yozma manbalarda ham ma'lumotlar uchramaydi. Masalan, Jenkinson ta'kidlashicha, savdoda oltin tangalar ishlatilmagan. Umuman olganda, XVI–XVII asrlarda oltin muomala va to'lov vositasi sifatida kuchga ega bo'lmagan.

XVIII asrda holat qisman o'zgargan. Joniylarning oltin tangalarining zarb qilinishi XVII asrning oxirida boshlangan deyish ehtimoli mavjud. XVIII asrda u barqaror tarzda yo'lga qo'yilgan va ko'pincha yillik oltin tangalar (ashrafi) ishlab chiqarilgan. Ushbu tangalar muomala va to'lov vositasiga aylangan, ammo ularning yanada keng muomalaga kirishi XVIII asrga to'g'ri keladi.

Kumush va mis tangalarning muomalasi va zarb qilinishi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan. Shayboniylar davrida XVI asrda pul munosabatlarining asosini oliy probali kumush (ularning tanga, tangacha, xoniy kabi sinonimlari bo'lgan) va mis tangalar (asosan fuls dinorlar, mis dinorlar deb atalgan) tashkil etgan. Davlat ushbu metallardan yasalgan pullarning muomalasini tartibga solib va o'zgartirib turgan.

Ushbu asosiy pullardan tashqari ma'lum bir tarixiy davrlarda sharoitdan kelib chiqib ma'lum bir qiymatlarga ega pullar ham ishlab chiqarilgan. Muayyan qiymatga ega kumush tangalar bizgacha yagona nusxalarda yetib kelgan. Lekin yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Shayboniylar davrida ikki marta yuqori qiymatli yirik tangalar va asosiy pulning uchdan ikki qismiga yoki yarmiga teng bo'lgan kichik pullar chiqarilgan. Mis tangalardagi savdoning eng gullab yashnagan davri XVI asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi, bu davrda ikki dinor, dinorning uchdan ikki, yarim, uchdan bir va oltidan bir qismlaridan iborat qiymatdagi tangalar savdoda katta o'ringa ega bo'lgan. Eng mayda mis tangalar esa «pul» yoki «qora pul» deb atalgan.

1507- yilda Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallagan va shu zahotiyuq, shahar jome' masjidida pul islohotlari to'g'risida e'lon qilingan. Bu paytda Hirotdagi pul munosabatlari tang holatda edi. Islohot jamiyatning yuqori

tabaqasi hisoblangan savdogarlar, oqsuyaklar va boshqalarni Shayboniyxon tarafiga o'tkazishni va unga xayrixoh kayfiyatlarni kuchaytirishga qaratilgan edi. Islohotlar kumushning domiy zarb qilinishi va mamlakatning butun hududida muammosiz amalda bo'lishini ko'zlab o'tkazilgan. Kumush pul muomalasining asosini Muhammad Shayboniyning ismi va unvoni bitilgan «qirol tangalarning usulida» bezak berilgan tangalar tashkil etgan. Oxirgi Temuriylar davriga oid tangalarning vazni bir misqolga (4,8 gr.) teng bo'lgan, Shayboniyxon tomonidan chiqarilgan yangi tangalar esa misqolning 1/12 qismiga kattalashtirilgan va ular 5,2 gr.ni tashkil etgan. Misqolning vaznini ko'paytirilishi tasodifiy hodisa bo'lmasdan, balki Temuriy Shohruh (1404–1447) tomonidan chiqarilgan tangalarning vaznini takrorlagan. Shohruh tomonidan chiqarilgan tangalar odamlarning xotirasida juda yaxshi va mustahkam tangalar tarzida saqlanib qolgan va ushbu ruhiy holat Shayboniyxon tomonidan inobatga olingan. Shayboniyxonning islohotlari temuriylarning bir misqolli tangalarining amal qilishini ta'qiqlab qo'ymagan, lekin ularning qiymati bir oz pasaytirilgan: pulning qadsizlanishi avjiga chiqqan paytda ular 36 mis dirhamlarga teng bo'lsa, islohot natijasida esa ular 30 dirhamga teng qilib qo'yilgan.

1507- yilda hali islohotlar o'z nihoyasiga yetmagandi. Movarounnahrda bir misqolli tangalar ham zarb qilinmoqda edi. Hirotda yangi turdagi tangalarni zarb qilishga kirishilgan, Shayboniylar davlatining ikki qismida tangalar shakliy jihatdan bir-biridan farq qilgan. Islohotlarning nihoyasiga to'liq yetgan davri 1508- yil hisoblanadi. Shu yili vazni, yozuvi va tasvirlari bir xil tangalar Shayboniylar davlatining bir necha hududlari, jumladan Samarqand va Buxoroda, Marvda, Niso, Saraxs, Hirotda, Mashhad, Nishopur, Nimruz, Koin, Sabzavorda chiqarilgan. Bir xil kumush

tangalarning mamlakatning barcha hududlarida amal qilishi ta'minlangan va pulning qadrsizlanishi to'xtatilgan.

Movarounnahrda shuningdek, mis tangalar chiqarilishi ham isloh qilingan. Turli vazndagi tangalarning o'rniga yagona, kumush tangalarniki kabi 5,2 gr. og'irlikdagi mis tangalar muomalaga chiqarilgan. Samarqand tangalarida ham ushbu yozuvlar shuningdek, yangi vazn ham qayd etilgan.

Muhammad Shayboniyning 1510- yildagi vafotidan keyin, Shayboniylarning Bobur va qizilboshlar bilan urushi, shuningdek, 1512–1513- yildagi qattiq qishdan keyin Markaziy Movarounnahrda ochlik va qimmatchilik boshlangan. Mis tangalarni ko'plab zarb qilishdan daromad olishga intilgan Shayboniylar va Boburning tanga-pul siyosati ham pulning qadrsizlanishini kuchaytirgan. Vaznning keskin kamaytirilishi, bir guruh tangalarning boshqalari bilan almashtirish, ularning qiymatini o'zgartirish va tangalarning sonini keskin ko'paytirish kabi ko'plab chora tadbirlarning qo'llanishi ham natija bermagan.

Shayboniylarning g'alabasidan va siyosiy vaziyatning barqarorlashuvidan keyin o'z-o'zidan pulning qadrsizlanishi to'xtab qolmas edi, chunki bozorlarda odamlarning qo'lidagi mis tangalar mahsulotlar bahosidan ancha ortiq bo'lgan. Kumush tangalar muomaladan chiqib ketgan va boshqa kumush tangalar zarb qilinmagan. Pul munosabatlarining chuqur tang holatdan olib chiqish uchun mis tangalariga bo'lgan ishonchni qayta tiklash va kumush tangalarni zarb etishni yo'l qo'yish, islohotlar o'tkazish talab etilar edi.

Pul islohotlari murakkab va ko'p bosqichlarni o'z ichiga oladigan jarayon hisoblanadi. Umumdavlat miqyosida pul munosabatlarini normal ahvolga olib kelish uchun qariyb 15 yil ketgan. Dastlabki paytlarda Buxoro (ancha obro'ga ega bo'lgan Ubaydullaga qarashli viloyat bo'lgan)

va Samarqand (Shayboniylarning poytaxti, sulolaning yetakchisi Ko'chkinchixonning mulki hisoblangan) bir-biridan mustaqil siyosat olib borganlar. Boshqa viloyatlar esa yoki Samarqandga, yoki Buxoroga bo'ysinar edilar. Mis tangalarni zarb qilish boshlangan. Ushbu jarayon ruhiy ahamiyatga ega bo'lib, tanglik davrida muomalada bo'lgan kam vaznli mis tangalarning amal qilishi ta'qiqlangan: kumush tangalarni zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Samarqand va Buxoroda mis va kumush tangalarning vazni bir xil standartga ega emas edi. Faqatgina 1525- yilga kelib, butkul umumdavlat yagona vazn standartiga o'tilgan va bir misqol o'lchamdagi tangalar muomalaga kiritilgan. Tartibga solingan umumdavlat pul muomalasi sohasida kumush va mis tangalarning aniq nisbati ishlab chiqilgan va bir misqol kumush tanga 20 ta mis tangaga teng deb belgilab qo'yilgan. Ushbu islohotlar olimlar tomonidan shartli tarzda Ko'chkinchixon islohotlari deb nomlandi.

Kumush tangalarni zarb qilish erkin bo'lib, ya'ni har qanday xususiy shaxs o'ziga qarashli metallardan va mahsulotlardan tangalarni zarb etishga buyurtma berishi mumkin bo'lgan va bunda g'aznaga muayyan miqdorda to'lov to'langan. G'azna tangalarni zarb qilishdan va ayniqsa ularni muomalaga kiritishdan katta daromad olgan. Barcha kumush tangalar ikkiga bo'lingan: manbaviy hujjatlarda ushbu ikki guruh tangalarni «yangi» tangalar va «eski» tangalar deb nomlangan. Ushbu atamalarning iqtisodiy ma'nosi tangalar toza, sof kumushdan emas, balki kumushning mis bilan aralashmasidan ishlab chiqarilgan deb xulosa qilish mumkin. Ularning probasining standart nisbatida sof kumush 90% ga belgilangan va shu sababdan ular hujjatlarda o'ndan to'qqiz deb nomlangan. Bu har bir tangada 4,3 gram kumush, va 0,7 gram mis bo'lgan deb xulosa qilishga imkon beradi.

Yangi pulning 10% li nisbati majburiy bo'lib, ular go'yoki misqoldagi kumush vazni bilan (4,3 gr.) Eski tangalardagi kumush tarkibi esa tanganing vazni bilan bir xil edi. Boshqacha qilib aytganda, davlatning siyosatiga muvofiq birgina mahsulotning o'ziga yangi va eski tangalarda ikki xil narx belgilanar edi. Masalan, «yangi» tangalarda 9 ga baholangan mahsulot eski pulda 10 tangaga baholanar edi. Vaqti-vaqti bilan yana boshqa guruhdagi tangalar chiqarilib turilar va avval yangi bo'lgan tangalar endi eski deb e'lon qilinar edi (va barcha yangi tanga sohiblari 10% qiymatni yo'qotar edilar).

Ba'zan yangi guruh tangalar bir necha qisqa muddatlarda zarb qilinavergan bo'lsa, ayrim davrlarda ularning chiqarilishi bir muncha barqaror bo'lgan. G'aznaga barcha soliqlarni eski pullarda olish foydaliroq bo'lgan, barcha to'lovlar va savdo-sotiq yangi tangalarda amalga oshirilgan. Bozorda esa aksincha yangi tangalardan tezda qutulib, eskilarini ko'proq ushlab turishga intilingan. Vaqt o'tishi bilan yana yangi guruh tangalarni zarb etishga kirishilganda, bosim kuchayib ketar, yangi tangalarning qiymati eskilari bilan tenglashib qolar edi. Lekin «yangi» tangalarning «eski» tangalarga nisbatan real kursi faqatgina bozorda, xususiy shaxslarning o'rtasidagi amaliyotlardagina pasayib-tushib turardi. G'aznaning barcha amaliyotlari esa rasmiy kursda olib borilgan va yuridik hujjatlarda (vasiqa, vaqfnoma kabi) aynan shu kurs belgilangan.

Biroq, bu tangalarni zarb qilishdan tushadigan barcha daromadlarning hammasi Markaziy g'aznaga borib tushgan deb xulosaga kelish noo'rin. Sulolaning boshlig'i u davrda faqatgina tenglar ichidagi birinchi shaxs bo'lib, yirik viloyatlar hukmdorlari unga tashqi hurmatini ifodalalar, tangalardagi yozuvlarda uning ismi va unvonini ulug'lar, tangalarni zarb etishdan tushgan daromadlarni esa o'zlariga

olar edilar. Tangalarning yirik miqdorda va barqaror zarb qilinishi birdaniga Buxoro, Samarqand, Balx va Toshkent kabi bir necha viloyatlarda joriy etilgan edi. Kichik tanga zarbxonalari, shuningdek, Kufina, Karmana, Totkand (Zarafshon vodiysi), Andijon (Andigon), Axbi (Farg‘ona vodiysi), Kesh, Hisor va Yassida kabi bir necha kichik shaharlarda ham faoliyat olib borganlar (ularning ayrimlari yirik viloyatlar tarkibiga kirgan bo‘lsalar, boshqalari mustaqil mulklar edi).

Kumush tangalarning kursi XVI asrda mis tangalari orqali belgilangan. Uzoq vaqt mobaynida kumush tangalar rasmiy jihatdan 20–21 mis tangalarga teng deb belgilangan. Bozor kurslari barqaror bo‘lmasdan, ba‘zan nisbatan oshib va tushib turgan bo‘lsa-da, oxir-oqibat yana ushbu qiymatga qaytgan. Borgan sari kumushning qimmatlashib borganligini kuzatish mumkin. Natijada, Shayboniy kumush tangalarining mamlakat tashqarisiga ommaviy tarzda olib chiqib ketish yuzaga kelgan. Ayniqsa, shayboniylarning pullari intensiv tarzda Boburiylar davlatiga kirib kelgan va bu yerda ularning amal qilishi qonuniylashtirilgan. Tangalarning ustiga Akbarning ismi qayta zarb etilgan.

Kumushning past baholanishi Shayboniylarning zarbxonalariga kumush tangalar zarb etish uchun keladigan xususiy shaxslarning metallarini cheklab qo‘ygan.

Muomaladagi tangalar pul munosabatlarining ehtiyojini qondira olmagan va natija ularning soni kamayib borgan.

Aynan mana shunday sharoitda Abdullaxon II tomonidan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga olgan pul islohotlarini amalga oshirilgan. Kumush metallning va kumush tangalarning yetishmovchiligini oldini olish maqsadida u otasinig tirikligidayoq oltin pullarni zarb etishni yo‘lga qo‘ygan va ularning Buxoroda zarb qilinishini nazorat qilgan hamda ularning probasining oliy sifatli

bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. Oltin tangalar uch qiymatda zarb qilingan: asosiy pul (kumush tanga kabi 1 misqol vaznga ega bo'lgan), asosiy qiymatdagi pulning yarmi va mayda tanga.

Abdullaxonning islohoti birinchi navbatda, kumushning qimmatlashib borishi bilan kumush tangalar kursining o'zgarishiga qaratilgan. Kurs bir yarim barobar oshirilgan va endi «yangi» tanga 30 mis tangaga teng deb belgilangan bo'lsa, «eski» tanga esa 27 mis tangaga teng deb belgilangan va bu o'sha davrga tegishli ko'plab hujjatlarda qayd etilgan.

Sulolaning rasmiy boshlig'i Iskandarxon (1560–1583) bo'lgan paytda Abdullaxon tomonidan Buxoro otasiga topshirilib, Balx (1573), Hisor (1574), Samarqand (1578), Toshkent (1582) qo'lga kiritilganligiga qaramasdan, tangalarni zarb etish ishi hali markazlashtirilmagan edi. Buxoro, Samarqand, Balx, Toshkent, Andijon, Axsi va Yassida zarb qilingan bir qator tanga namunalari tadqiqotchilar tomonidan Iskandarxon nomi bilan bog'lanadi. Bu davrda ko'plab o'zaro urushlar bo'lganligi sababli tanga pullarga ehtiyoj kuchaygan. Pullar ham Abdullaxonga, ham uning raqiblarga kerak bo'lgan. Shu sababdan, Iskandarxon davrida pullarni «yangi» va «eski» guruhlarga bo'lish ancha kuchaygan, bu esa ularga ishonchni kamaytirgan va ko'plab miqdordagi kumushning mamlakat tashqarisiga, birinchi navbatda Hindistonga chiqib ketishiga olib kelgan.

1583- yilda otasining vafotidan keyin hokimiyatga chiqqan Abdullaxon pul islohotining yana bir bosqichini amalga oshirgan. Ya'ni, kumush tangalarni zarb qilishni ancha markazlashtirgan, ya'ni Buxoroga ko'chirgan. Yiliga ko'p miqdorda Abdullaxon nomidan kumush tangalar zarb qilingan. Balx, Samarqand va Toshkentda faqat ayrim holatlarda tangalar zarb qilingan va ularning soni juda oz

bo'lgan. Buxoro tangalari o'zining ajoyib yozuv usuli va tasviri bilan ajralib turadi.

Keng iste'mol mollarining kunlik shahar savdosi uchun Abdullaxon tomonidan bir necha qiymatdagi mis pullar zarb qilingan.

Abdullaxonning pul islohotlari ancha muvaffaqiyatli chiqqan va ular pul muomalasi sohasida tanglikka chek qo'ygan, tangalarning ko'plab miqdorda chetga olib chiqib ketilishini to'xtata olgan va eng asosiysi xususiy metall yana zarbxonalarga olib kelinishini ta'minlay olgan. Ushbu islohot tranzit, shaharlararo va ichki savdoni rivojlantirishga maqbul sharoitlarni yaratishga intilgan Abdullaxon II ning ichki siyosatining bir qismi hisoblangan. Pul savdosi eng muhim daromad sohasi hisoblangan va Abdullaxon II ana shu sohani qayta tiriltirishga muvaffaq bo'lgan.

XVII–XVIII asrlarda Joniylar hukmronlik davrida ham pul muomalasi sohasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilgan. XVII asr boshlarida Joniylar tomonidan oliy probali tangalar chiqarilgan va shuningdek Shayboniylar davriga oid kumush tangalar ham muomalada bo'lgan. Lekin XVII asr birinchi yarmida tangalardagi kumush probasi har safar 5-10%ga pasaya boshlagan. «Yangi» tangalarning kursi joniylar davrida yana majburiy bo'lib, ular 30 mis dinorga teng bo'lgan.

XVII asrning yarmidayoq juda past probali tangalarni zarb qilishga urinishlar bo'lgan. Mahmud ibn Valining guvohlik berishicha, Balx va Movarounnahrda ushbu vaqtda oliy probali tangalar bilan birga tarkibining bor yo'g'i chorak foizi kumushdan iborat bo'lgan past sifatli tangalardan ham muomalada foydalanilgan.

XVII asrning ikkinchi yarmida bozorda aynan past probali tangalar yetakchi mavqeyega chiqqan va bu aholining noroziliklarini keltirib chiqargan. Natijada eng past probali

tangalar chiqarilganidan keyin yana oliy probali tangalarga qaytishga majbur bo'lingan.

Davlatning moliyaviy ahvolidning tanazzuli va holatni o'nglashga harakatlar sifatida 1708- yildagi pul islohotlarini ko'rsatish mumkin.

Hujjatlar, tangalar va yozma manbalarning ma'lumotlarining qiyosiy tahlili natijasida 1708- yildagi islohotni viloyat hukmdorlarining o'zboshimchaligini cheklashga, hokimiyatni markazlashtirishga va davlat moliyaviy holatini mustahkamlashga qaratilgan bir harakat sifatida baholash mumkin.

Shu bilan birga davlat g'aznasiga katta miqdordagi pul mablag'lari olib kelishga, shuningdek, savdogarlar va hunarmandlarning manfaatini ifodalashga harakat qilgan ushbu islohot o'zining ilk bosqichlarida aynan mana shu sinfning moliyaviy ahvolidni murakkablashtirib qo'ygan.

Islohotlarning e'lon qilinishi shahar aholisining barcha tabaqasining noroziligiga sababchi bo'lgan va xalq qo'zg'olonlariga olib kelgan.

Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, uning ijobiy tomonlari ham bo'lgan. Hukumat islohotlarning dastlabki paytdagi shaklidan voz kechib, «yangi» tangalar uchun yangicha nisbatini e'lon qilgan. Unga ko'ra oliy sifatli «eski» bir tanga Ubaydullaxonning past probali tangasining ikkitasiga teng edi.

XVIII asr tangalarining tarkibi o'zining xilma-xilligi bilan, pul munosabatlari esa murakkabligi bilan ajralib turgan. Bozordagi savdoning asosini bir necha yillar mobaynida eng yomon pullar – Ubaydullaxonning isloh qilingan misga o'xshash pullari tashkil etgan. Asosan ko'chmas mulk oldi-sotdisi XVII asrning oxirgi choragida chiqarilgan oliy probali kumush pullarga tashkil etilgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida ular safiga shuningdek,

yangi hukmdorlar tomonidan zarb qilingan turli probadagi tangalar ham qo‘shilgan.

XVIII asrda oltin tangalarni doimiy zarb qilish boshlangan. Guvohlarning ma'lumotlariga ko'ra bitta oltin ashrafiy tanga 50–80 kumush tangaga teng bo'lgan (ularning qiymati va probasiga muvofiq tarzda). Pul bozorining bu darajadagi xilma-xilligi savdoni qiyinlashtirgan hamda yolg'ochilik va qalloblikka yo'l ochgan.

Keyinroq, 1785- yilda pul munosabatlarida ushbu noaniqliklarga chek qo'ygan tub islohot amalga oshirilgan. Kumush tangalarning vazni, o'lchami, probasi, yozuv tasvirlari va shakli o'zgartirilgan. Deyarli ikki yarim asr mobaynida shayboniylar va joniylarning kumush tangalari probasi turlicha bo'lgan bo'lsa ham, ularning vazni bir xil – bir misqolga teng bo'lgan. 1785- yilda esa tangalarning vazni misqolning 7/10 qismiga (3,36 gr.) tenglashtirilgan bo'lsa-da, ularning buxoroliklarning fikricha, probasi eng toza kumushdan bo'lgan. Kichik, deyarli to'g'ri dumaloq shaklga ega holda ular barcha avvalgi isloh qilingan tangalardan ajralib turganlar. 1785- yildan keyin turli probadagi bozorlarda mavjud tangalarning asosiy qismi muomaladan olingan. Biroq eski tangalarning bir guruhi islohotdan omon qolganlar va ular 1753–1758- yillarda Muhammad Rahimxon Mang'it tomonidan chiqarilgan past probali qirilgan tangalar hisoblanadi va ular «miri» nomini olgan hamda isloh qilingan oliy probali tangalarning choragiga teng bo'lgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Shayboniyxon, Kuchkinchixon, Suyunchxoja, Ubaydullaxon, Iskandar Sulton, Abdullaxon, «ashrafiy», «miri», «qora pul», «tangacha», «xoniy».

Mavzuga oid savollar:

1. Shayboniylar davri tangashunosligining o'ziga tomonlari nimalardan iborat?
2. Shayboniylar o'z tangalarida qanday yozuv turlaridan foydalanishgan?
3. Joniylar davrida Buxoro xonligida pul munosabatlari holati qanday bo'lgan?
4. Abdullaxon II islohotining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
5. Joniylar davri tangalarning sifati qanday bo'lgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Shayboniylar davrida oliy probali kumush tangalar necha xil nom bilan nomlangan?
 - a) 3 xil
 - b) 2 xil
 - s) 4 xil
 - d) 5 xil
2. Shayboniyxonning 1507- yili boshlagan pul islohotida qaysi temuriy hukmdor tangalari vazni takrorlanagan?
 - a) Mirzo Ulug'bek
 - b) Shohruh Mirzo
 - s) Bobur Mirzo
 - d) Xalil Sulton
3. 1525- yilda pul islohoti o'tkazgan shayboniy hukmdorni aniqlang.
 - a) Iskandarxon
 - b) Suyunchixoja
 - s) Kuchkinchixon
 - d) Ubaydullaxon

4. Ashtarxoniy hukmdorlar tomonidan qachon oltin pullar zarb qilingan?

- a) 1715- yil
- b) 1785- yil
- s) 1717- yil
- d) 1708- yil

5. Ashtarxoniylar tomonidan zarb qilingan bir «ashrafiy» necha kumush tangaga teng edi?

- a) 50-60 tangaga
- b) 30-40 tanagaga
- s) 70-80 tangaga
- d) 50-80 tangaga

Mavzu: № 9. BUXORO AMIRLIGI TANGALARI

Reja:

1. Mang'itlarning XVIII–XIX asrlar o'rtalariga tegishli tangalari.
2. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab mang'it tangalari.
3. Mang'itlar sulolasining eng oxirgi hukmdorlarining tangalari.

Mang'itlarning XVIII–XIX asrlar o'rtalariga tegishli tangalari. Joniyar sulolasining oxirgi vakili Abulfayzxon (1711–1747) hukmronligi davrida xonning markaziy hokimiyati o'z ahamiyatini yo'qotgan. Xonlik alohida mustaqil viloyatlarga bo'linib ketgan va o'zaro urushlar kuchaygan. Qozoq urug'larining bosqinchilik yurishlari mamlakatga katta talofat yetkazgan, ular 7 yil davomida qattiq qarama-qarshilikka uchramagan holda butun Zarafshon vodiysida talonchilik qilganlar. Buxoroning ushbu nochor ahvolidan Eron shohi Nodirshoh (hijriy 1148–1160 yy.) foydalanishga harakat qilgan. U bir qator qo'shni hududlarni egallab olgach, 1740- yil Buxoroga hujum qilib, uni bosib olgan. Xonlikning bosib olinishi uning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilgan. Mamlakat talangan, boylklari tashib ketilgan va ushbu holatlar Buxoroning pul xo'jaligida ham namoyon bo'lgan. Raqobatchilari tomonidan 1747- yilda Nodirshohning o'ldirilishi xonlikning mustaqilligini yana qaytadan tiklanishi uchun zamin yaratgan.

Istiloning tugatilishi Xiva xonligining to'liq, butunlay ajrab chiqib ketishiga va Qo'qon xonligining yuzaga kelishiga olib kelgan. Buxoroning o'zida esa hukmron sulola almashgan, hokimiyat tepasiga Muhammad Hakimbiyning

o'g'li Muhammad Rahim Mang'it (1753–1758) kelgan. 1756- yil 16- dekabr, ya'ni Muhammad Rahimning taxtga rasman o'tirishidan Buxoro amirligini 1757–1920- yillarda boshqargan sulola mang'itlar hukmronligi boshlangan. Muhammad Rahimning vafotidan so'ng taxt vorisi etib Fozil to'ra (qizining o'g'li), keyin Ubaydullaxon tayinlangan bo'lsa-da, davlatni amalda amakisi Doniyolbiy otaliq 1758–1785- yillarda boshqargan. Keyingi davrlarda davlat mang'it sulolasi vakillari Shohmurod (1785–1800), Haydar (1800–1826), Nasrullaxon (1826–1860), Muzaffar (1860–1885), Abdulahad (1885–1910), Olimxon (1910–1920) tomonidan boshqarilgan.

Amir Shohmurod Zarafshon vodiysi, Amudaryo va Qashqadaryodagi sun'iy sug'orish tizimini qayta tiklab, Buxoro aholisini bojdan, hunarmandlarni kundalik yig'implardan, mehnat majburiyatidan va solikdan ozod etuvchi tarxon yorlig'ini bergan. Xiroj va nikoh puli, tarozi haqi kabilarni kamaytirgan. Sud tizimini qayta tuzgan. Umuman olganda, davlat hokimiyatini mustahkamlagan. Amir Haydar davrida esa o'zaro urushlar kuchayib, Amudaryoning janubiy sohili, yuqori Zarafshon, Shahrisabz va Miyonqolni saqlab qolish uchun kurash olib borgan bo'lsa, Nasrullaxon mamlakatdagi tarqoqlikni tugatish uchun kurashgan. Yarim mustaqil va kuchli Shahrisabz va Kitob beklilari bo'ysundirilib, Ko'qon xonligi tobe etilgan. Amir Muzaffar davrida esa Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilgan. Amir Abdulahad va Amir Olimxon hukmronligi vaqtida Buxoroda rus podsho hukumatining mavqei mustahkamlangan. 1920- yilda Buxoro bosqinidan keyin tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, mang'itlar sulolasi tugatilgan.

Buxoro amirligi tarixiga oid manbalarda asosan amir Abdulahadxon hukmronligigacha bo'lgan davrdagi

jarayonlar yoritilgan. Buxoroning oxirgi ikki amiri (Abdulahadxon va Olimxon) davrida chiqarilgan tangalar bugunga qadar juda kam o'rganilgan va numizmatik adabiyotlarda ular haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Buxoroning oxirgi amirlari hukmronligi davrida katta mansablarni egasi bo'lgan Mirzo Salimbek tomonidan tuzilgan «*Tarixi Salimiy*» qo'lyozmasi mavzuni o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Unda xonlikda mavjud bo'lgan pul munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan butun O'rta Osiyoda xo'jalik hayotining nisbatan tiklanishi kuzatiladi, ushbu jarayon siyosiy tarqoqlikni tugatishga, o'zaro urushlarga barham berishga va markaziy hokimiyatni ta'sirini kuchaytirishga asoslangan. Bundan tashqari yevropa va Rossiyadagi sanoat taraqqiyoti ham O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etgan. Xalqaro, xususan Rossiya bozori XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xomashyosiga kuchli talabni yuzaga keltirgan. Ushbu sharoitlarda Buxoro xonligining bosqinchilik davridan qolgan pul munosabatlarida xizmat qilgan turli vaznli va har xil probali tangalar tovar-pul munosabatlari taraqqiyotini to'xtatib qo'ygan. Hijriy 1200/1785- yilda mang'itlar sulolasining uchinchi vakili Shohmurod (1785–1800) tomonidan amalga oshirilgan pul islohotlari ayni o'z vaqtida amalga oshirilgan.

Shohmurodning islohotlari tarixiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lsada, uning pul muomalasi sohasida amalga oshirgan ishlariga deyarli e'tibor qaratilmagan. Biroq, ko'plab tadqiqotchilar ushbu islohotning muallifi sifatida joniylar sulolasining oxirgi vakili zaif hokimiyatga ega bo'lgan Abulg'ozixonni ko'rsatadilar. Ammo ushbu tadqiqotchilar haqli tarzda bu soxta va zaif xonning o'zi ushbu tadbirning tashabbuskori va bajaruvchisi bo'lishi

mumkin emasligini ta'kidlab o'tganlar. Oliy hokimiyat ota tomonidan Chingizxonga borib taqalmaydigan sulola qo'liga o'tganida, ular eski a'analar asosida Abulg'ozixonni xon deb e'lon qilganlar va uning nomidan tangalar zarb qilingan. Bunday holat nafaqat Buxoroda, balki ikkita qo'shni xonlikda ham mavjud bo'lgan.

Chingiziylar sulolasiga mansub bo'lish O'rta Osiyo hukmdorlarining hokimiyatni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etgan. O'z vaqtida hattoki qudratli Amir Temur ham mamlakatni soxta xonlar nomidan boshqargan va amir Husaynning bevasi Chingiziy Qozonxonning qiziga uylanganidan keyingina o'zini amir deb e'lon qilgan. 1756-yilda taxtni egallab olgan Muhammad Rahim Mang'it ham shu yo'lni tutgan va Abulg'ozixonning qiziga uylanishi natijasida chingiziylar xonadoni bilan qardoshlik aloqalarini o'tnatgan. Bu unga o'z nomidan tanglar zarb etish huquqini bergan bo'lsa-da, uning tomonidan zarb qilingan tangalar o'zining shakliga va sifatiga ko'ra avvalgi sulola tangalaridan farq qilmagan.

Doniyolbiyning butun hukmronlik davrida va Shohmurod taxtga chiqqan dastlabki yillarda Abulg'ozixon o'zining xonlik unvonidan mamnun bo'lgan va o'z hayotini bayramona o'tkazgan.

Endigina hokimiyatni egallagan yosh Shohmurod tomonidan 1784–1785- yillarda islohotlar o'tkazilgan. Mang'it tangalari hijriy 1200/1784–1785- yilda muomalaga kiritilgan deb baholash mumkin. Bu davrga kelib pul islohoti natijasida umuman boshqacha turdagi tangalarni o'z ichiga olgan tanga tizimi yuzaga kelgan. Islohotlar eski an'anani saqlab qolgan bo'lib, tangalar avvalgidek uch turga bo'lingan. Bular – «tillo» yoki «ashrafiy» deb atalgan oltin tangalar, kumush «tangalar» va xalq orasida pul, mis-pul, qora pul deb atalgan mis fulslar.

Tangalarni zarb etilgan vaqti ham avvalgidek musulmoncha hisob bo'yicha raqamlarda ko'rsatilgan. Tangalarning old tomonida avvalgidek hukmdorning ismi va unvoni, chiqarilgan sanasi bitilgan. Shu bilan birga mang'it tangalari uchun sulolaning vafot etgan a'zolari ismini tangalarga qayd etish o'ziga xos an'ana hisoblangan. Orqa tomonida esa dinning ramzi o'rinda zarbxonaning nomi va sana qayd qilingan. Shu asosda oltin va kumushdan yasalgan mang'it tangalari o'ziga xos alohida xususiyatga ega bo'lgan, ya'ni tangalarni ham old, ham orqa tomoniga sana bitilgan; mis tangalari esa faqat bir tomoniga sana yozilganligi bilan ajralib turadi.

Texnik jihatdan esa islohot u qadar sezilarli bo'lmagan. Tangalar anchagina to'g'ri shaklni olgan, metallning probasi sifati oshgan va mis tangalaridan tashqari boshqa hamma tangalar aniq bir vaznga ega bo'lgan.

Mang'itlar davrida zarb qilingan tangalarda birinchi marta «*amir*» unvoni Shohmurod davriga oid bo'lib, uning otasi Doniyolbiy xotirasiga bag'ishlab chiqarilgan va «*amir Doniyol*» degan yozuv bitilgan.

Buxoro amirlarining yana bir keng tarqalgan unvoni bu «*sayyid*» hisoblangan. Shajaralarini payg'ambarga taqagan holda Buxoro amirlari o'zlarini «*sayyidlar*» deb hisoblaganlar, «*sayyid*» nasabi boshqa barcha nasab va unvonlardan eng oliysi hisoblanganligi va unga erishi mumkin bo'lmaganligi sababli «*sayyid*» so'zi doimo amirlarning ismining oldida kelgan. Ammo bizga ma'lum bo'lishicha, o'zlarini «*sayyidlar*» deb nomlanish huquqiga Buxoro mang'it sulolasi faqatgina Shohmurodning Muhammad Rahimning bevasi Abulfayzxonning qizi chingiziylar avlodidan bo'lgan ayolga uylanishidan keyin ega bo'lganlar. Shohmurod esa o'zini «*sayyid*» deb atashlarini xush ko'rmagan, ismini xutbada o'qishlariga va

tangalarda aks etilishiga qarshi chiqqan. Tangalarning ma'lumot berishicha, Shohmurodning avlodlari hukmronligi davriga oid tangalarda uning ismi «*Ma'sum G'oziy*» nomi bilan zarb qilingan va bu «*gunohsiz g'oziy, din uchun kurashchi*» ma'nosini anglatgan.

Shohmurodning o'g'li Amir Haydar (1800–1826) nafaqat ajdodlarini ismlarini sharaflagan holda, balki o'z nomidan ham tangalar chiqargan. Yuqorida ko'rsatilgan «*sayyid*», «*amir*» kabi unvonlardan tashqari, u o'zini «*podshoh*», «*sulton*» kabi nomlar bilan ham ulug'lagan. Oxirgi nomlar amir Haydar tomonidan juda kam holatlarda ishlatilgan. Biz tomonimizdan tadqiq qilingan adabiyotlarda uning ismi ushbu nom bilan uchramaydi, u Ermitaj va Tarix muzeyining kolleksiyalariga qarashli ikki tangada uchraydi.

Amir Haydar tangalarining ma'lum bir qismidan va uning o'g'li Husayn tomonidan chiqarilgan tangalardan tashqari barcha mang'it tangalari o'lgan amirlarning nomlari bilan zarb qilingan. O'rta Osiyo tarixida bunday holat temuriylar davrida ham kuzatilgan: Ulug'bek bobosi Amir Temurni sharaflagan holda uning nomini «*rahmatli*» so'zi bilan qayd etgan holda tangalar chiqargan.

Islotlarni amalga oshirishga kirishgan amir Shohmurod 4 yil davomida soxta xon Abulg'ozini nomidan oltin va kumush tangalarni chiqargan. Uning nomi bitilgan tangalar hijriy 1203/1789- yildan chiqarila boshlagan. Ammo hijriy 1202- yildayoq Shohmurod yuqoridagi Abulg'ozini sharafiga chiqarilgan tangalar bilan birga otasi Doniyolbiy ulug'langan tangalarni zarb qilgan hamda o'z hukmronligining oxiriga qadar kumush va oltin tangalarning avvalgi shakllarini saqlab qolgan.

Shohmurodning oltin va kumush tangalarida mang'itlar davriga oid barcha tangalarga xos bo'lgan xususiyatlarni – eski shtempellardan foydalanishni ko'rish mumkin. Ushbu

masaladagi kuzatuvlar birinchi navbatda bizga ko'rsatilgan yillarda aynan shu tangalar zarb qilinganligini aniqlash uchun kerak. Masalan, hijriy 1200–1201- yilda zarb qilingan tangalarda 1201- yilgi shtempeldan foydalanilgan, hijriy 1203–1204- yilgi tangalarda esa 1203- yil shtempeli ishlatilgan va 1206–1207- yilgi tangalarda ham shunday holat kuzatiladi.

Shohmurod tangalarining yillik namunalari ayrim yagona nusxalarda uchraydi. Oltin tangalarning yillik zarb qilinishi kuzatilsa-da, kumush tangalarning mavqeyi ancha kuchli bo'lgan. Mang'itlar hukmronligi davrida misning muomalada bo'lishi dastlabki yillarda avvalgi yillar zahiralardan qoplangan.

Faqatgina hijriy 1213- yilga kelib, xonlikda barcha uch turdagi tangalar zarb qilinganligini kuzatish mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan Shohmurod tomonidan zarb qilingan ilk mis tangalar ham shu yilga tegishli.

Shohmurodning vorisi uning o'g'li Amir Haydar (1800–1826) ona tomondan chingiziylar xonadoniga mansub bo'lgan. Bu unga o'z nomidan tangalar zarb qilish huquqini bergan. Ushbu holat ko'proq kumush tangalarning tasvirlarida namoyon bo'lgan va uning ismi «*sayyid*», «*amir*» kabi nasablar bilan birga ifodalangan.

Aynan amir Haydar kumush tangalariga xos bo'lgan ushbu xususiyat hijriy 1216- yilga tegishli «*tilla*» tanganing kumushdan yasalgan yagona soxta nusxasini aniqlash imkonini beradi va unda «*Ma'sum G'oziy*» yozuvi bitilgan.

Tangalarda «*sulton*» unvonining paydo bo'lishini, bizning fikrimizcha, quyidagicha izohlash mumkin. Amir Haydarning Buxoro taxtiga chiqishi arafasida ancha notinchliklar bo'lib o'tgan. «*1800- yilda Marv turkmanlari isyon ko'targanlar, keyingi yilda esa Amudaryo bo'yidagi Karki mintaqasi turkmanlari qo'zg'olon ko'targanlar,*

isyonchilar o'zlariga qarshi jo'natilgan amir qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Amir Haydar, shuningdek, hali taxtga chiqmasdan turib, Miyonqolning isyon ko'targan urug'lariga qarshi ham katta kuch sarflashiga to'g'ri kelgan». Ehtimol o'zini butkul hokimiyatni qo'lga olganligini sharafiga Amir Haydar ushbu yangi nasab – «sulton» unvonini olgan bo'lishi mumkin.

Amir Haydar tomonidan oltin tilla ikki xil ko'rinishda – o'zi va otasining «Ma'sum G'oziy» nomidan zarb qilingan. Shu sababdan ilmiy adabiyotlarda Amir Haydar davri tangalari shartli tarzda «haydari» va «ma'sumiy» tangalariga bo'linadi. Hukmronligining dastlabki yillarida «haydari» tillalarni chiqarishni boshlagan Haydar hijriy 1220 yilga tegishli tangalarda old tomonda o'z ismining yonida Joniy Abulg'ozixon ismini ham qayd etgan.

Hijriy 1242- yilga mansub Haydarning tangalari bizga ma'lum emas. Husaynning bizgacha yetib kelgan tilla tangalari uning o'zining nomidan zarb qilingan. Ushbu yilda hokimiyatga chiqqan Nasrullo yana oltin tangalarni zarb qilishni yo'lga qo'ygan, ushbu tangalarning topilishi ularning kimga mansubligini topish kabi vazifani yuzaga keltirgan.

Amir Haydar hukmronligi davrida mis tangalari huddi oltin va kumush tangalar kabi doimiy tarzda zarb qilingan. Ularning turlari xilma-xil bo'lib, ayrim holatlarda bir necha xil tangalar bir yilning ichida zarblangan.

Yangi hukmdorning hokimiyatga chiqqan sanasi har doim tangachilik oldida yangi vazifalarni belgilab bergan: yangi hukmdorning tangasi faqatgina uning hokimiyati timsoli bo'lmasdan, balki ulardan toj kiydirish marosimida ham foydalanilgan.

Nasrullo davriga oid ko'plab tangalar zarb qilingan bo'lsa-da, eng ajablanarli jihati ham oltin, ham kumush

tangalar yagona shaklga ega bo'lgan. Uning 35 yillik hukmronligining 21- yiliga oid oltin tangalar saqlanib qolgan. Ularning barchasi Shohmurod xotirasiga bag'ishlangan.

Nasrulloning tangalarida eski shtempeldan foydalanilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning oltin tangalari ko'lamli kelajakda topilishi mumkin bo'lgan ko'plab namunalar bilan yanada boyishi mumkin. Uning hijriy 1251/1247- va 1251/1248- yilda zarb etgan tangalarida namunalar mavjud bo'lmagan 1251- yilgi shtempel, hijriy 1266/1265- yilgi tangalarda esa yana namunalari topilmagan 1266- yilgi shtempel ishlatilgan.

Uning hukmronligining 23- yiliga tegishli kumush tangalar topilgan. Birinchi yildanoq tangalar yangi shaklga ega bo'lgan va marhum ota – amir Haydar nomi bilan zarb qilingan.

Nasrulloning ismi tangalarda uchramaydi. Shuningdek, uning vorislarining birortasi ham o'z davri tangalarida uning ismini qayd etmaganlar. Shu tariqa tangalarda sulolaning asosan ikki vakili – oltin tangalarda amir Shohmurod, kumush tangalarda Haydarni ismini sharaflash urf bo'lgan. Doniyolbiyning ismi Nasrullo va uning vorislari tomonidan zarb qilingan tangalarda unutilgan.

Nasrulloning hukmronlik davriga oid mis tangalari namunalari oltin va kumush tangalardan farqli tarzda 12 yilni o'z ichiga oladi; hijriy 1242–1244-, 1246- va 1254- yillarga oid tangalarda sulolaning noma'lum ajdodi – ota yoki bobosi tasvirlangan.

Amir Muzaffar davrida oltin tangalar nisbatan kamroq zarblangan (27 yillik hukmronligining 14- yiliga oid namunalar mavjud). Shunisi ahamiyatga molikki, Buxoroning oxirgi amiri Olimxon davrida (1331/1912–1913) tilla tangalar umuman zarb qilinmagan.

Ikki tomonida yilning ko'rsatilishi sababli amir Muzaffar oltin tangalarining yilini bilib olish mumkin. Masalan, hijriy 1282/1283- yilga oid tangalarda namunalari topilmagan hijriy 1282- yil shtempelidan foydalanilgan.

Abdulahadxonning (1885–1910) 28 yillik hukmronlik yilidan 13 tasida oltin tangalar zarb qilingan. Agar ikki tomonda sana ko'rsatilganligini e'tiborga olsak, tangalarning soni yanada ortishi mumkin. Hijriy 1329- yilga oid tangalar keyingi amir – Olimxon hukmronligi davriga mansub hisoblanadi, unda faqat sanalarda farqlar mavjud.

Biroq, barcha mang'it hukmdorlari ichida Muzaffarxon va Abdulahadxon davrida kumush tangalar eng ko'p zarb qilingan. Abdulahadxon davrida hijriy 1322/1904–1905- yili ularni zarb qilish butkul to'xtab qolgan. Yiliga tangalar chiqarilib turgan paytda oradagi hijriy 1312/1893–94- yildan hijriy 1319/1901–1902- yilgacha yetti yillik tanaffus ham e'tiborga molik hisoblanadi.

Xonlikning asosiy pul birligi – kumush tanga – kursi doimiy tarzda oshib-tushib turgan va bunga turli holatlar sabab bo'lgan. 1893- yilda tangalar zarb qilishning to'xtatilishiga Buxoro bozorlariga g'arbda yasalgan kumush quymalarning ko'plab kirib kelishi sababchi bo'lgan. Sotib olingan hamda zarbxonalarda saqlanayotgan va bozordagi kumushning narxi orasidagi nisbat shu darajada bo'lganki, bu hukumatning boshini ancha qotirib qo'ygan.

Buxoro tanga tizimining taqdiri 1890- yili Peterburgda hal qilingan. O'zining tor manfaatlarini himoya qilgan Moliya vazirligidan tashqari muzokaralarda ichki ishlar vazirligi va Harbiy vazirlik ham ishtirok etganlar. Oxirgi qarorni qabul qilishda ushbu uch vazirlik vakillari bir-birlari bilan kelisha olmaganlar, chunki Harbiy vazirlik va Ichki ishlar vazirligi amirni tanga zarb etish huquqidan mahrum qilish mumkin emas, deb hisoblaganlar. Bunga yana ushbu

uch vazirlikning Buxorodagi vakillari Peterburgda olgan topshiriqlaridan ham farqli qarashlarga ega bo'lganliklarini ham e'tiborga olish zarur. Natijada, Buxoro tanga tizimi masalasi to'g'risidagi muzokaralar o'z samarasini bermagan.

1890- yil 30- noyabrda Aleksandr III ning Senat uchun «*Turkiston o'lkasida muomalada bo'lgan mahalliy kumush tangalarini muomaladan olib tashlash to'g'risida*»gi farmoni e'lon qilingan. Ushbu tangani topshirish va almashtirish uchun muddatlar belgilangan: 1892- yil 1- martga qadar tangalarning bittasi uchun 20 tiyin belgilangan, 1893- yil 1- maygacha esa 15 tiyin, 1894- yil 1- maygacha 12 tiyin va 1895- yil 1- maygacha 10 tiyin narx belgilangan. Ammo tangalarni zarb qilish 1893- yilgacha to'xtatilmagan.

1893- yilda Buxoroda pul munosabatlari tangligining dastlabki belgilari sezila boshlaganda, rus siyosiy agenti amirdan xususiy shaxslarga tangalarni zarb qilishni to'xtatishga erishgan.

1893- yil 1- sentyabrda Moliya vazirligining Buxoro tangalarini Turkistonga olib kirilishini ta'qiqlovchi qarori chiqqan. Ushbu vaqtga qadar butun Turkistonda muammosiz muomalada bo'lgan Buxoro tangalari endi faqat Xiva hamda Kaspiyorti viloyatida amal qilishigagina ruxsat berilgan. Ushbu ta'qiqdan keyin tangalarning kursi Rossiya qog'oz pullariga bog'liq bo'lib qolgan. Buxoro g'aznasida va xususiy shaxslarda to'planib qolgan kumushning narxi keskin tushib ketgan. Natijada pul munosabatlari sohasida tang holat yuzaga kelgan va bu rus hukumatining kursni tartibga solish uchun tangalarni zarb qilishni butkul ta'qiqlashga undagan.

Keyingi yili amirning hatti-harakatlari va siyosiy agentning qo'llab-quvvatlashlari natijasida va «*Osiyo davlatlari bilan savdo-sotiq ishlari yuzasidan majlis*» qarorlari asosida tangalarni Turkistonga olib kirilishiga

nisbatan ta'qiqni olib tashlashga kelishilgan. Buning evaziga amir kumush tangalarni zarb qilishni to'xtatishi kerak bo'lgan. Uni Turkiston general-gubernatori bilan maslahatlashmasdan turib yana yo'lga qo'yishi ta'qiqlangan. Ushbu chora Buxoroda pul munosabatlarini tartibga solish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlarning biri bo'lgan.

Hijriy 1319/1901–02- yili tangalar zarb qilinishini qayta yo'lga qo'yilishi Rossiya imperiyasi podshosi va Buxoro hukumatlarining kelishuviga asosan amalga oshgan: *«Amir (Abdulahad) rus xazinasiga 20 mln. rublga teng butun tanga zahirasini va uning yana zarb qilinishi mumkin bo'lgan tangalarning miqdoricha qo'shimcha to'lovni (25 mln rubl) ham to'lagan. Tangalar uchun belgilangan 1 tanga uchun 15 tiyinli kurs bo'yicha tilla va kredit qimmatbaho qog'ozlarda hisob kitob qilingan. Amir ushbu hisobdan g'aznasiga tushadigan tangalarning barchasini rus bankiga topshirish majburiyatini olgan...»*. Tangalarni zarb qilish ularni tamoman hijriy 1322/1904–1905- yilga kelib to'xtatilguncha yana 4 yil davom etgan.

Buxoro mis tangalari zarb etilishining 30- yildan ortiq vaqt (hijriy 1288–1318- yillarda) to'xtab qolishi qiziq hodisa hisoblansa-da, bizgacha ma'lum hujjatlarning birortasida buning sababi ko'rsatilmagan. Shuni taxmin qilish mumkinki, 80–90- yillardagi mayda shahar savdosida rus chaqa tangalari o'ziga xos o'ringa ega bo'lganlar. Ushbu taxminni o'sha davrga oid xazinalar tasdiqlashi mumkin edi, ammo afsuski, bugungi kungacha bunday topilmalar mavjud emas.

Misning kumushga nisbati uning hijriy 1322- yilda zarb qilinishi to'xtatilguniga qadar tangaga nisbatan mayda hisoblangan mis tangalarning, ya'ni pulning tangaga nisbati turli davrlarda har xil bo'lgan – hujjatlarning guvohlik berishicha, 44 dan 64 ga qadar bo'lgan.

1321–1322/1903–1905- yillar Buxoro amirligi pul munosabatlari tarixida tub burilish davri bo'lgan. Kumush tanganing zarb qilinishi to'liq to'xtatilgan va mis tangalarni doimiy zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Tangachilikda asosan mis tangalar ishlab chiqarilganligini inobatga olsak, uning hissasiga muomala sohasida katta mas'uliyat to'g'ri kelgan. Amir hukumati qaysidir ma'noda kumushni mis bilan almashtirishga uringan, natijada yangi pul nominallari paydo bo'lgan. 1319- yilda 30 yillik tanaffusdan keyin oddiy fulslar oxirgi marta paydo bo'lgan.

Narxlarning oshib borishi va qimmatchilik sharoitida, shuningdek, Rossiyaning o'zida ham urush natijasida pul tizimi muammolari kuchaygan bir paytda Buxoro pul xo'jaligida 4 va 8 fulslik qiymatdagi mis tangalar paydo bo'lgan. Mirzo Salimbek tomonidan ushbu tangalar qayd etilgan: *«Bundan keyin yana yangi fulslar chiqarildi, har birini 4 fulslik qiymatda zarb qilindi va ular ham tez qadrsizlanib ketdi. Shunda maslahatlashib, toza misdan 8 fulslik tangalar zarb qilina boshlandi».*

Urush natijasida Rossiyada yuzaga kelgan moliyaviy muammolar Buxoroga ta'sir etmasdan qolmagan. Shunisi qiziqki, butun imperiya hududida kumush tangalarning amal qilishi to'xtatilgan bir sharoitda 1917- yil sentyabrda Davlat bankining Toshkent bo'limi Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasining qat'iy talablariga javob sifatida Buxoroga kredit qog'ozlar va g'azna belgilari bilan birga o'z zahiralari hisobidan 200 ming rubllik kumush jo'natgani diqqatga molik.

Tanglikning mantiqiy yakuni sifatida mis tangalarning zarb qilinishini ko'rsatish mumkin. Mirzo Salimbek ushbu tangalarning zarb qilinishi to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: *«Oliy hazratlari insonlarning ehtiyojlarini to'g'ri tushungan holda hijriy 1335- yilgi mis*

fulslarni tangalarga aylantirib berdilar, yarim misqol mis 1 kumush tangaga, 1 misqoli yana 2 tangaga, 1,5 misqol esa 3 tangaga, 2 misqol 4 tangaga, 2,5 misqol esa 5 tangaga teng qilib belgilandi». Biroq, biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan tangalar namunalarida 4 misqollilari uchramadi. Ehtimol ushbu qiymatdagi tangalar balki Buxoroda mavjud bo'lmagandir.

Amalda esa hijriy 1336–1338- yillarda amir Olimxon xalq orasida «qora tanga» deb atalgan tangalarni zarb qilishga kirishgan. Seriya 1/2, 1, 2, 3, 5, 10 va 20 tangalarga teng yetti qiymatdan iborat bo'lgan. Ular uchun old tomonida sana ko'rsatilmasligi xos xususiyat hisoblanadi. 0,5, 1, 2, 3, 5 tangalar qizil misdan yasalgan va old tomoniga «*fulus*» degan yozuv bitilgan. Ularning orqa tomonida esa zarb etilgan joyi ifodalangan va «*Buxoroda zarb qilingan*» degan jumla va sana bitilgan.

10 tanga pullar esa ancha murakkab tasvirga ega bo'lgan va avvalgi namunalardan yupqa jezdan yasalganligi bilan farq qilgan.

20 tanga pullar esa, avvalgi tangalardek, yupqa jezdan dumaloq tarzda zarb qilingan va ularda «*fulus*» so'zi bitilmagan. Ushbu holat Buxoro pul munosabatlaridagi juda chuqur tanglikdan guvohlik beradi, bunda mis fulslar kumush tangalar o'rnida ishlatilgan.

Bu davrga kelib Buxoro metall pullarining zarb qilinishi to'liq tugatilgan va pul munosabatlarida qog'oz pullar asosiy o'ringa chiqqan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Shohmurod, Nasrullo, Olimxon, Muzaffarxon, Abdulahadxon, «haydari», «ma'sumi G'oziy».

Mavzuga oid savollar:

1. Mang'itlarning tangalari avvalgi sulolalar vakillari tomonidan chiqarilgan tangalardan nimalari bilan farq qilgan?

2. Qaysi Buxoro amiri hukmronligi davrida kumush tangalarni zarb qilish to'xtab qolgan?

3. Shohmurod o'tkazgan pul islohotining asosiy maqsadi va oqibatini tushuntirib bering?

4. Amir Haydar tomonidan zarb qilingan tangalar xususida ma'lumot bering.

5. Amir Nasurullo tomonidan zarb etilgan tangalarning o'ziga xosliklari nimalarda ko'rinadi?

Mavzuga oid test savollari:

1. Buxoro amirligi numizmatikasiga doir ko'plab ma'lumotlar quyidagi qaysi asarda uchraydi?

- a) «Tarixi Alimiy»
- b) «Tarixi Salimiy»
- s) «Tarixi Ma'sumi G'oziy»
- d) «Tarixi Lutfiy»

2. Qaysi Buxoro amiri tomonidan zarb qilingan oltin, kumush, mis tangalar yagona shaklga ega bo'lgan?

- a) Amir Haydar
- b) Amir Nasurullo
- s) Amir Olimxon
- d) Amir Muzaffar

3. Buxoro amirligida «qora pul» bu...?

- a) sifati past kumush tanga
- b) shoyidan tayyorlangan pul
- s) mis tanga
- d) jezdan tayyorlangan maxsus tanga

4. Ilmiy adabiyotlarda Amir Haydar tomonidan zarb qilingan tangalar shartli ravishda nechtaga bo'linadi?

- a) 2 ga
- b) 3 ga
- s) 4ga
- d) 5ga

5. Amir Nasrullo 35 yillik hukmronlik yilining necha yiliga oid tangalar bugungi kungacha saqlanib qolgan?

- a) 35 yillik
- b) 27 yillik
- s) 21 yillik
- d) 19 yillik

Mavzu: № 10. XIVA XONLIGI TANGALARI

Reja:

1. Xonlikdagi iqtisodiy hayotning rivojlanishi.
2. Xiva xonligida tanga zarb etishda o'ziga xos xususiyatlari.

Xonlikdagi iqtisodiy hayotning rivojlanishi. Xiva xonligi o'zbek davlatchiligi tarixi bosqichlaridagi uchta xonlikdan biri bo'lib, 1512–1920- yillarda mavjud bo'lgan. Vazir, Ko'hna Urganch, XVI asrning 70- yillaridan boshlab esa Xiva shahri davlat poytaxti bo'lgan. Xiva xonligi dastlab shayboniylar, keyinroq esa qo'ng'irotlar sulolasi vakillari tomonidan boshqarilgan.

Xonlik hududida zarb qilingan va foydalanilgan tanga pullarni o'rganishdan oldin xonlikning iqtisodiy hayotiga bir oz to'xtalib olish maqsadga muvofiqdir.

Xonliqda sun'iy sug'orishga alohida ahamiyat berilgan, XVI asrning o'rtalarida Yangiariq va Toshli Yormish nomida ikki kanal qazilgan. 1602- yili esa, Arab Muhammad kanali bunyod etilgan. Bu suv inshooti To'q qal'asining yuqori tomoniga o'mashgan bo'lib, tobora kengayib borgan. U Kuygun degan joyga tarqalgan va bu yerdan Orol dengiziga qo'yilgan. XVII asrning 60–80- yillarida Shohobod va Yormish kabi ikkita kanal qurilgan. Yormishning uzunligi 92 km., o'rtacha kengligi 17,5 metrga borgan. Shohobod kanalining uzunligi 143 km., o'rtacha kengligi 30 metr hisoblanib, yirik suv inshooti bo'lgan. Shuningdek, G'ozibod kanalining ham qurilganligi ma'lum. Sun'iy sug'orishda 1815- yili Qilich Niyozboy kanalining qurilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, undan Beshuyli, Gurlan, Nukus, Uyg'ur, Polvonbek kanallari ajralib chiqqan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Qorako'z, Yangiyop, Shayx

Abbos, Toshsoqa va boshqa kanallar ishga tushirilgan.

Xonlikda Amudaryodan turli tomonlarga chiqarilgan kanallar Xorazm vohasida yangi yerlarni o'zlashtirishda, dehqonchilikni rivojlantirish va umuman, hayotni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblangan. Shuni aytib o'tish lozimki, sun'iy sug'orish tarmoqlari hamma vaqt birday turmay, Amudaryoning toshqinlaridan ko'p talofot ko'rgan. Bundan tashqari, har yili erta bahorda kanallarni va ariqlarni hashar yo'li bilan tozalab turilgan. Bunday nihoyatda ko'p kuch va mablag'ni talab etuvchi ishga minglab kishilar jalb qilingan.

Yer davlat va xususiy kishilarning qo'lida bo'lib, ularning muayyan qismi vaqfga berilgan. Dehqonchilik va bog'dorchilikda paxta, bug'doy, arpa, jo'xori, qovun, tarvuz, uzum, olma, nok, shaftoli, o'rik, tut va boshqa turli xil mahsulotlar yetishtirilgan.

Ipakchilik bilan ham shug'ullanilgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, xorazmliklar mohir mirishkor va mehnatsevar kishilar sifatida dong taratganlar.

Xonlikda chorvachilik, ayniqsa, turkman, qoraqalpoq va qozoqlar orasida zo'r rivojlangan. Bu yerlarda qo'y, ot, tuya va qoramollar xonlikning markaziy tumanlariga ming-minglab keltirilib sotilgan. Xonlik qo'shinida turkman otlarining o'mi katta bo'lgan.

Shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning keng tarqalganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bularga ko'ra, to'qimachilik hunari o'sib, paxta va ipakdan turli gazlamalar tayyorlangan. Gazlamalar anvoyi ranglar bilan bo'yali, ular orasida nafis matolarning qadri baland bo'lgan. Bo'yoqchilik alohida kasb sifatida qadrlangan. Paxtadan ip yigirish hunari keng quloq yoygan. Bu ish bilan xotinqizlar shug'ullangan. Kalava ip xorijiy mamlakatlarga, xususan Rossiyaga yuborilib turilgan. Mamlakatda

kulolchilik keng tarqalib, xum, tovoq-kosa, piyola, lagan va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlangan.

O'lkada oltin, kumush, qimmatbaho toshlardan va boshqa ma'danlardan zargarlik buyumlarini tayyorlash ko'payganligi haqida ma'lumotlar bor. Metallardan pichoq, ustara, tasha, ketmon, bel, qaychi, taqa, bolta, arra, o'roq, omoch kabi asboblarni yasaydigan ustalar ko'p edi. Bu o'lkada ko'pchilik rivojlanib, charm pishirish, maxsi, etik, kavush tikish, egar-jabduq tayyorlashga alohida ahamiyat berilgan. Sholcha, namat va yungdan ishlanadigan boshqa buyumlar ishlab chiqarilgan.

Hunarmandchilikda qilich, oybolta, nayza, qalqon, o'q-yoy, piltali miltiq, to'p singari harbiy qurol-aslahalar, porox tayyorlangan. Ammo, miltiq va to'plarning sifati ancha past bo'lib, zamon talabiga javob bera olmagan. To'plardan ko'proq vahimaga solish uchun foydalanilgan.

Xonlikda aravalar, suv chig'iriqlari, tegirmon toshlarini tayyorlaydigan mohir ustalar bo'lgan.

Xiva xonligida ichki va tashqi savdoning tutgan o'mi katta bo'lgan. Xiva, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Toshhovuz, Xo'jayli, Gurlan, Chimboy va boshqa joylar savdo-hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Bu yerlardagi katta-kichik bozorlarda mamlakatning turli tomonlaridan keltirilgan dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini ko'rish mumkin edi. Xonlik mintaqadagi ko'p joylar, ayniqsa, Buxoro xonligi bilan qizg'in savdo aloqada bo'lgan. Bundan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar bilan savdo aloqalari muntazam ravishda davom etgan. Bu ko'chmanchi xalqlardan qoramol, qo'y-echki, jun, oziq-ovqat mahsulotlari olinib, evaziga gazlama, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or asboblari va noz-ne'matlar berilgan, o'troq va ko'chmanchi aholi har jihatdan bir-biriga chambarchas bog'langan holda hayot kechirganlar.

Xiva xonligi Eron, Afg'oniston, Hindiston, Rossiya va boshqa joylar bilan savdo aloqalari olib borgan. Uzoq vaqtlar mobaynida xivalik savdogarlar Astraxan, Nijniy Novgorod, Orenburg singari shaharlarda savdo bilan shug'ullanganlar. U yerlarga turli xil gazlamalar, paxta, ipak va boshqa mollar olib borilgan. Rossiyadan esa temir, cho'yan, charm, tunuka, movut, to'tiyo, qand kabi mollar keltirilgan. Bular orasida fabrikada to'qilgan gazlamalarni ham ko'rish mumkin edi. Ayniqsa, Rossiyadan keyingi asrlarda temir, po'lat va boshqa metallarning keltirilishi g'oyat foydali bo'lgan. Chunki, ulardan asosan dehqonchilik va hunarmandchilik uchun zarur ishlab chiqarish qurollari tayyorlangan.

Xiva xonligida tanga zarb etishda o'ziga xos xususiyatlari. Xiva xonligidagi tovar-pul munosabatlarining jadal rivojlanishi tanga pullarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirgan. Xiva xonligida ham qo'shni hududlardagi va oldingi davrlarda bo'lgani singari uch xil metallardan pullar ishlab chiqarilgan va muomalada bo'lgan:

1. «*Tilla*» – oltin pul bo'lib, ikki xil shaklda va og'irlik miqdorida bo'lar edi. O'sha davr pul miqdorida 1 so'm 80 tiyinga teng, ikkinchisi 3 so'm 60 tiyin deb belgilangan edi.

2. «*Tanga*» – kumushdan ishlanib, bir tanga o'sha davr pul birligida 30 pul birligi yoki 20 tiyin deb belgilangan.

3. «*Pul*» – misdan ishlanib, u pul va tiyinga bo'lingan. Kumushdan ishlangan tanga «*oq tanga*», misdan ishlangan pul esa «*qora tanga*» deb yuritilgan. «*Qora tanga*» o'zining qiymati jihatidan oq tanganing 60%ga teng edi.

Shuningdek, xonlikda «*shoyi*», «*Abbos shoyi*», «*yarim shoyi*» deb nomlangan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyingga o'zgarib turgan. Bu pullarda odam rasmi tasvirlanmasdan, arab imlosida qaysi xonlik tomonidan nechanchi yillarda zarb qilingani

yozilgan.

Xiva oltin pullari mahalliy va xorijdan keltirilgan oltindan yasalgan. Xiva oltinlari o'zining yaltiroqligi, mustahkamligi jihatidan ajralib turgan. Muomalada ko'p ishlatilgan kumush pullarning metallari Quyi Novgoroddan keltirilgan.

Hozirgi kunda Xiva xonligida zarb qilingan oltin, kumush, mis pullar va ularning qoliplari dunyoning ko'pgina mamlakatlari muzeylarida saqlanmoqda. Masalan, Moskva, Sankt-Peterburgdagi muzeylarda Xiva xonligi Rossiya tomonidan zabt etilgach, uning qimmatbaho buyumlarini, birinchi navbatda, oltin, kumush pullarini talash natijasida qo'lga kiritilgan o'ljalari saqlanmoqda.

Rossiya jo'g'rofiya jamiyati vakili sharqshunos olim P. I. Perx va A. P. Kun rahbarligida ilmiy jihatdan tashkil qilingan. Vasilevskiy yordamida Peterburgdagi ermitajda tashkil qilingan numizmatika va boshqa fondlar O'rta Osiyodan, jumladan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligidan keltirilgan oltin, kumush, mis, atlas va boshqa pullar hisobiga boyigan. 1883- yili Ermitajga jo'natilgan buyumlar ichida 1168 ta qadimiy oltin va kumush tangalar bo'lgan. Bundan tashqari, o'ljalari ichida tanga zarb qiladigan qoliplar, oltin va kumushdan ishlangan 25 ta xon muhri, 200 dan ortiq qadimiy tangalar mavjud bo'lgan. Bularning hammasi Xiva xonligi davrida zarb qilingan pullarning namunalaridir. Rossiya Xivani bosib olishi bilanoq pul tizimini Rossiya pul tizimiga o'tkazishni taklif etgan, lekin amalga oshmagan.

Xonlikda ko'pincha kumushdan bo'lgan tanga pullar qulayligi uchun ko'p ishlatilgan. XIX asrning oxirlarigacha har yili bir million so'mlik kumush tanga pullar xivalik mahalliy ustalar tomonidan zarb qilingan.

Xonlik Rossiya imperiyasi tomonidan bosib

olinganidan keyin yekaterina II podsholigi davridan buyon pul sifatida muomalaga kiritilgan qog'oz, kumush pullar xonlik hududida qo'llanilmagan, qo'llanilganda ham o'z kursidan past narxda qo'llanilgan. Pul muomalasida qiyinchilik vujudga kelishi natijasida sarroflar faoliyati faollashadi. Hatto rus savdogarlari tangalar va tillalarni yig'ishtirib olib, qog'oz pullarni tarqatishni taklif qilganlar. 1893 yil Rossiya moliya vazirligining tashabbusi bilan rus savdogarlarining iltimosi muhokama qilinib, Xiva xoniga tanga pullarini faqat rus podshosining ruxsati bilan zarb qilish majburiyati yuklatilgan.

Natijada XX asrning birinchi o'n yilligida rus qog'oz pullari ishlatilayotgan tanga pullarga nisbatan ikki barobar ko'payib ketgan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'z umrining oxirlarida Xiva xonligida muomala uchun ishlatilayotgan pul miqdorining yetishmayotganligi, shuningdek, musulmon sharq olamida podsholar nomidan pul chiqarib turilmasa unga xalq itoat etmasligini tushuntirib, iltimos qilib, zo'rg'a tanga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan. Uning vafotidan keyin Xivada pul bosib chiqarish deyarli to'xtatilgan. Rus podshosi pullari muomalada ishlatiladigan bo'lgan.

1914- yildan boshlab Rossiya rus savdogarlari Xivada zarb qilingan tangalarni olmay qo'ygan. Mavjud bo'lgan tilla va kumush pullar xalq qo'lida muomalada ishlatilavergan.

Asfandiyorxon hokimiyat tepasiga kelgach, rus podshosi va amaldorlari Xiva xonligida bir qancha islohotlar o'tkazish, Xivada muomalada bo'lgan yuritilayotgan barcha tanga va pullarni yig'ib olib butunlay pul tizimini yangilashni ham taklif qilganlar. Lekin bu reja amalga oshirilmagan. 1918-1920- yillarda xonlikda qo'shhokimiyatchilik davri bo'ldi. Bu davrdagi Sayid

Abdulloxon qo'g'irchoq xon edi. Aslida hokimiyatni Junaidxon boshqargan. U o'z hokimligini xalqqa ma'lum qilish uchun pul ham bostirib chiqargan. Uning puli atlasga ishlangan bo'lib, «*turma qog'oz*» nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik Junaidxon nomi bilan qog'oz pullar ham bosib chiqarilgan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

Qora tanga, oq tanga, ashrafiy, pul, shoyi, Abbos shoyi, yarim shoyi, tilla.

Mavzuga oid savollar:

1. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qanday bo'lgan?
2. Shayboniylar sulolasi davrida Xiva xonligida tovar-pul munosabatlari qanday kechgan?
3. Xiva xonligida chiqarilgan shoyi pullar xususida nimalarni bilasiz?
4. Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi xonlikning numizmatik siyosatiga qanday ta'sir qilgan?
5. 1918–1920- yillarda Xiva xonligida qanday pullar ishlab chiqarilgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Qachondan boshlab Xiva xonligida tanga pullar faqat Rossiya imperatorining buyrug'i bilan zarb qilinadigan bo'lgan?
 - a) 1873- yildan
 - b) 1893- yildan
 - s) 1887- yildan
 - d) 1897- yildan

2. «Turma qog‘oz» bu nima?

- a) bu Junaidxon tomonidan chiqarilgan qog‘oz pullar
- b) bu qog‘oz pullar uchun ishlatiladigan maxsus xom-

ashyo

- s) bu Junaidxon tomonidan chiqarilagan atlas matolik

pul turi

- d) bu Junaidxon tomonidan chiqarilgan ipak matolik

pul

3. Xiva xonligida «qora tanga» bu...?

- a) sifati past kumush tanga
- b) shoyidan tayyorlangan pul
- s) mis tanga
- d) jezdan tayyorlangan maxsus tanga

4. Quyidagilardan Xiva xonligida ishlatilmagan pul birligi nomini aniqlang.

- a) qora movut
- b) shoyi
- s) Abbas shoyi
- d) yarim shoyi

5. Qachondan boshlab rus savdogarlari Xiva xonligida zarb qilingan tangalarni olmay qo‘ygan?

- a) 1873- yildan
- b) 1893- yildan
- s) 1914- yildan
- d) 1917- yildan

Mavzu: № 11. QO‘QON XONLIGI TANGALARI

Reja:

1. Xonlikdagi iqtisodiy hayotning rivojlanishi.
2. Qo‘qon xonligida tanga-pul munosabatlari.

Xonlikdagi iqtisodiy hayotning rivojlanishi. O‘zbek xonliklaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligiga minglar urug‘idan bo‘lgan Shohruxbiy 1709- yilda asos solgan. Davlat poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan.

Qo‘qon xonligida ham sun‘iy sug‘orish hal qiluvchi o‘rinni egallagan. Shu bois sug‘orishga alohida ahamiyat berilgan. Vodiya Oloy va Turkiston tizmasidan oqib tushadigan Norin daryosi suvidan keng foydalanilgan. Oqbura, Aravon, Isfayram, Shohimardon, So‘x va Isfara singari daryolar ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, Qoradaryo va uning irmoqlari bo‘lmish Qurshob, Qorag‘ulja, Tap, Yassi, Ko‘gart, Maylisoy hamda Chotqol tog‘laridan oqib tushadigan Podshoota, Kosonsoy, G‘ovasoy daryolari dehqonchilikning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Norin va Qoradaryo qo‘shilishidan yuzaga kelgan Sirdaryo eng katta suv manbai edi. Farg‘ona vodiysida sun‘iy sug‘orishga Shohruxbiy va Erdonabiy vaqtida alohida e‘tibor berilgan. Xususan, Erdonabiy So‘x daryosidan ariq chiqarib, yangi yerlarni o‘zlashtirgan. So‘x daryosidan ariqlar Norbo‘tabiy vaqtida ham qazilgan. Olimxon esa oltita kanal chiqargan va Oltiariq nomli katta qishloqning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan. Muhammadalixon ham So‘xdan ariq qazitgan. Xudoyorxon tomonidan Ulug‘nahr kanalining qurilishi Asaka atrofidagi bepoyon yerlarni o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lgan. Sun‘iy sug‘orishning rivojlantirilishi hunarmandchilikning va umuman vodiya ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishiga

olib kelgan. Farg'ona vodiysida yerning ko'pgina qismi davlatning qo'lida bo'lgan, uning muayyan qismiga xususiy kishilar egalik qilgan. Bulardan tashqari, vaqf yerlari mavjud bo'lgan. Xonlar yerlarning bir qismini soliqlardan ozod etgan holda, xizmat ko'rsatgan kishilarga xususiy mulk tarzida bergan. Dehqonchilikda paxta, ipak, tamaki yetishtirilishi bilan birga sabzavotchilik va bog'dorchilik rivojlantirilgan. Kishini hayratlantiradigan va zavqlantiradigan bog'lar ko'p bo'lgan. Paxta va ipak xonlik hayotida muhim o'rin egallagan. Dehqonchilikning o'sishiga monand ravishda hunarmandchilik ham keng quloq rivojlangan. Ayniqsa, to'qimachilik, ko'ncilik, kulolchilik, tikuvchilik, bo'yoqchilik, misgarlik, temirchilik, duradgorlik va hunarmandchilikning boshqa turlari rivojlangan. Ular faqat ichki ehtiyoj uchun emas, balki tashqi bozor uchun ham turli-tuman nafis mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. Xonlikda savdo-sotiq qizg'in tus olgan. Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan va O'sh yirik savdo-hunarmandchilik markazlariga aylanib, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xo'jand, Xiva hozirgi Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston yerlari bilan yaqindan savdo aloqalarini olib borganlar. O'z navbatida, Qo'qon xonligi savdogarlarini Turkiston o'lkasining ko'p joylarida uchratish mumkin edi. Ular ayni bir paytda Xitoy, Hindiston, Turkiya, Rossiya, Arabiston va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan savdo qilganlar. Qo'qonliklar, ayniqsa Qashqar bilan qizg'in savdo olib borganlar. Bu ishda andijonliklar salmoqli o'rin egallagan. Ularning Qashqardagi faoliyati shu darajada salmoqli bo'lganki, Markaziy Osiyodan u yerga borgan savdogarlar ko'pincha «andijonliklar» deb yuritilgan. U vaqtlarda xonlik savdogarlari asosan tayyor mahsulotlar bilan savdo qilishlari vodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Qo'qon xonligida tanga-pul munosabatlari. Qo'qon xonlari XVIII asr 70- yillariga qadar mamlakatning siyosiy

mustaqilligini saqlab qolish va ichki urushlarning oldini olish bilan mashg'ul bo'lgan. Shu bois, ichki savdo munosabatlaridagi oldi-sotdi jarayoni qo'shni xonliklar pullari, asosan Buxoro tangalari va mol ayirboshlash orqali amalga oshirilgan. Norbo'tabiy (1762–1798) Qo'qon taxtiga o'tirganidan so'ng pul islohotini amalga oshirgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Norbo'tabiy mis (fuls) chaqalar zarb ettirgan va bu mis chaqalar xalq orasida «qora pul» deb atalgan. Niyoz Muhammad Ho'qandiy ma'lumotlariga ko'ra, Norbo'tabiy qora fuls tangalarni joriy qilgan. O'sha davrda bitta shunday tangaga bir bosh qo'y bergan.

Norbo'tabiydan so'ng xonlik taxtiga chiqqan har bir xon o'z nomidan yangi pul zarb ettirib, eskisini yig'ishtirib olgan. Qo'qon xonlari ko'proq chaqa pul, ba'zilari oltin tanga zarb ettirgan. Xususan, Norbo'tabiy mis chaqa, Olimxon (1798–1810) mis chaqa va kumush tanga, Umarxon (1810–1822) dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining so'ngi yillarida yana pul islohoti o'tkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomalaga kiritgan. Muhammadalixon (1822–1842) o'z hukmronligi davomida ikki marta pul islohoti o'tkazib, mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirgan. Shuningdek, Sheralixon (1842–1845), Xudoyorxon (1845–1858, 1862–1863, 1865–1875), Mallaxon (1858–1862)lar ham mis, kumush va oltin tangalar zarb ettirganlar. Hatto, bir necha oy hukmronlik qilgan Shohmurod oltin va kumush, Sayyid Sulton oltin, kumush va mis, Po'latxon va Nasriddinbek esa kumush tangalar zarb ettirgan.

Qo'qon xonligi tangalarining bir tomoniga uni zarb ettirgan hukmdor nomi, ikkinchi tomoniga zarb yili va joyi yozilgan. Xususan, Umarxon tomonidan zarb ettirilgan tanganing bir tomoniga, «*musulmonlar amiri Sayyid Muhammad Umar Sulton*», ikkinchi tomoniga «*1237- yil poytaxt Qo'qonda zarb etildi*», Muhammadalixon zarb ettirgan tanganing bir tomoniga, «*Muhammad Ali-G'oz*

Umar o'g'li 1247- yil», ikkinchi tomoniga «*poytaxt Qo'qonda zarb etildi, 1247- yil*», Xudoyorxon zarb ettirgan oltin tanganing bir tomoniga, «*Sayyid Muhammad Xudoyorxon 1274- yil*», ikkinchi tomoniga «*Qo'qandi Latifda zarb etildi 1274- yil*» va Mallaxon zarb ettirgan tilla tanganing bir tomoniga «*Sayyid Muhammad Malla Baxodurxon 1275- yil*», ikkinchi tomoniga «*Qo'qandi Latifda zarb etildi 1275- yil*»,— deb qayd etilgan.

Qo'qon xonligining oltin puli – *tillo*, kumush puli – *tanga* yoki *qo'qon*, mis puli esa – *chaqa* deb nomlangan. Mahalliy aholi kumushdan ishlangan tangani «*oq tanga*», misdan ishlangan tangani «*qora tanga*» deb ataganlar. Xonlik tangalari sifati va vazni turli xil bo'lgan. Muhammadalixon hijriy 1249- (1833–1834) yilda og'irligi 1 misqol bo'lgan tilla tanga zarb ettirgan hamda vasiqasida «*Tilloyi ahmari a'loyi Ho'qandiy, zarbi amir Muhammad Alixon G'oziy*», nomi bilan qayd etilgan. Xudoyorxon 1274- yil (1857–1858) zarb ettirgan tilla tangasi og'irligi 3,07 gr., Mallaxon 1275- yilda (1858–1859) zarb ettirgan tilla tanganing og'irligi 4,58 gr. bo'lgan. XIX asrning 70-yillaridagi Qo'qon tilla tangasining 77,6 dan 82,8 foizigacha toza oltin hisoblangan.

Qo'qon kumush tangasi ham turli xil vaznda zarb etilgan. Xususan, 1870–1871- yillarda Toshkent ximiya laboratoriyasida tekshirilgan kumush tanga og'irligi 2,79 dan 2,88 gramgacha (0,75 misqol), soflik darajasi 61–89,5 bo'lgan. Bu vaqtda 250 tangaga yaxshi ot bergan.

Mis chaqalarning vazni ham har xil bo'lib, Norbo'tabiy zarb ettirgan mis tanganing og'irligi 2,35 gr.dan 4,55 gr.gacha, Olimxon mis tangasi 3,44 gr.dan 7,83 gr.gacha, Umarxon mis tangasi 3,2 gr.dan 6,43 gr.gacha, Muhammadalixon mis tangasi 2,57 gr.dan 5,06 gr.gacha vaznli bo'lgan. P. I. Nebolsinning yozishicha, Qo'qon chaqasining 89–96 qismi mis bo'lib, 24–25 chaqa 1 tangaga teng bo'lgan.

Xonlik tangalari qiymati turli davrlarda o'zgarib turgan. XIX asrning 30 yillarida xonlikda bo'lgan Potaninning yozishicha, Qo'qon tillosi bir misqol⁶, tanga 7/8 misqol, mis bir misqol atrofida vaznda bo'lgan va bir tillo 20 kumush tangaga, tanga 76 mis chaqaga teng baholangan. XIX asr o'rtalarida Qo'qon tillosi 21 tangaga, 12 rub. 82 kop.ga yoki 3 rub. 70 kop. kumushga teng bo'lgan. Kumush tanga 21 mis chaqa bo'lgan va ba'zida 53–140 chaqagacha chiqqan. Ch. Ch. Valixanovning yozishicha, XIX asr o'rtalarida Qo'qon tillosi 20–21 Qo'qon yoki 17 Buxoro tangasiga to'g'ri kelgan, 1 tanga 20 kop., 24 pul va 4 miriga teng bo'lgan va 6 pul 1 miriga qiymatda hisoblangan. XIX asrning 70 yillarida 1 Qo'qon tillasi 19 tangaga yoki 3 rub. 80 kop. kumushga, 1 tanga 40 chaqaga teng edi. Musulmonqul zarb ettirgan kumush tanga 24–32 chaqaga, Mallaxon davridagi tanga 42–50 chaqaga, undan so'ng tanga 60–64 chaqaga, ba'zi holatlarda tanga 100 chaqaga teng bo'lgan. 3 mis chaqa 1 kop. kumushga to'g'ri kelgan.

Qo'qon xonligi tangalari Xiva, Buxoro, Qashqar bozorlarida ham ishlatilgan. O'z navbatida xonlik hududida Xiva, Buxoro, Qashqar, Xitoy, Rossiya, Afg'on, Hind tangalarida ham savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Qo'qon xonligining yirik shaharlarida pul almashtirish do'konlari faoliyat yuritgan. Xususan, xonlikning eng yirik markazlari Qo'qon va Toshkentda chorshanba hamda yakshanba bozori kunlari pul almashtiruvchi do'konlar faoliyat ko'rsatgan.

Tilla tangalar, asosan Chirchiq, Koson daryolari bo'yidan va Qorategindan hamda Sibirdan yashirin yo'llar bilan olib kelingan oltindan, kumush tangalar esa Qashqar orqali kirib kelgan Xitoy kumush yombilaridan, mis chaqa esa Rossiyadan keltirilgan qizil misdan tayyorlangan.

⁶ Izoh: misqol – og'irlik o'lchov birligi. 1 misqol XIX asrda Farg'ona vodiysida 4,55 grammga teng bo'lgan (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 6 – том. 2003. – Б. 28.).

Xitoy yombisining 430–440 misqol vaznlisi xonlik bozorlarida ko'proq uchragan va narxi siyosiy hamda iqtisodiy vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Qo'qon zarbxonasida XIX asrning 70 yillarida 440 misqolli Xitoy kumush yombisi 30 tilloga xarid qilingan va ba'zi vaqtlarda esa, 432 misqolli kumush yombi 31,5 tilloga ham sotib olingan hamda bir kumush yombidan 640–700 dona kumush tanga zarb etilgan.

XIX asr o'rtalarida Toshkentda Rossiyadan keltirilgan qizil misning tuyasi 12 rub. 80 kop.dan 13 rub. 70 kop.gacha sotib olingan. Qo'qon xonligiga Toshkent orqali Rossiyadan 1840–1849 yillar davomida (10 yil ichida) 1547 pud, ya'ni, 13620 rub. 90 kop.lik, 1850–1854 yillarda 5011 rubllik mis olib kelingan.

Savdogarlardan mis, oltin va kumushni Qo'qon sarrofboshisi sotib olgan. XIX asr o'rtalarida 100 misqolli oltin yombi 90–95 tillo, 314 misqolli kumush yombi 20 tillo, misning botmoni 22–28 tillodan sotib olingan. Mis tanganing 4 dan 1 qismi miqdorida qo'rg'oshin qo'shilgan va qo'rg'oshin xonlik hududidan qazib olingan hamda botmoni 15–16 tillodan harid qilingan. Sarrofboshi sotib olgan metallarini zarbxonaga keltirgan va mirzaning kitobiga qayd qildirgan.

Poytaxt Qo'qonda xon O'rdasi yaqinida mamlakatdagi yagona zarbxona mavjud bo'lgan. Biroq, ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr boshlarida O'shda ham xonlik zarbxonasi mavjud bo'lgan va unda mis chaqa tangalar zarb etilgan. Qo'qon zarbxonasi bir kecha-kunduzda 1000 tanga zarb qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Zarbxonada 100 misqolli oltin yombidan 100 tillo, kumush yombidan 640–700 tanga, 1 botmon misdan 36 ming chaqa zarb etilgan. Zarb etilgan 100 misqol oltindan 5 tillo, bitta yombi kumushdan 2 tillo, bir botmon mis va qo'rg'oshindan 13 tillodan xon foydasiga o'tkazilgan. Shuningdek, sarrofboshi va zarbxona xizmatchilari ham ma'lum miqdorda daromad olgan. XIX

asrning 60- yillarida Qo‘qon mingboshisi bo‘lgan Aliquli davrida Qo‘qon zarbxonasida kuniga 100 tagacha, yiliga 36 ming yombidan tanga zarb etilgan. Qo‘qon zarbxonasidan xon yiliga 25 ming tillo daromad olgan.

Qo‘qon xonligida qalbaki pullar ishlab chiqarishga qarshi jiddiy choralar ko‘rilgan. Arxiv ma‘lumotlariga ko‘ra, xonlik fuqarosi Hosilbek Xolnazarov qalbaki tangalar ishlab chiqargani aniqlangach, ta‘qib ostiga olingan. U xonlikdan qochishga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsada, uni qo‘lga olish uchun qo‘shni xonliklarga xon nomidan maxsus murojatnomalar yuborilgan. Qo‘qon xonligida tanga-pullarni ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish bilan mehtar shug‘ullangan. Xonlik bozorlarida mol ayirboshlash an‘anasi ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Mavzuga oid tayanch iboralar:

«Qora pul», «tillo», Norbo‘tabiy, Umarxon, Olimxon, Madalixon, Potanin, Aliquli, Nebolsin, Valixonov, Hosilbek Xolnazarov.

Mavzuga oid savollar:

1. Qo‘qon xonligida tanga zarb qilinishini yo‘lga qo‘yilishi xususida ma‘lumot bering?
2. Qo‘qon xonligi tangalarining boshqa o‘zbek xonliklari tangalaridan farqli xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
3. Qo‘qon xoni Umarxon davri tangalari haqida ma‘lumot bering?
4. Qo‘qon xonligi tangalari xususida kimlarning asarlarida qator ma‘lumotlar berilgan?
5. Qo‘qon xonligida qalbaki pullar ishlab chiqarishga qanday munosabatda bo‘lishgan?

Mavzuga oid test savollari:

1. Qo'qon xonligi tashkil topganida dastlab qanday tangalardan foydalanilgan?
 - a) Buxoro amirligi
 - b) Xiva xonligi
 - s) Jung'ar xonligi
 - d) Sin imperiyasi
2. Qo'qon xonligida qaysi hukmdor davridan boshlab tangalar zarb etila boshlangan?
 - a) Abdulkarimbiy
 - b) Shohruhbiy
 - s) Abdulhakimbiy
 - d) Norbo'tabiy
3. Qaysi Qo'qon xoni davrida xonlikda ilk bor oltin tangalar zarblangan?
 - a) Norbo'tabiy
 - b) Olimxon
 - s) Umarxon
 - d) Xudoyorxon
4. «XIX asr o'rtalarida Qo'qon tillosi 20-21ta Xiva yoki 17ta Buxoro tangasiga to'g'ri kelgan». Ushbu ma'lumotni kim bergan?
 - a) Ibrat
 - b) Ch. Valixonov
 - s) X. Bobobekov
 - d) Fazliy Namangoniy
5. XIX asr 60- yillaridagi ma'lumotlar ko'ra Qo'qon zarbxonasidan xon yiliga qancha daromad olgan?
 - a) 1.000 tillo
 - b) 10.000 tillo
 - s) 30.000 tillo
 - d) 25.000 tillo

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз – келажак йўқ. – Тошкент: «Шарк», 1998.
2. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: «Маънавият», 2008.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Абдуллаев К. Тетрадрахма Антиоха I из Хаприна (Джам) // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент, 2000. Вып. 5. – С. 11-13.
6. Абдуллаев К. Тетрадрахма Гелиокла из Джама // Археологические исследования в Узбекистане. 2003 год. – Ташкент, 2004. Вып. 4.
7. Аюпова Ф. Қадимий тангалар // Мозийдан садо. 2000. № 1-2.
8. Баратова Л. Тюркский каганат и его взаимоотношения с владениями Среднеазиатского Двухречья (очерки по государственности Узбекистана). – Т., 2001.
9. Бобоёров Ф.Б. Ғарбий Турк ҳоконлиги тангаларида акс этган ҳокимият рамзларига доир // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммоларига доир. “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумидаги анжуман материаллари. – Тошкент-Наманган, 2007. – Б. 4-6.
10. Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавҳалар. – Т.: Yangi nashr, 2010.
11. Буряков Ю.Ф. Экономические и культурные связи Чача и Ферганы // Буюк Ипак йўли ва Фарғона водийси: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2004.

12. Вайнберг Б.И. Монеты Древнего Хорезма. – М., 1977.
13. Давидович Э.А. История денежного обращения Средней Азии. – М., 1983.
14. Зограф А.Н. Монеты Герая. – Т., 1937.
15. Ишанхонов С.Х. Нумизматическая коллекция, (материали по истории Узбекистана) – Т., 1963.
16. Камышев А.М. Клады медных монет тимуридов и шейбанидов. – Самарканд, 2013.
17. Кочнев Б. Ўзбекистон пуллари // Фан ва турмуш. 1995. № 5–6.
18. Кочнев Б. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209 гг.). Часть I. – М.: «СОФИЯ», 2006.
19. Мадраҳимов З.Ш. Қўқон хонлиги тангалари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2010. – №2. – Б. 131–133.
20. Нуруллаев А. Бухорода пул тизими // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 2. – Тошкент, 2001.
21. Пидаев Ш. Тангалар – давр кўзгуси. – Т.: Фан, 1984.
22. Расулов Д. Бухоро амирлигида зарб қилинган пуллар // Мозийдан садо. Тошкент, 2008, №3.
23. Ртвеладзе Э.В. Ўрта Осиёнинг қадимги тангалари. – Т.: Фан, 1987.
24. Спасский И.Г. Русская монетная система. – Лён, 1962.
25. Тўхтиев И. Тангалар тилга кирганда. – Т.: Фан, 1989.
26. Тўхтиев И. Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари. – Т.: Фан, 1992.
27. Хатамова М. Илк ўрта асрларда Ўзбекистон шаҳарлари (Чоч воҳаси мисолида). – Т.: Yangi nashr, 2017.
28. Ходжаниязов Т. Денежное обращение в государстве Великих Сельджуков. – Ашхабад, 1977.
29. Эрназарова Т., Кочнев Р. Тангалар ўтмиш даракчилари. – Т.: Фан, 1997.

MUNDARIJA

- Soʻz boshi.....
- 1- mavzu. «Oʻrta Osiyo numizmatikasi» fani, maqsadi va vazifalari.....
- 2- mavzu. Oʻrta Osiyo hududida zarblangan qadimgi davr tangalari.....
- 3- mavzu. Ilk oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyoda zarb etilgan tangalar.....
- 4- mavzu. Arab xalifaligining ilk davridagi va somoniylar davri tangalari.....
- 5- mavzu. XI–XIII asrlarda Movarounnahr tangalari.....
- 6- mavzu. XIII–XVI asrlar tangalari.....
- 7- mavzu. Temuriylar davri tangalari.....
- 8- mavzu. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalar.....
- 9- mavzu. Buxoro amirligi tangalari.....
- 10- mavzu. Xiva xonligi tangalari.....
- 11- mavzu. Qoʻqon xonligi tangalari.....
- Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....

Ilmiy nashr

Abdilatip SARIMSOKOV

O'RTA OSIYO NUMIZMATIKASI

O'quv qo'llanma

Muharrir: Alisher Isokboyev
Texnik muharrir: Qodir Jumaboyev
Dizayner: Mirkomil Usmonov

"Iste'dod ziyo press" nashriyoti,
Namangan shahri, 3-kichik tuman, 2-uy.

2092



Terishga 2023-yil 10-mayda berildi. Bosishga 2023-yil 16-mayda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 ¹/₃₂. « Times New Roman» garniturasida ofset bosma usulida oq qog'ozga bosildi. Hajmi 10 bosma taboq. Adadi 10 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZORRO PRINT» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Namangan shahar, Marg'ilon ko'chasi, 8-uy.



ISBN 978-9943-955-63-9



9 789943 955639